

QODIRJON MAXKAMOV

# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SOTSIOLOGIK TA'LIMOTI

(o'quv qo'llanma)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIJ VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**KODIRJON ODILJONOVICH MAXKAMOV**

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING  
SOTSIOLOGIK TA‘LIMOTI**

**(o‘quv qo‘llanma)**

**Namangan – 2020**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustda va 2015-yil 10-yanvardagi «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-sonli, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-sonli, qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma ma'lumotlaridan 5210100 - Sotsiologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan «Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti» fani bo'yicha dars mashg'ulotlarida foydalanish mumkin. O'quv qo'llanmada qadim zamonlardan sharqda vujudga kelgan jamiyat haqidagi ijtimoiy ta'limotlarning shakllanishi va sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari bayon etilgan.

**Mas'ul muharrir:**

**Umarov Abdusalom Adilovich**  
Sotsiologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Abdulazizov Abduvohid Xabibullayevich**  
Sotsiologiya fanlar nomzodi, dotsent


**Tojibaev Baxromjon Turabayevich**  
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

Mazkur o'quv qo'llanma Namangan davlat universiteti Kengashining 2020-yil 13 iyuldagi 10-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**Q.O.Maxkamov**

Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti (o'quv qo'llanma).  
– Namangan, 2020. – 192 b.

© Namangan davlat universiteti, 2020-yil.





Ijtimoiy ta'limotlar jamiyat vakillari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar negizida shakllanish bilan birga, jamiyat taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelgan. Sharq mutafakkirlarning sotsiologik ta'limoti o'quv qo'llanmasi eng qadimgi davrlardan to XX-asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, shu davr mobaynida yashab o'tgan buyuk mutafakkirlarning sotsiologik ta'limotlari, qarashlari, ilmiy nazariya va g'oyalari o'rganadi. Ushbu qo'llanma oliy o'quv yurtlarining sotsiologiya yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni sharq mutafakkirlarining davlat va jamiyat, olam va odam, siyosiy – iqtisodiy hamda ma'naviy qarashlari bilan tanishtirish maqsad qilib olingan. Sababi ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida ushbu sohaga tegishli bo'lgan tarixiy manbalar va ularda qayd etilgan ijtimoiy qarashlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sohaga oid tarixiy ma'lumotlar va manbalar jamiyat taraqqiyotida ro'y beradigan hodisa va jarayonlarni tadqiq etishda, ularning kelib chiqishi va rivojlanishi dinamikasi haqida fikr yuritish hamda sotsiologik tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlarini chuqur o'rganish bo'lajak sotsiolog-mutaxassislar uchun shu sohani milliy mentalitet va xarakterning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Talabalar sharq allomalarining ijtimoiy qarashlarini o'rganish natijasida ularning tafakkur tarzini tushunish, izohlay olish malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shuningdek, ushbu ta'limotlar jamiyatning sotsial negizi, tarkibiy qismlari, sotsial qonunlar va kategoriyalar, jamiyat ijtimoiy madaniy hodisa va jarayon ekanligining mohiyatiga oid qonuniyatlarni qamrab oladi.

Shundan kelib chiqqan holda, Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti fanidan talabalarga chuqur va mukammal bilim berish, ularda egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olish malakasini shakllantirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadni amalga oshirishda esa zamonaviy





pedagogik va axborot texnologiyalarining oʻrni beqiyos ekanligini unutmashimiz darkor. Ushbu oʻquv qoʻllanma ham ayni shu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Sharq mutafakkirlarining sotsiologik taʼlimoti fani boʻyicha tuzilgan mazkur oʻquv qoʻllanma fanning namunaviy oʻquv dasturida keltirilgan mavzular asosida tuzildi.

Ushbu oʻquv qoʻllanma oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari talabalari, oʻqituvchilar va keng ommaga moʻljallangan. Unda nafaqat sotsiologik bilimlarning asoslari, balki amaliy sotsiologik tadqiqotlarning uslub va yoʻllari ham berilgan boʻlib, mutaxasislarning mustaqil aniq sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazishiga katta yordam beradi.

Qoʻllanmani tayyorlashda sotsiologiya, tarix, falsafa, madaniyatga oid manba va adabiyotlardan foydalanildi. Shuningdek, xorijda nashr qilingan adabiyotlar, ilmiy maqolalar va respublikamizning turli oliy oʻquv yurtlarida tayyorlangan darslik, qoʻllanma, dastur va boshqa manbalardan keng va samarali foydalanildi.

# QADIMGI SHARQDA ILK SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARNING SHAKLLANISHI

## REJA:

1. Qadimgi sharqda ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishi va jamiyat haqidagi qarashlarning shakllanishi.
2. Qadimgi davlat va jamiyat haqidagi qarashlarning o'ziga xos ko'rinishlari.
3. Qadimgi Hindistonda sotsiologik ta'limotlar va din.

**Maqsad:** *Talabalarga qadimgi sharqdagi ilk sotsiologik ta'limotlarning shakllanish jarayonlari va davlatchilik asoslarining vujudga kelishi asoslarini hamda ularning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*

Sharq xalqlarining hayotga bo'lgan sotsiologik qarashlari mohiyat e'tiboriga ko'ra, g'arb sotsiologlarining ijtimoiy yondashuvlaridan farq qiladi. Qadimgi sharq kishisi uchun o'zlikni anglash, ma'naviy komillikka erishish, sabrlik, itoat tushunchalari moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini rad etish, o'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iborat bo'lgan bo'lsa, g'arb kishisida buning aksini ko'ramiz. Sharq kishisi uchun individualizm hamisha salbiy hisoblanib, jamoaviylik behavotirlik omili bo'lib kelgan. Ushbu jamoaviy birlik uchun intilish va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ehtiyojij harakatlar sharqda ilk davlatchilik tizimlarini tarkib topishini tezlashtirdi. Shu bilan birga, alohida shaxslarning o'zligini jamoa ixtiyoridan tashqarida individual namoyon etishiga salbiy nuqta nazardan yondashilgan. Shaxslararo siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qarashlar, absolyut yakdil bo'lgan sharq birdamligi jamiyatning ma'naviy qiyofasini ifoda etar edi.

Eramizdan avvalgi III ming yilliklarda qadimgi Misr, Hindiston, Mesopotamiyada davlatchilikning mustahkam an'analari yuzaga keldi. Sharq davlatchiligi asosida ijtimoiy birlik mutloqlashtirildi va jamiyatda jamoaviy yaxlitlikka amal qilish qat'iy nazoratga olingan bo'lsa-da, bu asosan jamoaviy masalalarni hal etishda ko'zga tashlanar, davlat, hokimiyat





boshqaruv shakli esa buning teskarisi - hukmdor va amaldorning vakolatlari mutloq hisoblangan. Sharq davlatlarida xudo davlat boshqaruvchisi obrazida (podsho xudoning yerdagi soyasi sifatidagi gaplar shundan kelib chiqqan) talqin etib kelingan. Masalan, qadimgi Xitoy imperatorlarini ilohiy osmon farzandi sifatida talqin etilgan bo'lsa, Misrda fir'avnga xudo-iloh tarzida e'tiqod qilingan, Shumerda esa podshoh xudoning aynan o'zi, deb talqin etilgan. Fir'avn va podshohlar hukmi nafaqat jamiyatga, balki tabiatga ham ta'sir eta oluvchi kuch sifatida tushunilgan. Shu boisdan ham ekin ekish chog'ida birinchi omoch yurgizish, hosilning birinchi mahsulini olish, biror bino qurilishida ilk tosh yoki g'ishtni ramziy baraka, quvvat beruvchi ilohiy kuch sifatida podshoh tomonidan qo'yilishi, farzandlarga ism qo'yishda podshohga murojaat etish odatlari vujudga kelgan.

Qadimgi Misr ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrika qit'asining shimoli- sharqida joylashgan bo'lib poytaxti Qohira shahri. Misrda ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi Nil daryosi bilan bog'liq bo'lgan. Qadimdan Misr tabiati issiq, hayvonot, o'simlik dunyosi va er osti boyliklari ko'p bo'lganligi bois bu erda moddiy va ma'naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo'lishi era. av. IV ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 42 ta shahar davlatlari – nom (misrcha sepat)lar paydo bo'lgan. Namlarni monarxlar boshqargan, ular dehqonchilik, chorvachilik, sug'orish, harbiy va diniy ishlarni ham boshqarganlar. Bular ilk quldorlik davlatlari bo'lib, keyinchalik, ushbu davlatchalarning shimoliy va janubiy birlashmalari vujudga keldi. Era.avv. III ming yillik boshlarida janub podshosi Minaning shimoliy hududlar ustidan g'alaba qilishi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo'lgan.

Kohin Manefon qadimgi Misr tarixini to'rtga: Qadimgi (era.avv. 3-ming yillik), O'rta ( era.avv. 3-ming yillik oxiri – 2 ming yillik boshlari), Yangi (mil. avv.2 ming yillik), Quyi (era.avv. 1 ming yillik) podsholikka bo'ladi. Bu davrlarda umumiy 30 ta fir'avnlr sulolasi hukmronlik qilgan.



Qadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma'nodagi klassik namunasi edi. Shuning uchun ham qadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni «Nilning in'omi» deb bejiz aytmagan. Misr tarixining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va ota-bobolar ruhiga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Shu bilan birga Misrda yagona davlatning vujudga kelishi bilan podshoh-fir'avnlarni ilohiylashtira boshladilar. Misrliklar Fir'avnni erdagi xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab turli ehromlar, yodgorliklar qurib, ularning nomlarini abadiylashtirishganlar.

Aholining ijtimoiy tabaqalanishida yuqori tabaqa fir'avn, amaldor, askarboshi, ruhoniylar va nufuzli oqsoqollar hamda boylar hisoblangan. Misrda zodagon va yuqori martabali a'yonlar fir'avn hokimiyatining asosiy tayanchi edi. Shuning uchun Fir'avnlarning hamisha boy amaldorlarning manfaatini himoya qilar, jamiyatning quyi stratalari ularning hizmatkori hisoblanar edi. Bu o'z navbatida quyi tabaqa vakillari orasida yuqori tabaqaga nisbatan adovatni shakllantirar va ichki qo'zg'olonlarni keltirib chiqarardi. O'z navbatida oliy sinf vakillari quyi sinfga nafrat ko'zi bilan boqar va farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalat edilar. Fir'avn o'g'liga qilgan nasihatlarida shunday deb yozgan edi: «Kambag'allarga ishonma: kambag'allar—eng xavfli dushmanlardir, podsho zadagonlar bilan mashhurdir, shuning uchun a'yonlarning, jangchilarning obro'yini ko'tar, ularni mol-mulk, yer va chorva mollari bilan siyla.» Aholi strafikatsiyasida yana bir o'rta strata bo'lib, unga dehqonlar, hunarmandlar va mayda savdogarlar kirar edi. Mamlakat aholisining anchagina qismi kambag'al dehqonlar va qashshoqlardan iborat edi. Dastlab Misrda urushda asir tushganlar dushman sifatida o'ldirib yuborilgan bo'lsa, keyinchalik ularni o'ldirmasdan ishlatadigan bo'ldilar. Ularni dehqonchilikda, chorvachilikda, ibodatxonalar va qurilishlarida ishlatganlar. Ular boy xonadonlarning uylarida ham ishlaganlar. Ular qul qilib sotilar, harbiylar va zodagonlarga bo'lib berilar edi. Omon qolgan asirlarni «tirik murdalar» deyishardi. Bu «tirik murdalar» qullar tabaqasini tashkil etib, ular hech qanday mol-mulkka va huquqqa ega emasdilar.





O'rta podsholik davriga kelib jamiyat haqidagi qarashlar adabiyot bilan birgalikda rivojlandi. Bu davrda juda ko'p qo'shiq, ertak va maqollar yaratildi. O'sha davrda «Ikki og'a-ini haqida», «To'g'ri va egri haqida», «Izida va Ossiris haqida» ertaklar, «Sor va Set janjali» kabi afsonalar juda mashhur bo'lgan. Shuningdek, jamiyatdagi odob-axloq masalalari o'ziga xos pandnomalarda ifoda topgan. Ular orasida «Pxatotep o'gitlari» bizgacha etib kelgan eng qadimiy pandnoma hisoblanadi. Unga ko'ra bundan deyarli ikki yarim ming yil avval beshinchi sulola fir'avni Jadkara Isesidan vazir Pxatotep qariligi tufayli o'miga o'z o'g'lini tayinlashni iltimos qiladi va o'g'liga atab o'ttiz yetti nasihatdan iborat mazkur pandnomani yozadi. Pandnoma axloqiy qonun-qoidalar - o'zni tutish, muomala odobi singari masalarlarga bag'ishlangan bo'lib, ijtimoiy-axloqiy fazilatlar hikmatlar va nasihatlar tarzida targ'ib qilingan. Undagi o'gitlar yuksak badiiyati bilangina emas, balki quldorlik davri talablarini chetlab o'ta olgan umuminsoniy demokratik fikrlar tarzida, haqiqiy donishmandlik va insonparvarlik namunasi sifatida ham hanuzgacha kishini hayratga soladi: «Qimmatbaho toshdek yashirindir oqilona so'z, holbuki uni don tuyayotgan cho'ridan topish mumkin». Agar nafaqat Qadimgi Misrda, balki undan bir necha ming yil keyingi Qadimgi Yunonistonda ham qul ezgulikka, donishmandlikka xos bo'lmagan jonzot sanalganini va odam o'rnida ko'rilmaganini hisobga oladigan bo'lsak, Pxatotepning mazkur fikri insoniyat axloqiy tafakkur




taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini anglash mumkin.

Keyinchalik Bani-Hasan va Siht monarxlarining tarjimai hollari yozilgan matnlarda O'rta podsholik bilan Yangi podsholik o'rtasida o'tgan davrda mulkdor zodagonlarning kuchayish jarayoni, Gerakleopol podsholarining Fiva hokimlari bilan olib borgan kurashlari tasvir etilgan. Ayrim amaldorlarning tarjimai holi yozilgan matnlarda Misrning xo'jalik hayoti va ma'muriy boshqarish tizimi haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Podsholar va shahzodalarning «Nasihatnoma»larida o'sha davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va davlatni boshqarish bilan bog'liq masalalar, shuningdek, kambag'allar, hunarmandlar va dehqonlarning mashaqqatli hayoti ham tasvirlangan. Bu jihatdan «Ipuser nasihatnomasi» bilan «Nefertiti nasihatnomasi» diqqatga sazovordir. Mazkur nasihatnomalarda Misrda bo'lib o'tgan katta ijtimoiy to'ntarish bayon etilgan. Misrdagi kambag'al va qullar qo'zg'oloni O'rta podsholik davrining oxirlarida, mamlakatga osiyolik giksos qabilalari bostirib kelgan vaqtga to'g'ri keladi. Misrliklarning qo'shni mamlakatlarga qilgan sayohatlari bayon qilingan papiruslar mashhur «Senuxet qissasi», Unu-Amonning «Suriyaga sayohat»ida badiiy tarzda bayon etilgan.

Qadimgi podsholik davrida qurilgan piramidalardagi matnlar podsholar va podsholik hokimiyatini ilohiylashtiradi va puxta ishlab chiqilgan mafkurani tasvirlaydi. Yagona quyosh xudosi e'tiqod qilish joriy etilgan davrda quyosh gardishining xudosi Atonga bag'ishlab tuzilgan ajoyib madhiya o'sha zamonlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan mazkur diniy islohotni tasvirlash uchun zarur manba bo'lib hizmat qildi. «Marhumlar kitobi» bo'lmish diniy to'plamda xudolar va podsholarga bag'ishlangan madhiyalar, marosim va miflar, o'lganlarga o'qiladigan sahifalar va duo-afsunlar, qadimgi misrliklar kundalik sotsial hayotida din va sehrgarlikning qanday ahamiyat kasb etganligi va rivojlanib borganligini batafsil qayd etilgan. Shunday qilib, Misr ibodatxonalari, saroylari, piramidalari va papiruslarga yozilgan matnlar, shuningdek, «Nasihatnoma» va «Sayohatnoma»lar misrliklar tarixi, xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi, diniy e'tiqodi va madaniyatini o'rganishning bebaho xazinasini hisoblanadi.





Quyi Misr podsholigi davrida Misr inqiroz jarayonini boshidan kechirdi. Yagona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda nomlarga (davlatchalarga) bo'linib ketadi. Avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib qoladi va nihoyat, era.avv. 332-yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanadi. Shu bilan Misrning qadimgi davri tugaydi. Qadimgi Misrda jamiyat haqidagi ilk va o'ziga xos qarashlar, davlatchilik jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Shuning uchun ham Yunon faylasufi Aflotun bejiz Misr madaniyatini «Ja'mi sivilizatsiyalarning onasi» deb aytmagan.

Ma'lumki, Old yoki Janubi-G'arbiy Osiyodagi mamlakatlar orasida ishlab chiqarish xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni keng rivojlantirish, shuningdek, savdo-sotiqni yo'lga qo'yish va yuksaltirish qulay bo'lgan Dajla va Frot daryolari o'rtasida joylashgan mamlakatni qadimgi yunonlar Mesopotamiya – «Ikki daryo oralig'i» deb ataganlar. Bu o'lka shimolda Armaniston tog'laridan boshlanib, janubda Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan. Bu mamlakatni g'arbda Suriya-Mesopotamiya dashti, sharqda Zagros va G'arbiy Eron tog' tizmalari o'rab turadi. Tabiiy jihatdan Mesopotamiya ikki qismga bo'lingan: 1) Yuqori Mesopotamiya (bu hudud tog'li hududlar bo'lib, keyinchalik Akkad deb nomlangan); 2) Quyi Mesopotamiya (bu hudud tekislik bo'lib, keyinchalik Shumer deb atala boshlangan). Era.avv. IV-III ming yilliklarda Mesopotamiyaga ikki qabila - shimoli-sharqdan Zagros tog'lari orqali shumer, janubi-g'arbdan semit qabilalari kirib kelib o'rnashganlar. Shumerlar va ularning qaysi xalqlardan kelib chiqishi hozirgacha fanda ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Era.avv. III ming yillik boshlaridayoq Mesopotamiyada sinfiy munosabatlar chuqurlashib, davlat vujudga keldi.


Mesopotamiyada ham jamoachilik (qishloq jamoasi) jamiyatning o'zagini tashkil qilgan. Davlatning vujudga kelishi bilan boshqaruv organlari ham paydo bo'la boshladi. Shahar davlatlarning boshliqlari dastlab en (entsi) podsho va bosh kohin unvonini olganlar. Mesopotamiyada jamiyatning turli qatlamlari o'ziga xos nomlar bilan atalgan, masalan, shahar davlatlarida qo'shin va armiyaning ahamiyati katta bo'lib, askarlar reddum yoki bairum, boshqaruv zobitlari libuttum va dekkum deb

ataluvchi darajalarga bo'lingan, savdogarlar tamqarlar, erkin jamoachilar esa alakkum deb atalgan.

Somir (Shumer) alqovlarida (gimnlarida) deyarli barcha bosh ma'budlar ezgulik, adolat, haqiqat va yaxshilik tarafdorlari bo'lganlari uchun ham madh etilgan. Chunonchi, quyosh ma'budi Utu axloqiy me'yorlarning bajarilishini maxsus kuzatib turadi deb ishonilsa, ma'buda Nanshe esa ba'zi matnlarda haqiqat, adolat va shafqat homiysi sifatida tasvirlanadi. Lekin, ayni paytda, ma'budlar tomonidan o'rnatilgan «Me» deb atalgan qonunlar ro'yxatidan olam harakatini tartibga solish, uning to'xtovsiz va uyg'un bo'lishini ta'minlash maqsadida yuqoridagi axloqiy fazilatlar bilan birgalikda – «yolg'on», «nifoq», «gina», «kudurat», «qo'rquv» tushunchalari ham o'rin olgan. Shuningdek, somiriylarning maqol va matallari, hikmat-iboralarining ko'pchiligi umuminsoniy hikmatlar darajasiga ko'tarilgan va Sharqda biroz boshqacharoq shaklda hozir ham qo'llaniladi. Bundan tashqari turli ijtimoiy-axloqiy muammolar epos va dostonlarda (masalan, «Gilgamesh» dostonida) bayon etilgan.

Qadimgi Mesopotamiyaning eng qudratli podsholaridan biri Xammurapi (era. avv. 1792-1750 y.y) hukmronlik qilgan davrlarda birinchi qonunlar to'plami tuzilib davlat va jamiyat ana shu qonunlar asosida boshqarilgan. Xammurapi qonunlar to'plami 282 modddan iborat bo'lib, u kirish, qonunlar va xulosalardan iborat. Kirish qismida qonunlarni chiqarishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o'rnatishdan iborat, deb ko'rsatilgan. Unda podshoni ulug'lash bilan birga xususiy mulk himoya qilingan. Jumladan, agar kimki ibodatxonaning yoki podshoning mulkini o'g'irlasa, u o'ldirilishi lozim; o'g'irlik molini olgan kishi o'ldilishi kerak. Xammurapi qonunlari o'z davrining muhim tarixiy, yuridik hujjati hisoblanadi. Balandligi 2 metr bazalt ustunida Xammurapining tik turgan holda kursida o'tirgan quyosh va adolat xudosi Shamash qo'lidan hokimiyat belgisi-tayoqni olayotgan holati tasvirlangan. Adolat va haqiqat himoyasini asosiy maqsad qilib olgan podsho Xammurapining mashhur qonunlar majmui esa qadimgi Shumer qonunlarining tadrijiy rivoji edi. Bu majmuada zaiflarni, yetim-yesir va kambag'allarni adolat tamoyili asosida himoya qilish asosiy maqsad qilib qo'yilgan; Xammurapi unda o'zining kambag'alparvarligi va adolatparvarligi bilan faxrlanadi.





Jamiyatda din va mifologiyaning o'zmi qatta bo'lgan bo'lsa-da, lekin diniy-mifologiya Shumer Misrdagidan farq qiluvchi tizimga ega edi. Shumerda hukumdor xudoning yerdagi avlodi deb qaralsa-da, narigi dunyo to'g'risidagi tasavvurlar Misrdagi singari katta ahamiyatga ega bo'lolmadi. Kohinlar ham muhim ijtimoiy qatlam sifatida shakllana olmadi.

Shumerda badiiy adabiyot rivoji yuqori darajaga ko'tarilgan. Noyob «Dehqonchilik almanaxi», «Gilgamesh haqida doston» asarlari shular jumlasidan bo'lib, unda Gilgamesh va Enkidularning do'stligi, qahramonliklari va sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Ushbu asarlarda davlat va jamiyat, ijtimoiy hayot, axloq, ijobiy insoniy fazilatlar tarannum etilgan. Bundan tashqari Mesopatamiya maktablarining quyi sinfida adabiyot, til, grammatika fanlari; yuqori sinfda, astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyot va veterinariya hamda diniy darslar o'qitilgan. Maktablarda davlatni boshqarish uchun xodimlar tayyorlaganlar.

Antik davrda Hind madaniyatida falsafaning rolini tushunish uchun uning tarixiy va diniy asoslari bilan tanishish maqsadga muvofiq sanalgan. Chunonchi, era.av. XIV-XII asrlar o'rtalarida taxminan Karpat bilan Ural oralig'idagi viloyatlardan etnik guruhlar hozirgi Pokistonning bir qismi bo'lgan Ind vodiysi hududiga ko'chib o'ta boshlaganlar. Ular o'zlarini ariylar deb ataganlar. Bir paytlar ariylarning mahalliy aholi - dravidlarga nisbatan birmuncha yuksakroq madaniyatga ega bo'lganligi haqidagi fikr keng tarqalgan edi. Biroq XX asrning 20-yillarida "xarapp ind madaniyati" deb ataladigan madaniyat kashf etilganidan so'ng bunday fikrning noto'g'riligi ma'lum bo'ldi.

Eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik o'rtalarida Sharqiy Yevropadan Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan Hindiqush dovoni orqali o'zlarini "oriylar" deb atagan jangari xalqlar bostirib kelib, Hindistonni istilo qila boshladilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari - sanskrit tilidan tarjima qilinganda "muqaddas, ilohiy bilim" ma'nolarini anglatuvchi, Vedalarni ham olib kelgan edilar. Vaqt o'tishi bilan, oriylar tomonidan olib kelingan mazkur matnlar butun hind xalqining eng muqaddas manbasiga aylanib qoldi. Hind madaniyatining bir necha asrluk assimilyatsiyali rivojlanish jarayonida oriylar bilan dravidlar o'rtasidagi ziddiyatli

munosabatlarda tabaqachilik tizimining oriy kelgindilari tomonidan joriy etilganligi o'z rolini o'ynadi, ya'ni keskin tabaqalanish holati sodir bo'ldi: oldiniga oq tanli oriylar bilan qora tanli dravidlar, o'rtasida aniq chegaralanish sodir bo'lgan. Keyinchalik Hindistonda to'rtta tabaqa yuzaga keldi. Bundan uchta oriy tabaqalari: 1) braxmanlar yoki veda kohinlari; 2) jangchilar va aslzodalar; 3) hunarmandlar va dehqonlardan iborat edi. Eng quyi 4-tabaqa- erkin bo'lmagan kishilarni o'z ichiga olardi. Shuningdek, vaqt o'tishi bilan har xil etnik guruhlarning jiddiy integratsiyalanishi yuz berdi. Yangi tabaqalar ham joriy qilindi, ularga oriy bo'lmaganlar ham kirishi mumkin edi.

Ariylarni jipslashtirib turuvchi kuch - bu din edi. U «Veda»lar (era. av.1200-800-y.y) deb ataladigan eng qadimgi sanskrit matnlarida qayd qilingan. Vedalar eng qadimgi ariylik dunyoqarashini ifodalardi. Yunon, skandinaviya va slavyan afsonalarida bo'lgani singari ushbu Vedalarda ham xudolar ko'pincha tabiiy kuchlarga qiyos qilinadi, shaxs dunyoqarashi Koinot bilan Tartibsizlik (Xaos) o'rtasidagi azaliy kurash bilan tavsiflanardi. Tartibsizlikka qarshi kurashda xudolar odamlarning yordamiga muhtoj bo'lgan. Qurbonliklar va to'g'ri bajariladigan marosimlar koinotdagi tartibni tutib turishga katta hissa qo'shib turadi.


Vedalar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, dindor hindular uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular Vedani oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. Vedalar bizgacha to'rtta to'plam(samxitlar)shaklida etib kelgan. Bular:

1) Rigveda 2) Samaveda, 3) Yajurveda, 4) Adxarvaveda.

Vedalarda qadimgi Hind jamiyati Varnalarga (kastalarga) bo'linadi. Shu ta'limot asosida qadimgi diniy e'tiqod, braxmanizm paydo bo'lgan. Bu e'tiqodga ko'ra xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb hisoblangan. Braxmanlarning ta'kidlashicha, xudo odamlarni o'z tanasining turli qismlaridan yaratgan. Xususan, xudo o'z og'zidan braxmanlarni; qo'llaridan kshatrilarni - janchi, rojalarini; sonlaridan vayshoqlar-hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlarni; loyga belangan oyoqlaridan esa shudralar, ya'ni xizmatkorlarni yaratgan, deb ta'lim beriladi. Shulardan keyin esa eng past toifa - hazar qilinadiganlar yaralgan. Hindiston dinlariga xos bo'lgan ushbu







*kasta* tizimi – ayni ish bilan shug‘ullanuvchi, otalardan meros qolgan haq, vazifa va odatlar bilan qattiq bog‘langan shaxslar toifasidir. *Kasta* insonlar tomonidan saylanmaydi va tanlanmaydi, uning ichida faqatgina dunyoga kelish mumkin. Bu tizim 4 sinfdan tashkil topadi:

1. *Braxmanlar* – rohib va dindorlar.
2. *Kshatriylar* – hokim va jangchilar.
3. *Vayshlar* – savdogar, hunarmand va dehqonlar.
4. *Shudralar* – ishchilar, eng quyi tabaqa.

Bundan tashqari *kasta* tizimiga kirmaydigan va undan tashqarida hisoblanadigan toifa va guruhlar ham mavjud bo‘lib ular «chandal»lar deb atalgan. Ular «yaqinlashilmaydigan yoki tegilmaydiganlar» – xor tabaqa vakillari, deb nomlanadilar.

O‘zini saqlab qolish maqsadida *braxman* ruhoniylari muayyan islohotlarni o‘tkazdilar. Jumladan, sanskrit tilida yozilgan vedalarning muayyan qismlari hindlar uchun tushunarli tilga tarjima qilindi. Natijada, «*Ramayana*» va «*Maxabxarata*» dostonlari yuzaga keldi. Shuningdek, hashamatli va serxarajat bayram va marosimlar xalqchillari bilan almashtirildi. Ayni damda, veda ta’limotining fundamental asoslari ham saqlab qolindi. Mazkur asoslar quyidagi besh qoidada aks etgan:

1. Vedalarning muqaddasligi;
2. Guru (pir, ustoz) ning tan olinishi;
3. Muqaddas joylarga ziyoratga borish;
4. Sanskritning muqaddas til ekani;
5. Sigimning muqaddas ekani.

Toifalarni aralashib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan. Har bir kastaning o‘ziga xos nikoh va to‘y marosimlari, yeyish-ichish, kiyinish uslublari va kasb-korlari mavjud. *Kasta* tizimiga qarshi chiqib bo‘lmaydi, unga qarshi chiqish, qarshi chiquvchining kastadan chiqarib yuborilishiga sabab bo‘ladi. Bu esa uning yashash haqqini yo‘qotishi, demakdir.

Kastachilikning yana bir qiziq tomoni shundaki, tizimdagi tabaqalashuvga ko‘ra, unga mansub bo‘lganlarning tug‘ilajak farzandlariga ham shunga ko‘ra ism berilishidir. Masalan, tug‘ilajak farzand *braxmanlar* tabaqasiga mansub bo‘lsa, quvonch va xursandchilik, *kshatriylarga* mansub bo‘lsa kuch-quvvat va qudrat, *vayshiy*larga mansub bo‘lsa boylik va molu-mulk, *shudralarga* mansub bo‘lsa xorlik va haqirlikka oid ismlar

qo'yilgan.

Kastalararo munosabatlar «Manu qonunlari» deb ataluvchi hujjat bilan nazorat qilinadi. Era.avv. V asrda to'plangan ushbu qonun Hindistonning ijtimoiy tuzumdagi keyingi yuz yilliklar uchun xizmat qiluvchi kodeksi sifatida qabul qilindi. Bu qonunda Hindiston jamiyatining kasta tizimi nafaqat rasmiy ravishda bayon qilingan, balki din tomonidan muqaddaslashtirilgan va qat'iy belgilab qo'yilgan. Unda jumladan quyidagi qoidalar belgilab qo'yilgan:

1. Kishi o'zining tabaqasidan yuqori bo'lgan tabaqadan uylanishi mumkin emas.

2. Har kim o'zidan quyi bo'lgan tabaqadan uylanishi mumkin. Lekin shudralarga nisbatan bu qoida mustasno.

3. Braxmanlar xalqlarning eng tozasidir. Ular ilohlarga qo'shilib ketganlar. Ular shudralar mol-mulklaridan istaganlaricha olish huquqiga egadirlar.

4. Muqaddas kitobni yozuvchi braxmanlarning gunohlari, garchi yeru-osmonni to'ldirib yuborgan bo'lsa ham kechirilgandir.

5. Podshohning, shart-sharoit qanchalik taqozo qilmasin, braxmandan soliq va to'lov olishi mumkin emas.

6. Agar braxman o'limga loyiq bir ish qilsa, podshoh jazo sifatida faqatgina uning sochini olishi mumkin. Ammo undan boshqalar bunday paytda hech qanday to'siqqa qaramay o'lim jazosiga tortiladi.

7. Braxman agar o'n yoshga to'lsa, yuz yoshga to'lgan shudradan ustun sanaladi.

8. Braxmanning o'z mamlakatida ochdan o'lishi mumkin emas.

9. Manu qonuniga ko'ra, xor tabaqa vakillari hayvondan quyi va itdan xor hisoblanadi.


10. Xor tabaqa vakillarining baxti – hech qanday ish haqi va savob olmasalar ham braxmanlarga xizmat qilishlaridir.

11. Agar xor tabaqa vakillaridan birortasi braxmanga unga zo'ravonlik va bosqinchilik qilish uchun qo'lini uzatsa, qo'li kesiladi. Agar tepsa, oyoqlari chopib tashlanadi.

12. Agar birorta xor tabaqa vakili «men braxmanlikni o'rgatyapman» desa, unga qizib turgan yog' ichiriladi.

Shu bilan birga, «Upanishada»lar ham mavjud bo'lib bu





donishmandning o'z shogirdlariga ta'lim berishi jarayonini anglatadi. Upanishadlar veda dunyoqarashining tanqidiy jihatdan idrok etilishidir. Upanishadlarning muhim mavzularidan biri tug'ilish va o'limning abadiy «almashinuvi» g'oyasidir. Bunday g'oya tirik mavjudotlarning o'limidan keyin yana qayta tirilishni nazarda tutadigan, ular ruhlarining ko'chib yurishi (reinkarnatsiya) haqidagi ta'limotga asos qilib olingan. Tug'ilish bilan o'lim o'rtasidagi abadiy qayta tiklanib turadigan siklda insonning eng teran «mohiyati» takror va takror qayta tiklanaveradi. Upanishadlarning boshqa bir muhim qoidasi braxmanning bir-biriga tenglashtirilishidir. «Braxman» so'zining adekvet tarjimasini topish qiyin. Ehtimol, uni absolyut, hamma narsani qamrab oluvchi yoki ilohiy sifatida tushunish kerakdir. Bu holda atman bilan braxmanning bir-biriga tenglashtirilishi atman absolyut yoki ilohiy bilan teng degani bo'ladi. Bunday birlik hind falsafasi va g'arb mistitsizmi targ'ib qiladigan zohidona turmush tarzini nazarda tutadi.

Upanishad faylasuflari haqiqat matndami yoki tabiatdami bo'lishidan qat'y nazar «tashqarida» emas. U sening ichingda. Sen «o'z-o'zingni topish»ni o'rganishing kerak, deya ta'lim berishgan.

Karma haqidagi ta'limotga ko'ra, bizning xatti-harakatlarimiz navbatdagi hayotda «bramin» yoki kaltakesak bo'lib qayta tug'ilishimizni belgilab beradi - bu million-million imkoniyat ichidan bizning peshonamizga bitishi mumkin bo'lgan atiga ikkitagina taqdirdir. Karma ko'pincha butun hind falsafasining o'zagi bo'lgan asosiy tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Karma hatti-harakat, amalni anglatadi. Sahovatpesha kishi uchun yaxshilikka, gunohkor odamga esa-yomonlikka tomon istiqbollar ochiladi. Dunyodagi barcha nomukammalliklar va azob-uqublatlar odamning o'z hatti-harakatlarining oqibatidir. Biroq muayyan tabaqaga mansublik odam uchun yaxshi va yomon bo'lib hisoblanadigan narsani jiddiy darajada taqdim etadi. Bu bilan tabaqali tizimni legitimlashtiradi.

Shuningdek, hind falsafiy ta'limotlarining taniqlilaridan biri Lokayata (sanskritcha-insoniy dunyo) yoki charvak ta'limoti deb ham ataladi. Unga Era.av. I ming yillik o'rtalarida yarim afsonaviy donishmand Brihaspati tomonidan asos solingan deb hisoblanadi. Lokayata haqidagi ilk ma'lumotlar buddizm

ahkomlari matnlarida, vedalar va qadimgi hind eposlarida bayon etilgan.

Lokayata ta'limoti brahmanizmga qarshi bo'lib, dunyo (tabiat)ni ilohiy kuchlarsiz izohlash kerak, degan g'oyani ilgari suradi. Lokayata ta'limotiga ko'ra, inson 4 unsurdan tashkil topgan, u o'lgach, undagi tuproq unsuri tuproqqa, suv unsuri suvga, o't unsuri o'tga, havo unsuri havoga, sezgilar esa fazoga aylanadi. Inson tana va ruh birligida namoyon bo'ladi. Tana o'lishi bilan ong ham yo'qoladi. Har bir inson bir marta yashaydi. U qaytadan tirilmaydi. Lokayata jon, ruhning ko'chib yurishini rad etadi. Lokayata namoyandalari o'z ta'limotlarida xudojo'ylikka qarshi yerdagi hayotni targ'ib etadilar. Ular kastachilikni qoralab, barcha insonlar teng, degan g'oyani ilgari suradi. Ularning fikricha, olamda sodir bo'lib turadigan hodisa va jarayonlarning sababchisi moddiy borliqdir. Masalan, olovning issiq, suvning sovuq bo'lishini aynan shu hodisalarning o'zidan izlash lozim. Inson hayotining mohiyati, shu dunyoda rohat qilishdir. Buning uchun u mehnat qilishi, ilm fan yutuqlari bilan oshno bo'lishi lozim. Lokayata ta'limotida farovon hayot, insonning axloqiy kamoloti g'oyalari olg'a surilgan. Lokayata vakillari bilish nazariyasida sensualizm mavqeyida turib, sezgi-bilishning birdan-bir ishonchli manbai deb hisoblaydi.

**Tayanch iboralar:** Sharq, tarix, me'morchilik, davlat, Mesopotamiya, Troya, Misr, shahar davlat, jamiyat, ijtimoiy hayot, ezgulik, g'oya, kurashlar, veda, Braxmanizm, Hinduizm, Sansara, kasta.

### Nazorat savollari

1. Qadimgi sharqda jamiyat haqidagi ilk bilimlarning rivojlanishi qachondan boshlandi?
2. Qadimgi sharqning dunyo tarixida tutgan o'rni va roli?
3. Qadimgi Misr davlatchiligi qachondan boshlab shakllangan?
4. Kasta tizimini so'zlab bering?
5. Vedalarda qanday ta'limotlar bayon etilgan?



# QADIMGI XITOYDA SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARNING SHAKLLANISHI

## REJA:

1. Qadimgi Xitoyda ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishi va sotsiologik ta'limotlarning shakllanishi.
2. Konfutsiylik va Daosizm ta'limotlari.
3. Qadimgi Xitoyda jamiyat haqidagi qarashlarning rivojlanishi.

**Maqsad:** *Talabalarga qadimgi Xitoydagi ilk davlat birlashmalari va sotsiologik ta'limotlarining shakllanishi haqida ma'lumot berish hamda davlatchilik asoslarining vujudga kelish asoslari, qadimgi Xitoy falsafasida jamiyat haqidagi qarashlarning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*

Qadimgi Xitoy jamiyat haqidagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar dastlab vujudga kelgan va taraqqiy etgan mamlakatlardan biridir. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakllari paydo bo'la boshladi. Eramizdan avvalgi XII asrda o'zaro urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'liga o'tgan. Bu hokimiyat era.avv. III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda ijtimoiy fikrlarda asosan diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. Qadimgi Xitoyda jamiyat haqidagi sotsiologik ta'limotlar ko'proq amaliy yo'nalishga ega bo'lgan.



Лао-цзы



Конфу-цзы



Мо-цзы



Шан Ян

Sharq sotsiologiyasi maktabida Xitoy mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Eramizdan oldingi Tsin va Han davrlarida Xitoyda kuchli markazlashgan imperiyalar tarkib





topdi. Bu davr uchun xarakterli hol shundan iboratki, imperiyagacha bo'lgan davrda amal qilgan «ixtilofdagi hukmdorlar» tarqoq mafkuralarining Xitoyni buyuk davlat darajasida yuksalilishiga xizmat qiluvchi yangi milliy g'oya bilan birlashuvi, ya'ni osmon obrazining ilohiy ramz sifatida qabul qilinishi bo'ldi. Binobarin, diniy mutaassiblik va kosmologiya g'oyalari Xitoy hukmdorlarini azaldan osmoniy hukmdor mavqeyiga yuksalish orzulari yo'lida xizmat qilib kelar edi. Xitoy va butun sharq mamlakatlariga xos bo'lgan ramzlar ilohiyligiga ishonish esa kosmologiya g'oyasining qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Bu rasmiy mafkuraning mohiyati tabiat va jamiyat jarayonlariga osmon fe'l-atvoridan kelib chiqqan holda yondashish va baho berishga intilishdan iboratdir. Osmoniy tabiat, dastavval, osmon farzandi imperatorga xos bo'lib, u jamiyatda kechuvchi ziddiyatlar, muammolarga ortiqcha aralashmaydi. Ba'zida esa ijtimoiy ziddiyatlar haddan oshgan kezlarda bamisoli osmoniy o't-momaqaldiroq, yohud dovul singari ana shu ixtilofiy hollarga keskin zarba berib turardi.

Kosmologik g'oyalar asta-sekin osmoniy imperiyaning har bir jabhasida ma'lum bir ramziy belgilar tarzida ifodalanib, sotsial munosabatlar, marosimlar hamda boshqa sotsial qadriyatlarda ham namoyon bo'la boshladi. Osmoniy hukmdorning ramziy tamg'asida uch gorizontal chiziq, osmon, yer va insondan iborat mohiyatlarni ifodalovchi chiziqlarni hukmdor iznini ifodalovchi bir vertikal chiziq kesib o'tishini aks ettirib turardi.

Xitoyda dastlabki jamiyat haqidagi qarashlarga asos solgan faylasuflar, asosan, quyi strata «kambag'al a'yonlar»ga mansub bo'lgan. Ular ko'pincha g'oyat ulkan imperatorlik saroylari qoshida amal qilgan ma'muriy tizim sektorlarida faoliyat yuritish bilan kun ko'rishardi. Ko'pgina buyuk Xitoy mutafakkirlari ana shu ijtimoiy muhitning samarasi sifatida dunyoga kelgan. Ularning deyarli hammasi ma'lumotli davlat xizmatchilari, imtihonlarni topshirgan va davlat tizimida ta'lim olgan mandarinlardan iborat edi. Shu ma'noda ular hozirgi jamiyatshunos olimlardan farq qilishmagan. G'arbda Konfutsiy (Kun-tszi, «ustoz Kun») nomi bilan mashhur faylasuf ham ayni shu ijtimoiy muhitdan chiqqan mutafakkirlardan biri edi.



**Konfutsiy.** Qadimgi Xitoydagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida Konfutsiy (er.avv.551-479-y.y.)ning qarashlari alohida o'rin tutadi. U Budda, Fales va Pifagorlar bilan bir zamonda yashagan. Uning yozgan matnlari deyarli saqlanib qolmagan, lekin uning ta'limotining asosiy qoidalari o'z shogirdlari bilan suhbatlari (savollar va javoblar) haqidagi qisqacha qaydlar to'plami «suhbatlar va mulohazalar»larda yozib qo'yilgan. Ularda Konfutsiy siymosi an'analarga qattiq rioya qilgan mutafakkir sifatida gavdalanadi.

Konfutsiy tabiat va din falsafasiga unchalik qiziqish namoyon qilmaydi. U Suqrotga o'xshab insonni diqqat markaziga qo'yadi. Uning «Hikmatlar»idagi aforizmlarda ham inson mavzusi markaziy o'rinda turadi. Bunda umuminsoniy qadriyatlarning xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Yaratuvchi ilohiy kuchni tan olgan Konfutsiy kishilarning hayoti taqdirga bog'liq deb hisoblagan. Xitoyda Konfutsiy axloqiga binoan inson dunyo tartiboti tizimida favqulotda o'rin tutishi, umumiy dunyo taqdiri uchun mas'ullik hissining cheksizligi targ'ib etilsa, kosmologiya g'oyasida siyosat va kosmik ritm o'rtasida murosa o'rnatilishi asoslandi. Xitoy siyosati esa «inson o'ziga nima» deb emas, «inson davlat uchun nima» degan savolga javob izlar edi. Inson jamiyatda faqat o'z qobiliyatiga tayanib, qachon undan foydalanishlari muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. Shu boisdan ham Xitoyda davlat ja'miki jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida jamiyatda har bir individning ijtimoiy mavqeyini ham belgilab boruvchi omil vazifasini o'tar edi.

Konfutsiy osmoniy g'oya nazariyasini sotsiologik tadqiq etgan holda ma'rifiy bo'yoqlar bilan yanada rivojlantirdi. Uning nuqtayi nazariga ko'ra, jamiyatni mustahkam munosabatlar tizimiga ega bo'lgan oilaga o'xshatish mumkin. U odamlar o'rtasidagi sotsial munosabatlar tizimini besh ko'rinishga ajratadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) ota va farzand; 2) er va xotin; 3) aka-uka; 4) turli oilalar; 5) hukmdor va fuqarolararo munosabatlar.

Inson, Konfutsiy fikriga ko'ra, jamiyat tomonidan belgilab qo'yilgan, ijtimoiy tabaqa mohiyatidan kelib chiquvchi

majburiyatlarni bajarishga mas'uldir deb hisoblanadi. Konfutsiy jamiyat boshqaruvi masalasida shunday degan edi: «Agar meni hukmdorlardan birortasi jamiyatni boshqaruv ishiga jalb etgudek bo'lsa, 12 oyda ishda ijobiy o'zgarishlar yasagan va uch yil mobaynida boshqaruv ishini tubdan takomillashtirgan bo'lur edim». Afsuski, Xitoy hukmdorlaridan hech biri uning xizmatidan foydalanishni lozim topmaganlar. Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, har bir shaxs o'ziga belgilangan ijtimoiy mavqe doirasida sidqidildan faoliyat yuritishi, ya'ni ota ota o'rmda, farzand farzand sifatida, hukmdor esa hukmdordek ish qilishi lozim.

Konfutsiy kishilarni jamiyatda egallab turgan o'rinlarini, ijtimoiy mavqelarini o'zgartirishlariga qarshi turgan. U insonlarning o'z ijtimoiy mavqelarini o'zgartirish yo'lidan emas, balki shu mavqe mazmunini teran bilimlar bilan boyitishga chaqiradi. Bilimlar kishiga nafaqat ma'lumotli bo'lish uchun, balki to'g'ri ish tutish, oqil xatti-harakatlar qilish uchun ham kerakdir.

Konfutsiy sharq mutafakkirlariga xos hususiyatlarni namoyon etib, jamiyatda kishilar turli ijtimoiy tabaqalarda yashashlarini ma'qullagan holda, bu tabaqalar o'rtasida doimiy murosa, kelishuv bo'lishini, ziddiyatlarga aslo yo'l qo'ymaslik zarurligini uqtiradi. U kishilarning yuqori va quyi tabaqalarga ajratishda ularning boyligi yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy rol o'ynamaydi, bunda yuksak axloqiy fazilatning xizmati katta, deyiladi. Biroq bu hukmron va qaram tabaqalarga ajratishni butunlay inkor etiladi, degan gap emas. Konfutsiyning fikricha, tabaqalarga ajratish tartibi eski an'analarga asoslanishi va u davlat tomonidan boshqarilishi lozim. Mutafakkir ijtimoiy taraqqiyot davlatlararo va tabaqalararo konsensus - murosa, hamfikrlik amalga oshgandagina yuz berishiga qat'iy ishonadi. Uning ta'limotida sotsial muammolarga ko'proq o'rin berilgan. Unga ko'ra «axloqli kishi» bo'lish, donishmandlardan ta'lim olish haqidagi g'oyalarni ilgari surib jamiyatda hukm surgan «Jen» insonparvarlikka rioya qilmoq lozim. Insonparvarlik kamtarlik, onglilik, bosiqlik, mehribonlik, odillik, saxiylikdan iborat. Inson «Jen» qonunini o'zlashtirishi uchun jamiyatda tutgan o'miga qarab «Li» normalarini bajarishi talab etiladi. Jamiyatdagi axloqiy





normalar, an'ana va urf-odatlarni shunga muvofiq belgilaydi. Past tabaqa «axloqi ulug'» boshliqlariga itoat qilishi Li qonuni bilan oqlanadi.

Konfutsiyning fikricha, yaxshi hayot «insonga xos bo'lgan beshta munosabat»da: hukmdor-davlat xizmatchisi, ota-o'g'il, er-xotin, qariya-yosh, do'st-do'st munosabatlarida namoyon bo'ladi. Har bir kishi o'zining xususiy majburiyatlariga egadir. Hukmdorning fuqarolari bilan munosabatlari quyidagi sentensiyada aniq ifodalangan: «Hukmdorning mohiyati shamolga o'xshaydi, oddiy odamlarning mohiyati esa ko'kat singaridir. Shamol ko'kat uzra esib o'tganida uning tanlab o'tirish imkoniyati yo'q, balki ta'zim bajo keltirishi lozim». Bu sentensiya me'yor tamoyiliga ilova tarzida tushunilishi mumkin. Agar javob ularning bo'ysunishidan iborat bo'ladigan bo'lsa, unda bu me'yor tamoyilining hukmronlik va itoatkorlik an'anasi bilan uzviyligini anglatadi.

Konfutsiy o'z ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan odamlar o'rtasidagi munosabatlar borasida foydali maslahatlar bergan va ko'plab pand-nasihatlarini ifodalagan. Uning atrofida amalda yo'naltirilgan «konfutsiychilik»ka asos solgan maslakdoshlarining keng doirasi paydo bo'ldi. Bunday holat to bizning zamonamizgacha ham Xitoy madaniyati va jamiyatida muhim rol o'ynab kelmoqda.

Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. Li - «tartib-qoida» degan ma'noni anglatadi. Mana shu tartib tushunchasi dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Demak, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim va, binobarin, tartib - bu insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

Konfutsiy nuqtayi nazaricha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmasan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'rish lozim, shuning uchun ham

Konfutsiyning bunday diniy-falsafiy qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari takomilida muhim o'rin tutgan.

Shuningdek u **komil inson (tszyun-tszi)** g'oyasini yaratgan. Komil inson bo'lish uchun ikki narsa muhim, ular - **insoniylik va ma'suliyat** (ajdodlar oldidagi burch). Konfutsiylikda axloq birinchi, din ikkinchi o'rinni egallaydi. "SAO" ta'limoti inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi qoidalardan iborat.


Xitoyda ikki ming yil davomida bu ta'limot davlat dini darajasiga ko'tarilib xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning talantli mutafakkirlaridan biri **Lao-tszi** (er.av. VI-V asrlar)dir. Uning ta'limotiga ko'ra olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Dao- qonun, yo'l degan ma'noni bildiradi. Dao qonuni – tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir. Daosistlar qadimgi Xitoyda birinchi bo'lib moddiy dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshilikdan iborat ekanligini e'tirof etdilar. Bunda Inb va Yan orasidagi kurash olamni harakatga keltiruvchi qarama-qarshi kuchlar manbai bo'lib, bu kurash daoni anglatadi.

Agar Konfutsiychilik amaliy va siyosiy jihatdan axloq falsafasini rivojlantirgan bo'lsa, daosizm mistitsizm va xolistik (yaxlitlik) fikrlash bilan tavsiflangan. Lao-Tszi odatda Xitoyning madaniy hayotida daosizm tendensiyalarining eng yirik vakili sanalgan. Uning hayoti haqida ma'lumot ko'p emas. Lao-Tszi ekologik holat havfini nazarda tutib: Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi, deb uqtiradi. Bu bilan u odamzod bu jarayonda doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim, bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi, deb uqtiradi. Lao-Tszining nomi «Dao de tszin» (Yo'l va uning sahovati haqidagi kitob yoki Dao va de haqidagi kitob) degan asar bilan bog'liqdir, lekin bu asarni uning yozganligi aniq emas, balki bu asar Lao-Tszining muxlislari tomonidan bitilgan bo'lishi ham mumkin. Konfutsiy hukmdor va uning amaldorlari mamlakatni adolat, halollik va sevgi tamoyillari asosida boshqarishlari kerak. Mustabid







markazlashgan davlat boshqaruvining axloqiy qoidalari, ijtimoiy normalari va boshqaruv jarayonlari keyinchilik uning izdoshlari: Tsen-tsi, Tszi Si, Yu Jo, Tszi Gao, Men tszi, Syun Tszilar tomonidan rivojlantirildi.

Dao de Tszin daosizm falsafasiga doir klassik matndan iborat. Uni tushunish qiyin. Geraklit singari Lao-Tszini ham ko'pincha «Sirlı» va «o'qib bo'lmaydigan» deb atashadi. Dao de Tszin Xitoy falsafasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bu uni amaliy yo'nalishdagi konfutsiychilik falsafasidan farqlaydi. Lao-Tszi uchun «dao» tushunchasi fundamental tushuncha hisoblanadi. Dao to'g'risida Lao-Tszi «moaniq», «cheksiz», «o'zgarimas», «makon va zamonda cheksiz», «tartibsizlik va shakl» hisoblanadi, deyiladi. Qat'iyroq qilib aytganda, til bunday holda adekvat bo'la olmaydi. Chunki u hatto salbiy ta'riflar orqali ifodalashda ham daoning nima bo'lishini darhol faraz qiladi.

G'arb tafakkurida bunga o'xshash yondashuv salbiy (apofatik) teologiyaga o'xshaydi, unga ko'ra biz xudo to'g'risida ijobiy fikr bildirishga ojizmiz. Biz faqat uning nima bo'la olmasligini ta'kidlashimiz mumkin. Shu bilan birga, Lao-Tszining dao haqidagi fikrlari yunon naturfalsafasi qo'llagan savollar va javoblar tiplari bilan ko'plab umumiylikka ega fikrlarga o'xshab tuyuladi.

Umuman, Lao-Tszi dao muammosi xususida Suqrotgacha bo'lgan faylasuflarning substantsiya muammosi atrofida yuritgan fikrlariga o'xshash mulohazalarni o'rta tashlaydi. Uning o'zgarishga nisbatan nuqtayi nazari ilk yunon falsafasi bilan yaqqol bir xilliklarga egadir. Ehtimol, u bizning mavjud bo'lishimizda qandaydir asosiy adolat tamoyili amal qiladi, deb hisoblagan. Bunday tamoyilga binoan qandaydir bir holat nihoyatda o'zgacha tusga ega bo'la boshlasa, unda teskari ta'sirlanish yuz beradi: «Baxt-saodat hisoblangan narsa baxtsizlikka aylanadi, baxt-saodat esa baxtsiz uzra qurilgan bo'ladi». Baxtiqarolik shodlig-u sevinchlar bilan o'rin almashadi. Binobarin, qandaydir bir holat o'zining tabiiy chegaralaridan chetga chiqqanida, haddan ziyodlik tantana qilganida bunga aralashadigan qandaydir bir kuch mavjud bo'lishi kerakki, u lozim bo'lishi kerak yoki lozim bo'ladigan tartibotni qayta

tiklaydi. Geraklit ham shunga o'xshagan fikrlarni izhor etgan.

Daosizm (Dao Tszya): Olam uyg'unlik manbai, shuning uchun dunyodagi hamma narsa, o'simliklardan tortib to odamgacha, o'zining tabiiy holatida go'zaldir. Eng yaxshi hukmdor - odamlarni yolg'iz qoldiradigan odam degan g'oyani ilgari suradi. Keyinchalik Daosizm ta'limoti Ge Xun, Van Syuanlan, Li Tsyuan, Chjan Boduanlar tomonidan rivojlantirildi.

Xullas, Lao-Tszining «jumboqliligi» konfutsiychilikning pragmatik ijtimoiy-axloqiy maksimalariga zid kelgan. Lao-Tszi ham konfutsiychasiga mandarinlarni tarbiyalash an'alariga qarshi chiqqan va agar odamlar kamroq bilimga ega bo'lib, uning cho'qqisiga intilishmasa, yaxshi bo'lardi, degan fikrni ilgari surgan. Chunki odamning yuksak bilimdonligi faqat uning qalbining gumroh bo'lishiga olib keladi, deb o'ylaydi.

Bundan tashqari Moizm (umumsevgi va gullab-yashnash g'oyalari va o'zaro foyda haqida tashvishlanish g'oyalari), Qonunshunoslar (ijtimoiy nazariya va davlat boshqaruvi muammolari bilan shug'ullanganlar), Nom (narsalar mohiyatidagi nomlarning nomuvofiqligi tartibsizlikka olib keladi degan g'oyani ilgari suradi) kabi maktab vakillari jamiyat haqidagi sotsiologik ta'limotlarni rivojlantirdilar.

**Tayanch iboralar:** Sharq, Kun Tszi, Lao Tszi, Shan, Chjou, davlat, jamiyat, ijtimoiy hayot, ezgulik, g'oya, kurashlar, Pan Gu, Shan Di.

### Nazorat savollari

1. Qadimgi Xitoyda jamiyat haqidagi ilk bilimlarning rivojlanishi qachondan boshlandi?
2. Chju davlatning tanazzulini keltirib chiqargan omil nima?
3. Konfutsiy asarlarining mazmuni nimalardan iborat?
4. Qadimgi Xitoyda qanday ijtimoiy-falsafiy maktablar bo'lgan?
5. Kimlar qadimgi Xitoyda birinchi bo'lib moddiy dunyodagi hamma narsalar qarama-qarshilikdan iborat ekanligini e'tirof etdilar?




# BUDDAVIYLIK TA'LIMOTI

## REJA:

1. Buddaviylik dinining vujudga kelishi va ta'limoti
2. Budda dinida ijtimoiy-axloqiy masalalar va uning ijtimoiy mohiyati
3. Markaziy Osiyoda buddaviylik ta'limotining tarqalishi

**Maqsad:** *Talabalarga buddizmning kelib chiqish sababi, xalqlarning yashash sharoiti va hayoti, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlar asoslarini tushuntirish hamda jamiyat haqidagi ijtimoiy qarashlarni o'rgatishdan iborat.*

Jahon dinlarining har biri o'zi vujudga kelgan hududlarda jamiyatga, madaniyatga, ma'naviyat hamda ijtimoiy hayotga bir qator ijobiy o'zgarishlar olib kelgan. Jahon dinlari xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, savdo ishlarini kuchaytirdi, nisbatan tinchlik o'rnatdi, o'zaro urushlarni kamaytirdi, ko'pgina xalqlarni birlashtirdi.



**Buddaviylik** - eng qadimgi dinlardan biri bo'lib, u eramizdan oldingi VI asrda shimoliy Hindiston (hozirgi Nepal)da rivojlangan quldorlik jamiyati yuzaga kelib, yirik davlatlar tashkil topayotgan sharoitda vujudga keldi. Bu dinga hozirgi kunda 500 mlndan ortiq kishi e'tiqod qiladi. Buddaviylik Xitoy, Mongoliya, Yaponiya, Shri-Lanka, Nepal, Birma,

Kampuchiya, Tailand, Laos, Kambodja, Butan, Vetnam, Indoneziya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Shu bilan birga bu din jahonning salkam 3/2 qism aholisining ma'naviy qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Buddaviylik asoschisi Sidxartxa Gautama bo'lib (uning yashagan davri haqida turli ma'lumotlar bo'lib, ba'zilarida era.avv 623-544- y.y, 564-483- y.y, 560-480- y.y.) shakya qabilasining podshosi Shudxdona (Ximolay tog'lari etaklarida



joylashgan Kapilavastida saroyi)ning o'g'li hisoblansa-da onasi Mayyaning 45 yoshida g'oyibdan homilador bo'lib tug'ilganligi haqida ma'lumotlar bor. Uning dunyoga kelishida yer qimirlashi, chaqmoq chaqishi, momaqaldiriq guldirashi kabi tabiat hodisalari kuzatilgan, bundan tashqari, chaqaloq tug'ilgan zahoti yetti qadam qo'ygan va gapira boshlagan ekan.

Rivoyatlarga ko'ra, Budda cheksiz qayta tug'ilish natijasida turli qiyofada (jami 550 marta) - podachi, raqqosa, quruvchi, 58 marta shoh, 84 marta ruhoni, 24 marta rohib, hatto xudo shaklida namoyon bo'lgan. Gautamaga qadar 6 ta budda o'tgan deyiladi, shuning uchun ba'zi muqaddas joylarda 7 ta budda ibodatxonalari qurilgan. Budda turli ismlar bilan zikr etiladi. Sidxartxa – shaxsiy ism, Urug' nomi, Shakyamuni – shakya qabilasidan chiqqan donishmand, Budda – nurlangan, Tadxagata – shunday kelib, shunday ketgan, Jina – g'olib, Bxagavan – tantana qiluvchi kabi. Ularning ichida Budda ismi mashhur bo'lib din ham Buddizm nomi bilan ataladi.

Hozirda Buddaning 5 ta biografiyasi haqida ma'lumotlar bor bo'lib, ular Buddaviylik to'g'risida ma'lumotlar beradi. «Maxavostu»- 2-asrda yozilgan, «Lalitavistara» – 2-3- asrda yozilgan, «Buddaxacharita» – 1-2 -asrlarda budaviylik faylasuflaridan Ashvagxoshay tamonidan yozilgan, «Nidanakatxa» – 1-asrga oid va so'ngisi «Abnixishkramansutra» hisoblanadi. Bu biografiyalar orasidagi asosiy farq Buddaning tug'ilishiga oid ma'lumotlar, chunki yuqoridagi asarlarning barchasida uning yashagan yillari turlicha berilgan, bu esa Buddaning hayoti afsonaviy hayot bilan o'zaro qorishib ketadi degani. U shu oliy maqsadga erishish uchun obro'li Shakya qabilasini tanlagan emish. Gautamaning otasi o'g'lini din yo'liga bag'ishlashga rozi bo'lmay, unga yaxshi ma'lumot beradi hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalaydi. U hech qanday qiyinchilik ko'rmay o'sgan, o'zining donoligi, kuchliligi va ephilligi bilan hammani hayratga solgan.

Vaqtlar kelib, u bir ko'r cholga duch kelgan. Kasal yotgan kishini, o'likni ko'rgandan so'ng hayotining mohiyati, maqsadi, og'irliklari, kasallik va o'lim haqida o'ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligini anglab, tarki dunyo qilgan, darveshlik yo'liga kirgan, bu bilan u go'yo kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarining mohiyatiga tezroq yetib,



ulardan qutilish yo'lini topmoqchi bo'ldi va bir daraxt tagida 49 kun turmay o'yga cho'madi. Nihoyat 49-kuni «sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu ondan uni Buddha (nurlangan) u o'tirgan daraxt esa Bodxa (nurlangan daraxt) deb ataladi. U birinchi da'vatini Varanasa yaqinidagi Rishipatana bog'ida besh rohib do'stiga qiladi. Buddha 80 yoshida Kushtnagarada vafot etadi. Uning jasadi kuydirilib xoki 8 ta budda jamoalariga bo'lib yuboriladi. Uning xokini dafn etgan har bir jamoa o'sha yerda ibodatxona (stupa) qurishadi. Shundan boshlab buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchilar ibodatxonalarni tashkil eta boshlaydilar.

Har qanday dinlar kabi buddizmning ham kelib chiqish sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi sotsial munosabatlardan qidirish lozim.

Qadimiy Hindistonda buddaviylik shakllangunga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o'rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga-braxmanlar, harbiylar, o'rta tabaqalarga-hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar, eng quyi tabaqaga esa qora xalq, xizmatkorlar kiritilardi. Quyi tabaqa kishilarining hayoti nihoyatda og'ir edi. Ular ijtimoiy tenglik u yoqda tursin, diniy tenglikka ham erishish huquqiga ega emas edilar. Bu hol katta norozilikka sabab bo'ldi. Bundan tashqari, jamiyatni kastalarga, oliy va past toifalarga ajratish mavjud bo'lib, braxmanizm dini kastachilikning himoyachisi va g'oyaviy quroli edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanizm mazhablaridan bir sifatida paydo bo'ldi. U braxmanizmning jonning ko'chib yurishi, jannat va do'zax haqidagi aqidalarni saqlab qoldi. Braxmanizmning jamiyatni kastalarga bo'linishi to'g'risidagi ta'limotiga qarshi chiqib, barcha kishilar teng huquqli deb e'tirof qildi. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi g'oyasi odamlarning kastalarga bo'linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol o'ynadi. Biroq buddaviylik bu kurashga diniy-mistik tus berib, kishilar «azob-uqubat chekishda va undan xalos bo'lishda» ham tengdirlar, deb hisoblaydi. Bu holat diniy hissiyotlarni singdirishga xizmat qildi.

Barcha odamlar, kelib chiqishi, bir yoki boshqa varnaga bog'liqligidan qat'i nazar, shangxaga kirish huquqiga ega edilar. Unga loyiq bo'lgan kishi braxmananing oliy ismini olib yurishi mumkin. «Men odamni faqat tug'ilishi yoki onasi uchun brahman

deb atamayman. Brahman sochlari, oilaviy daraxti yoki tug'ilishi tufayli yaratilmagan. Haqiqat va dharma kimda bo'lsa, u baxtlidir va u brahmana». Varnaga, buddizmga tegishli bo'lishning «jonni tejash» ahamiyati shu tarzda rad etildi. Biroq na Buddizm, na Buddaning o'zi jamiyatning kast tuzilishiga qarshi chiqmadi. A. Bartning ta'kidlashicha, «buddizm kastani umuman inkor etmaydi, balki braxmananing varnasi, odamga ba'zi diniy afzalliklarni beradi deb hisoblangan. Ammo u o'zining ta'limotida braxmanalardan farq qilar edi ba u barcha kastalarni o'ziga xos xususiyatlarga ega» deb hisoblagan.

Buddaviylik diniy ta'limotining asosiy manbai **tripitaka** (lug'aviy ma'nosi «uch savat») deb nom olgan diniy yozuvlarda aks etgan. Diniy ta'limotda Buddha uchta savatda ta'limot qoldirgan, deb tasavvur etiladi. **Birinchi savat - Vinaya-Pitaka** deyiladi. U buddaning rohiblik jamoasini tashkil etish tartib-qoidalari, pand-nasihatlar, axloq normalari bayonidir; **ikkinchi savat - Sutta-Pitaka** deyilib, unda duolar, dostonlar, afsonalar bayon etilgan; **uchinchi savat - Atxidamme-Pitaka** bo'lib, diniy falsafiy-axloqiy g'oyalar bayonidan iborat. Buddaviylik, hamma narsaning asosida bilib bo'lmaydigan ruh yotadi, deydi. Dunyo real mavjud emas, u faqat kishilarning xayolida, bilib bo'lmaydigan ruhning namoyon bo'lishida, deb ta'lim beradi. Buddaviylikdagi Nirvana ta'limoti «muqaddas haqiqat» deb ataladi. Unga ko'ra: 1) hayot va turmush azob-uqubatlardan iborat, buni har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot-qiynoq, azob-uqubatdir. Tug'ilish-qiynoq, kasallik-qiynoq, o'lim-qiynoq, yomon narsaga duch kelish-qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish-qiynoq, yomon narsadan ayrilish-qiynoq, o'zi xohlagan narsaga ega bo'lmaslik-qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bogliqlik. Hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi, lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun Buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi; 2) azob-uqubatlarning sabablari mavjud, ya'ni azob-uqubatdan qutulish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyishlari, Buddha kashf etgan aqidalarga amal qilishlari zarur. Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini mutlaqlashtiradi, borliqning barcha ko'rinishlarini, uning mohiyatini, har qanday hayot tarzini azob-uqubat deb hisoblaydi. Shuning uchun ham buddaviylik







Nirvanani borliqning intihosi, deb ham tushunadi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, jonli mavjudotlarning o'lishi uni tashkil etgan dharma (element, zarracha) larning ajralib ketish jarayonidir. Bu dharmalarning yangidan birikishi ilgari qilingan «savob va gunoh»lar bilan bog'liq deyilgan. Dharma Nirvana darajasiga yetgandagina qayta tug'ilishlarga barham berilib, azob-uqubatdan butunlay xalos bo'ladi.

3) Azob-uqubatlardan qutilish mumkin-buddaviylik ta'limotiga ko'ra azob-uqubatlardan xalos bo'lishning eng maqbul yo'li rohiblik (zohidlik) jamiyatiga (sangxa) o'tish hisoblanadi. Odam joni-ruhi gunohdan tozalangach, mutlaq sokinlik olami bo'lgan Nirvanaga dohil bo'ladi.

4) Azob-uqubatlardan qutilish yo'li mavjud rohiblik boshqa dinlarga qaraganda buddaviylikda avvalroq vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo'lmish Xinayana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynamoqda.

Budda ta'limoti 3 qismdan iborat. Bular: 1) **Axloq-buddaning 5 nasihati (pancha shila)**. Bular: qotillik, gumrohlik, o'g'rilik, yolg'on qalbaki narsalar, mast qiluvchi narsalardan saqlanish. Bundan tashqari ovqatlanishdan saqlanish, kulgudan saqlanish, zebu-ziynat, atir-upalardan saqlanish ham kiritiladi.

## 2. Meditatsiya

1. To'g'ri tushunish
2. To'g'ri niyat qilish
3. O'zini to'g'ri tutish
4. To'g'ri anglash
5. To'g'ri harakat qilish
6. To'g'ri muomalada bo'lish
7. To'g'ri fikr yuritish
8. To'g'ri gapirish

3. **Donishmandlik** – bu, Buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdir.


Rohiblar buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar orasida juda katta obro' va hurmatga sazovor bo'lib, ularga itoat etish va aytganini bajarish zarur, deb hisoblanadi. Buddizmda bir nechta mazhablar paydo bo'ldi. Bulardan eng yirigi 1-asrda ajralgan **Hinoyana** («Kichik arava» - tor yo'l ma'nosida) Shri-Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarkalgan. **Mahayana** («Katta arava» - keng



yo'l ma'nosida) Tibet, Yaponiya, Mo'g'uliston hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan. Buddaviylik Tibet va Mo'g'ulistonda ham tarqalgan bo'lib, u Lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviylikning bu mazhabi mahalliy xalqlar o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan diniy tasavvur va urf-odatlarini o'zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaviylikning yana qaytib kelishi va yer yuzida adolatli hokimiyat o'rnatishi to'g'risidagi bashoratga keng o'rin berilgan. Lamaizmni ko'chmanchi xalq hayotiga moslashlashtirishga urinish mavjud. Undagi ibodat qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Buddaviylik ta'limotida olam uch bosqichli deb ta'riflanadi. Birinchi olam eng yuqori olam bo'lib, unda mutlaqo osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud deyiladi. Bu olam ruhning makonidir. Buddaviylikning ta'lim berishicha, ilohiy ruhni mutlaqo bilib bo'lmaydi. *Birinchi olamda* ruh materiyadan tashqarida, u harakatsiz osuda yashaydi. *Ikkinchi olam*, rivoyatlarga ko'ra, ruhiy mavjudotlar bilan to'la jannat bo'lib uni bodisatva deyiladi. Bu olamning hokimi Amitabadir. Amitaba olamida ruh gunohidan xalos bo'lgan, lekin eng oliy olamga, ya'ni nirvanaga - mutlaqo bo'shliq va osoyishtalik olamiga ko'tarilmagan avliyolar yashaydi. Buddalar kishilarga budda ta'limotini o'rganish, yaxshi yo'ldan boshlab borish uchun yerga yuborilar ekan. *Uchinchi olam* eng quyi olam bo'lib, unda odamlar va hayvonlar yashaydi. Bu olamdagi ruh qafasda yashaydi. U materiyaning changalida turadi va ozod bo'lish hamda yuqori olamga ko'tarilishga harakat qiladi. Ruhning yuqori olamga ko'tarilishi odamlar qiladigan savobli ishlarga bog'liq. Agar odam budda ta'limotiga e'tiqod qilsa, yaxshilikka intilsa, uning joni qayta tug'ilishlardan so'ng jannatga va undan nirvanaga ko'tariladi. Yomonlikka mansub gunohkor kishilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, kafan ichida yuraveradi, yuqori olamga hech qachon ko'tarila olmaydi. Agar insonning budda ta'limotiga zid ishlari ko'payib ketsa, hirs yoki tovlamachilikka berilib, undan qutila olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug'ilishlardan keyin er ostidagi do'zaxga tushadi va unda abadiy azoblanadi. Buddaviylikda qayta tug'ilish deganda yangidan paydo bo'lish tushunilmaydi, balki ilgari o'lgan odamlarning jismidan tarqalgan dharmalarning yangi asosda





birlashib, kelajak avlodga o'tishi tushuniladi. Shuning uchun, budda dini inson kelajak avlodi uchun ham javobgar deb hisoblaydi.

Agar odam yaxshi bo'lsa, budda ta'limotiga to'liq rioya qilsa, boy va e'tiborli bo'lsa uning dharmalari asosida qayta tug'ilgan odam ham boy va badavlat, sofdil bo'ladi. Aksincha, odam yomon, kambag'al, qashshoq bo'lsa, budda ta'limotiga rioya qilmasa, uning dharmalaridan paydo bo'lgan odam ham kambag'al, qashshoq bo'ladi. Buning sababi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir. Buddaviylik o'zining bu ta'limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va jabr-zulmning tub mohiyatini ilohiy taqdir bilan izohlaydi.

Hindistonda quldorlik barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib bordi, keyinchalik hinduizmga qo'shilib ketdi. XI-XII asrlarda buddaviylik Hindistonda o'z ta'sirini deyarli yo'qotdi.

Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda buddaviylikning yopilishi Kushonlar saltanati ravnaq topgan davrlar (er.av.II asr. yangi er. I asrlari) bilan bog'liq. U hozirgi Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston va Sintszyan hududlarini o'z ichiga oladi. Kushonlar davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, bu erdan esa «Buyuk ipak yo'li» orqali Uzoq Sharqqa yoyilgan. Buddaviylikni Hind savdogarlari, sayyohlari, missionerlari dunyoga tarqatganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari buddaviylikni qabul qilib, budda diniga oid yodgorlik - inshootlar, ibodatxonalar, monastirlar kabi o'ziga xos imoratlar bunyod qilganlar. Masalan, Tohiriylar davlatining poytaxti Balx shahrida budda diniga oid yuzga yaqin monastir bo'lib, ularning uch mingta monaxi bo'lgan, ko'pchilik aholi esa buddaga ibodat qilgan. Markaziy Osiyoda buddaviylikdan tashqari o'sha davrlarda yana zardo'shtiy dini ham mavjud edi. Budda diniga oid ibodatxonalar Farg'onada, Samarqand yaqinida, Pop tumanidagi Chodak qishlog'ida, Qirg'iziston va Turkmanistonning janubiy tumanlarida topilgan. Shunday qilib buddaviylik o'lkamizga eramizning boshlarida kirib keldi.

Buddaviylik dinining eng katta yo'nalishlaridan biri Lamaizm (tibet tilida «lama»-oliy samoviy, degan ma'noga ega

bo'lib, zohidlar shunday deb ataladi) bo'lib, u VII-XIV asrlarda tarkib topgan.

Tibetda buddaviylikning Mahayana yo'nalishidagi oqimi bo'lib, u yerda hukmron din bo'lgan. XVI asrning oxirlaridan boshlab lamaizm Mo'g'ulistonda, XVIII asrning boshidan esa Buryatistonda keng tarqalgan. 1741-yilda barcha lamalar Rossiyaga sodiq fuqaro bo'lib qolishga qasam ichadilar va o'z diniy ta'limotini targ'ib qilishga rasmiy ijozat oladilar. Dastlabki lamalar XVII asr o'rtalarida Jungoriyadan Rossiyaga ko'chib kelgan qalmaq qabilalar bilan birga kelganlar va Rossiya fuqaroligini qabul qilganlar. Qalmaq'iston, Buryatiston ruhoniylaridan Tuva ruhoniylari -lamalari VII asrlaridayoq paydo bo'lganligi bilan farq qiladi. Biroq tuvaliklar lamaizmni ularning azaliy dini bo'lgan shomonizm bilan qismangina qo'shishgan, xolos. Lamaizm ta'limotida 7 ta asosiy aqida bor.

**Birinchi aqida:** burxonlar to'g'risidagi ta'limot. Lamaistlarning xudolari va surati burxonlar atamasi bilan nomlanadi.

**Ikkinchi aqida:** «muqaddas kitoblar» to'g'risidagi ta'limot. Lamachilar ikkita to'plam kitobni «muqaddas» bilib e'zozlaydilar. Ularning birinchisi Ganjur (tibetcha-vahiy-lar) 108 jildli va ikkinchisi Danjur (tibetcha-sharhlar) 225 jildli. XIV asrda tibet tilida yozilgan bu matnlar Tripitakadan qilingan tarjimalarni ham, lamachi ruhoniylar yaratgan asarlarni ham o'z ichiga oladi.

**Uchinchi aqida** - eng mayda, g'ayritabiiy o'lmas zarralar bo'lmish draxmalarning birikishidan iborat jon to'g'risidagi ta'limot. Dharmalar tanalarni vujudga keltiradi, tana o'ladi, ammo jon o'lmaydi.

**To'rtinchi aqida** - dunyoning manzarasi to'g'risidagi, narigi dunyodagi hayot to'g'risidagi ta'limotdir. Lamaizm ta'limotiga ko'ra, narigi dunyo ikki bosqichga bo'linadi: sansara - kishi joni o'zgarib turadigan cheksiz zanjir. Nirvana - bunda, ayniqsa, taqvodor joni orom topadi.

**Beshinchi aqida** - dindorlar bilan burxonlar o'rtasidagi zarur vositachi sifatidagi lolalar to'g'risidagi ta'limot. Bularning ko'plari jonli xudolar yoki xubliganlar - boshqacha shaklda gavdalanuvchilar deb qaraladi.





**Oltinchi aqida** - muqaddas urush to'g'risida bo'lib, bu urush oqibatida buddist bo'lmagan kishilarning hammasi yo'q qilinishi kerak.

**Ettinchi aqida** - azob chekish to'g'risidagi aqida, Lamaizm ham buddizm kabi yerdagi hayotni azob chekish deb hisoblaydi. Uning sabablarini esa aslo yo'q qilib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi. Lamaistlar faoliyatini amalga oshiradigan markazlar datsanlar bo'lib, ularda lamalar har kuni ibodat qiladilar.

Oddiy lamaistlar o'z uylarida ibodat qilishlari ham katta ahamiyatga ega.

Lamaistlar ibodatlarni oddiy shaklga kiritish uchun harakat qiladilar. Masalan, Mo'g'ulistonda, Buryatiyada, maxsus dindorlar avlodlari xotirasini eslash marosimida pul to'lab turli raqamli sharlar yoki pattalarni shu qurilmaga tashlaydilar, aylanib chiqqan o'sha patta yoki sharni olib, uni qo'llariga, peshonalariga tekkizib lamaga qaytib bersalar niyatlari ijobat bo'lgan hisoblanadi.

Buddaviylik va Lamaizmda buddaga sig'inish, va'zxonlik eshitish, Gautamaning tug'ilishi, nurga to'lishi, targ'iboti va o'limi bilan bog'liq bo'lgan «muqaddas» joylarni ziyorat qilish, buddizm obidalari saqlanadigan ibodatxonalarning ustunlariga sig'inish asosiy marosimlar hisoblanadi.

Buddaviylik Xristian va Islom dinlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, oxirat to'g'risidagi, qayta tirilish, ruh va jonning o'lmasligi, hayvonlarni azoblash gunohligi, qon to'kmaslik kabi ta'limotlar buddaviylikdan keyingi dinlarga o'tgan.

**Tayanch iboralar:** Buddha, nirvana, Tripitaka, din, haykaltaroshlik, jamiyat, oliy haqiqat, kasta, lamaizm.

### Nazorat savollari

1. Buddaviylik dinining paydo bo'lishining sotsial sabablari?
2. Tripitaka so'zining ma'nosi?
3. Qadimgi Misr davlatchiligi qachondan boshlab shakllangan?
4. Lamaizm qachon qaerda vujudga kelgan?
5. Buddaviylik dinining sotsial ahamiyati haqida so'zlang?

# «AVESTO»DA JAMIYAT HAQIDAGI QARASHLAR, MONIYLIK VA MAZDAKIYLIK TA'LIMOTLARI

## REJA:

1. Markaziy Osiyoda ilk davlat birlashmalarining paydo bo'lishi.
2. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi va "Avesto"da bayon etilgan jamiyat haqidagi qarashlar.
3. Moniylik va Mazdakning sotsiologik ta'limotlarida jamiyat haqidagi tasavvurlar.

**Maqsad:** *Talabalarga Markaziy Osiyodagi ilk davlat birlashmalarining tashkil topishi, "Avesto"da jamiyat haqidagi ijtimoiy fikrlar, ilk o'rta asrlarda tarqalgan g'oya va qarashlarning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*

Zardushtiylik era. avv. II-I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bu din *vahiy* orqali nozil bo'lgan. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritildi. Keyingi asrlarda bu g'oyalar boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi.

Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq bir to'htamga kelingan emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish «Avesto»da «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilinadi. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi.

Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zining oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib,



zardushtiylikning ilohiyoti – Axura-Mazda nomi paydo bo‘lgan. Bu – «janob Mazda» yoki «iloh» demakdir.

Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtra, Zardust, Zoroastr ko‘rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o‘rtasida Zardushtning tarixda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba‘zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan era. avv. 1200-570-yillar oralig‘ida yashagan. Tadqiqotchi Meri Boysning ta’kidlashicha, u era. avv. 1500-1200-yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan ko‘pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e’tiqodlarni isloh qilib, yangi dinga asos soldi.



Zardushtiylik ta’limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo‘lgan tabiat kuchlarini ilohiyashtiruvchi e’tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteistik ta’limotdir. U behuda qon to‘kuvchi qurbonliklar, harbiy to‘qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o‘troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnat qilishga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanishga da’vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo‘riq yer ochib, uni bog‘-u rog‘ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog‘lar, ekinzorlarni, sug‘orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Bunga ko‘ra insonning bu





dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa, na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – *misvongaga* tushadi.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni Axura-Mazda va barcha yomonliklarni Axramanyu (yoki Axriman) ifodalaydi.

Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi.


Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar softligi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab sig'inishi shart hisoblangan.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi.

VIII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib keng tarqalgunga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi.

Sharq xalqlari orasida juda mashhur bo'lib kelayotgan «Shohnoma» dostonining muallifi Abdulqosim Firdavsiy o'zining «Shohnoma» va «Gushtosp» dostonining alohida boblarini «Avesto»ga bag'ishlagan, Turkiston va Eron xalqlarining islom dini kirib kelgungacha bo'lgan dini zardushtiylik dini edi. Bu dinning asoschisi payg'ambar Zardusht degan xorazmlik olim edi. Zardusht Sharqning donishmandlar peshvosi, birinchi faylasufi, notig'i, shoiri, din qonunshunosi hisoblangan. Tadqiqotchi olimlarning ko'rsatishicha, Zardusht eramizdan oldingi VI asrda yashagan. U Xorazm hokimligiga qarashli chorvadorlik bilan shug'ullangan Spitama urug'idan bo'lgan. Otasining Paurushaspa, onasini esa Dugdava deb atashgan. Bolaligidanoq ot va tuya boqish bilan shug'ullangan Zardusht chorvador qavmlari orasida yurib, ularning urf-odatlarini, diniy rasm-rusumlarini o'rgangach, har xil e'tiqoddagi kishilar bilan suhbatlashgan.





Zardusht ilgari surgan g'oyaning asosini ikki bosqich tashkil qiladi: mutloq g'oya - Axuramazdaning yakkayu-yagonaligini tan olish. Yaxshilik bilan yomonlik, rostgo'ylik bilan yolg'onchilik, zulmat bilan nur o'rtasidagi doimiy kurash haqidagi ta'limot. Zardusht ta'limoti tobora xalqqa kuchli ta'sir o'tkazayotganini sezgan muxoliflari unga qarshi qat'iy kurashga kirishadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht bir guruh tarafdorlari bilan Eronga qochib o'tadi va o'z ta'limotini uzil-kesil shakllantiradi.

Firdavsiy bilan Beruniyning tasviricha, Zardusht birinchi bo'lib o'z diniy ta'limotini Eron shohi Gushtaspga asoslab berib, uning e'tiborini qozonadi. Gushtasp farmoniga ko'ra Zardusht 1300 bobdan iborat pandnoma - «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib shohning otashqadasi (olov yonib turadigan ibodat uyi) xazinasiga topshirgan. Shundan so'ng shoh payg'ambarning ixlosmandi sifatida yangi dinning fidoiy targ'ibotchisiga aylangan. Bu borada Amudaryoning ikkala sohilidagi yurtlarning hokimi Arjans, Gushtaspni ajdodlar e'tiqodidan qaytishda ayblab, unga qarshi urush e'lon qiladi. Tengsiz urushda Arjans o'ldiriladi. Natijada Eronda ham, Turonda ham otashparastlik - zardushtiylik dini to'la joriy etiladi.

Zardushtning iltimosi va shoh Gushtaspning farmoniga asosan Eron va Turon mamlakatlarning barcha shahar va qishloqlarida otashqadalar - ibodatxonalar quriladi va ularda ibodat marosimlari muntazam ado etila boshlanadi. Ana shunday otashqadalardan eng kattasi Buxoroda edi. Mohiruz degan machit ilgari zardusht ibodatxonasi bo'lgan. Zardusht 77 yoshida ibodat paytida ko'p xudolik tarafdori Bratavaxsh tomonidan o'ldiriladi.

Markaziy Osiyo (Turkiston) xalqlarining turli marosimlarida hozir ham otashparastlik dinining an'analarini uchratish mumkin. Ba'zi udumlar yuzasidan sham yoqib qo'yish, to'ylarda gulxan yoqib, uning atrofida bazm uyushtirish, kelinni ko'chada gulxan yoqib kutib olish va uni olov atrofidan aylantirib o'tish, chavandozlarning katta gulxan alangasidan sakrab o'tishlari, qabrlar ustiga chiroq yoqish va boshqa rasm-rusumlar otashparastlik bilan bog'liqdir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanmish «Avesto»ning dastlabki 1300 bobi Zardusht tomonidan eramizdan

avvalgi 548-529-yillarda yozilgan degan tahminlar mavjud. Keyinchalik Eronda otashparastlik dini ulamo-kohinlar tomonidan to'ldirilib, tako-millashtirildi. Makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy sharqni zabt etganda «Avesto»ning nodir nusxasini Elladaga (Gretsiyaning shimoliy qismi) olib ketgan, kerakli boblarini grek tiliga tarjima qildirgan, qolgan boblarini esa kuydirib tashlagan. Eramizning birinchi asrida arshakiylar hukmdori Valages Arshakid va III asrda Husrav Parviz, Shopuri Xurmuzd davrlarida «Avesto» bir necha bor ko'chirilgan, qayta tiklangan (bir qismi).

«Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, u ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo'yicha mukammal ma'lumot beradigan ulkan, eng qadimgi manba hisoblanadi. Grek olimi Pliniy (eramizdan avvalgi 3-asrda yashagan) «Avesto»ni ikki million baytdan iborat g'oyat muhim kitob degan edi. Biz «Avesto»dan Turkiston, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlari, urf-odatlar, rasm-rusum, e'tiqod ibodatlarini paytida aytadigan qo'shiqlari, diniy marosimlarda ijro etiladigan maxsus qo'shiqlari, minglab xalqlar ohanglari haqida ma'lumotlar olamiz. Unda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan bog'liq juda ko'p lavhalar, mulohazalar bayon etilgan.

«Avesto»da eramizdan avvalgi ikki ming yildan yangi eraning VII asrigacha bo'lgan davrdagi Turon va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma'lumotlar ham berilgan. Chunonchi, kitobda ajdodlarimizning kasb-kori, savdo-sotig'i, qo'shni xalqlar bilan siyosiy va madaniy aloqalari, tijoratlari bayon qilingan. Har bir kasb, hunar egasining jamiyatda tutgan o'rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar bilan chorvadorlar jamiyat moddiy boyliklarini yaratuvchi kuchlar sifatida ta'riflangan.

Bundan tashqari, mazkur kitobda iqtisodiy hayot, geografiya, astronomiya, ilmi-nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga doir ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud. «Avesto»dagi tibbiy dalillar ota-bobolarimizning tabobatga doir qarashlari rim, yunon va arab tabobatidan ko'hna va uzoq tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Undagi tibbiy ma'lumot ko'proq





«Vendidod»ning turli joylarida uchraydi. Undagi tibbiy fikrlarni quyidagicha bayon etish mumkin:

1. Tashrex (anatomya) va mijoz (fiziologiya).
2. Kasalliklar haqidagi ma'lumotlar.
3. Bemorlikni oldini olish vositalari.
4. Bemorlarni davolash yo'llari.
5. Tabiblarning axloqi va tabobatga oid ba'zi qonun-qoidalar.

«Avesto»da inson organizmi - tanasi mushak, suyak, teri, asab, badan juni, tomir va qonga (asab va miya yerga, badan tuki daraxtga o'xshatilgan), badandagi tomirlarni qora qonli tomirlar, qizil qonli tomirlar va oq, ya'ni qonsiz tomirlar (asab) ga bo'lishgan. Badanning quvvati esa jon, vijdon, ravon (tan), idrok va azaliy (qadimiy) ruh kabi 5 qismga bo'lingan. Mijozni esa harorat (issiqlik), rutubat (sovuqlik), burudat (namlik) va quruqlikka bo'lishgan. «Jigar qon manbai bo'lib, o'ng tomonda joylashgan», deyiladi. «Avesto»da yer, suv, zamin, uy hayvonlari, badan, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Unda qabristonlarni shahar va qishloqlardan uzoqroq joylarda tashkil qilish, ularni devor bilan o'rab qo'yish, murdani yuvadigan (g'assol) kishilar maxsus gigienaga rioya qilishi, murda tekkan kiyim, palos, yerlarni qatron qilish xususida bir qancha fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon jasadi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta qatron qilish (suvga to'ldirib bo'shatish) ta'kidlangan. «Uning (ariq) ustiga uch marta yomg'ir yog'ib o'tsin, so'ngra u oldingidek inson va hayvon ichadigan ariqqa aylanadi» - deb yozilgan. Axuramazda o't-o'lanlar hamda mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo'lgan zamin eng yaxshi yerdir. Ayol va farzandlari sarson va sargardon yuradigan (ro'shnolik topolmaydigan) yer eng yomon zamindir, deb ta'lim bergan, deyiladi ana shu manbada. Yerni, suvni iflos qilgan shaxslar 400 qamchi urib jazoga tortilganligi xabar qilingan. «Avesto»da avlodalarimiz ekologiya talab-lariga jiddiy e'tibor berganliklari, kasalliklarning oldini olishga oid ma'lumotlar bor.

Atrof-muhit tozaliklarini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:





1. Axlatlarni berkitish, iflos joylarni tuproq, shag'al, qum bilan ko'mib tashlash - shu yo'l bilan mikroblar o'ldirilib yoki kamaytirilgan, tarqab ketishiga yo'l qo'yilmagan;


2. Olov (otash), issiqlik va sovuqlik yo'li bilan yo'qotish. «Avesto»da olov - poklovchi va ofatni ketkizuvchi vosita ekanligi bayon qilingan. Olov muqaddas hisoblanib, unga sig'inilgan. Shu sababli otashparast, olovga sig'inuvchilar bizning ajdodlarimiz edi;

3. Kimyoviy yo'l: sirka, sharob, turli giyohlar (isfaid, mexak, sadab, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo'li bilan.

Bu vositalar hozir ham mikroblarni yo'q qilishda ishlatiladi. «Vendidod»ning 5-bobida shamol, hayvon, parranda, pashsha orqali turli kasalliklarning tarqalishi qayd qilingan. Kasallik tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo'qotishga da'vat etilgan holda «Avesto»da uy hayvonlarini asrashga da'vat kuchli bo'lgan, «Vendidod»da «ovchi itni o'ldirgan kishi 1000 barsum ruhiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargi berishi lozim. Shuningdek, u 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo'ng'izi, kasal tarqatuvchi pashshani o'ldirib, gunohini yuvishi lozim», deyilgan.

«Vendidod»ning 5 va 17-boblarida doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. Inson me'yori bilan doim to'q yurishi, ko'proq go'sht iste'mol qilishi zarurligi uqtirilgan. «Avesto» da issiqlik, sovuq havo, ochlik va ruhiy iztirob, buzilgan taomni yeyish, tozalikka rioya qilmaslik, yomonlik xudosi Axriman yuborgan qurt, pashsha, yomon havo kasalliklarning asosiy manbai deyilgan. Unda 9999 kasallikni Axriman paydo qildi, deyiladi.

Erkak zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu ammo uylanmasa, unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishar edi. Ba'zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. «Avesto» da yaqin qarindoshlarning o'zaro nikohlanib oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko'p bolali oilalalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd




etilgan, bir yo'la 2-3 ta farzand tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtilrgan.

«Vendidod» da kasalliklarni: rejim, parhez, duo, dori, jarrohlik yo'llari bilan davolash aytilgan va dorivor o'simliklarning nomi berilgan: shira, barg, go'sht, don, buta, piyoz, ildiz kabilardan foydalanish ko'rsatilgan. Ular za'faron, koski, kunjut, ko'knor, zira, piyoz, sedana, sarimsoq, qatron, turp, xurmo, sabzi, behi, shakar, asal, zaytun, moyi va boshqalardan tayyorlangan. Jarrohlikda bemorga asal sharobiga nasha qo'shib berib, behush qilib kesishgan, Gippokratning (Buqrot) tabiblar qasamyodi haqidagi fikrdan bir necha asr avval «Avesto» da tabiblarining maxsus qasamnoma keltirilgan: tabobat ramzi - ilon zahar solayotgan idish-jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Unda qadimgi kishilarning o'rtacha umri 800-900 yil bo'lishi, ayrim odamlar yashash sharoiti, muhitiga qarab 1800 yilgacha umr ko'rishi mumkinligi aytilgan.

Bundan tashqari Yasna – (yoki «Etti bob Yasna») deb nomlangan qismida olovning muqaddasligi haqida bob bo'lib, zardushtiylik urf-odatlar orasida olovga e'tiqod qilish, dinning esa «otashparastlik» deb atalishiga olib kelgan. Binobarin, olov Axuramazda nurining quyoshda namoyonligi va uning yerdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat Arta ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg'onni rostdan ajratib bergan. Yolg'on esa chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan.

«Avesto»da juda ko'p g'oya, fikr, tavsiya, o'g'itlar bor bo'lgani uchun biz faqat real, haqiqiy hayotga, dunyoviy munosabatlarga tegishli, hozir ham talabalar uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan masalalar ustida to'xtaymiz. Undagi asosiy g'oyalar olamdagi o'rnatilgan barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Ahriman ifodalaydi; bu kurashda odam oliy kuchlar ixtiyoridagi o'yinchoq emas, u tanlash erkinligiga ega, u o'z g'ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta'sir eta oladigan kishidir. Demak, hozir ham kimki, o'zini ilohiy



kuch qo'lidagi qo'g'irchoq hisoblamasa, o'ziga biror kasbni tanlab olsa, g'ayratli bo'lsa, adolatsizlikka duch kelsa, unga qarshi kurasha oladigan inson bo'lib yetishishlari shart. «Avesto» da u zamonlarda keng tarqalgan ko'chmanchilik qoralanib, dehqonchilik ezgulik sifatida rag'batlantirilgan. Bundan xulosa chiqarib, hozir ham har bir odam hech bo'lmasa, bir tup mevali daraxt, gul, sabzavot ekishi kerak. O'ziga mevasi nasib etmasa, farzandlariga, bechoralarga nasib etadi, savob bo'ladi deb hisoblangan. El rahmatlar aytadi. «Avesto»da to'rt element suv, olov, tuproq, havu g'oyat ulug'lanishi; bularni asrash, avaylashga da'vat etilishiga olib keldi. Ularning tarbiyaviy ahamiyati hozir ham katta. Bunga amal qilib, har bir ongli, aqli vatanparvar, xalqparvar, yosh-u qari tomchi suvni ham isrof qilmasligi, energiya, hayot manbai olovini, demak, gazni, ko'mirmi, neftni, o'tinni asrashi; tuproqni iflos qilmasligi, erroziyaga ya'ni nurash, sho'rlanishga yo'l qo'ymasligi; havoni esa pokiza saqlashi, ekologik halokatga uchratmasligi farz hisoblangan. «Avesto»da bundan tashqari sotsial institutlarni shakllanishi hamda davlatning vujudga kelishi haqida ma'lumot berilgan. Masalan, jamiyat asosini tashkil etgan «nmana» – katta patriarxal oilasi haqida gap boradi. Bir necha «nmana» lar urug' jamoasi – «vis»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa «varzana» deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga «zantu» ga birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa – «dax'yu» ga uyushishgan. Bu Markaziy Osiyoda temir asriga o'tish davrida jamiyatning tuzilishi shunday bo'lganligini isbotlaydi.

Hullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» dunyodagi eng qadimiy, noyob bilimlar xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy bilimlar, dunyoviy, tabiiy ijtimoiy fanlar bo'yicha keng mazmunli mulohaza va fikrlar mavjud. «Avesto», ehtimol, eng birinchi falsafiy asardir, Sharq va Turkiston xalqlari sotsial fikrlari tarixining chuqur va baquvvat o'q ildizi «Avesto» sahifalariga borib taqalishiga hech shubha yo'q. Biz dono ajdodlarimizning boy ma'naviy madaniyati, kuchli falsafiy aql-zakovati bilan har qancha faxrlansak arziydi.






## MONIY TA'LIMOTI.

Markiziy Osiyoda eramizdan avvalgi V asrdan yangi eraning IV asrigacha quldorlik tuzumi hukmron edi. V asrda esa feodalizm shakllandi. Moniy Eronda 216-277-yillarda yashagan faylasuf, monizm

ta'limotining asoschisi va targ'ibotchisidir. U 242-yili Eron podshosi Shopur I ning podsholik tojini kiyish marosimida o'z ta'limotini bayon qiladi. Uning ta'limoti falsafiy mazmunida dualizm mavjud bo'lib, Moniy Samo Nuri elchisi hisoblangan. Uning ta'limotida xristianlik bilan zardushtiylik qorishmasi asos hisoblanadi. U borliqni ikki mustaqil substansiya: yorug'lik, yaxshilik, ruh olami bilan zulmat, yovuzlik olamining o'zaro kurashini targ'ib etuvchi zardushtiylik g'oyasini olgan; xristianlikdan esa missionerlik (ya'ni gunohlardan xolos etuvchi payg'ambar, elchining kelishi, adolatli jamiyat o'rnatilishi to'g'risidagi) ta'limotini olib har ikkisini umumlashtirgan. Moniy olam ikkita deb hisobladi. Uningcha, birinchi olamda xudo, ikkinchi olam kurashi halokat bilan tugaydi. Natijada materiya yengilib ruh ozodlikka chiqadi. Moniy ta'limotiga ko'ra, bu dunyo yovuzlik dunyosidir. Inson 2 ta unsur dan (ruh - Nur farzandi va jism - zulmat farzandi) iborat mavjudot bo'lgani uchun zulmat kuchlariga qarshi kurashda nur kuchlariga yordam bera oladi. Moniyning ijtimoiy ta'limotida pessimizm, passivlik ruhi mavjud. Moniy ta'limoti urushmaslik va mol-dunyo yig'maslik g'oyalarini targ'ib qilgani uchun zardushtiy kohinlari va Shoh Bahrom I Moniyini 275 yilda zindonga tashladilar va 277 yilda qatl qildilar. Moniy izdoshlari mamlakatlarda keng tarqalgan edi. Eramizning 296-yilida Rim imperatori Diokletian moniylikka qarshi farmon (edikt) e'lon qildi. Moniy ta'limoti mayda sektalarga ajralib ketdi. Ulardan biri Mazdakiylik deb ataldi.





## MAZDAK TA'LIMOTI.


Mazdakiylik ta'limotining asoschisi mazdakiylar harakatining rahbari Mazdak (470-529-yillar) bo'lib, u xalq ommasining zardusht kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashni boshqargan. Bu harakat ta'sirini pasaytirish maqsadida Eron shohi Qubod I (488-531y.y.) Mazdakni

qo'llab-quvvatlagan edi. Mazdak Qubod I hukmronligi davrida avval otashgohlarning birida kohin, keyinchalik butun Eron bo'yicha bosh kohin bo'lgan. Kohinlar va amaldorlarning iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod bo'lgandan so'ng Qubod I Mazdak bilan aloqani uzgan. 529-yili mazdakiylar harakati bostirilgan. Mazdak qatl etilgan.

Mazdakizm diniy-falsafiy ta'limoti (V-VI asrlarda) Eronda keng tarqalgan. Mazdak ta'limotiga ko'ra olamda bo'ladigan voqea-hodisalar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ulik (johillik) manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik» ning «yomonlik» ustidan muqarrar g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurashga da'vat etgan va bu g'oya ushbu harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Mazdakiylar harakati bostirilgan bo'lsa ham (VI asr), ularning ta'limoti keyingi asrlar davomida Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlar, shahar kambag'allarining feodallar zulmiga qarshi, keyinchalik Markaziy Osiyoga Islom tarqalgach, arablar istilosi hamda hokimiyatiga qarshi kurashning g'oyaviy bayrog'i bo'lib xizmat qildi.

Mazdak ta'limoti zardushtiylikdagi yorug'lik va jaholat, yaxshilik va yovuzlik kurashining dualistik aqidalaridan kelib chiqadigan falsafiy qarashlarga ham asoslanar edi. Lekin sof diniy masalalar mazdakchilikda katta o'rin tutmaydi. Mazdak ta'limoticha, asosiy yovuzlik-boylikka hirs qo'yish va kambag'allikdir. Bular g'arazgo'ylik, bir-birini ko'rolmaslik, qasos olishning sabablaridir. Ijtimoiy adolatlarga qarshi va haqiqiy insoniy munosabatlarni vujudga keltirishning yo'li-





xudoga toat-ibodat qilishdir. Umuman olganda, mazdakchilikning tub maqsadi mulkiy tenglikni o'rnatishdan iborat bo'lib, unda ijtimoiy zulmga qarshi kurash muqaddas vazifa sifatida talqin etiladi.

Mazdakchilik o'zining keyingi rivojlanish bosqichida u darajada taraqqiy etmagan diniy-axloqiy ta'limotdan feodal davlatning asosiy tayanchlariga qarshi qaratilgan faol g'oyaviy kuchga aylanib bordi. Xalq ommasi, asosan, dehqonlar va hunarmandlar o'rtasida keng tarqalgan va qo'llab-quvvatlangan mazdakchilik harakati Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlarning keyingi taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Garchi bostirilgan bo'lishiga qaramay, bu harakat turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O'rta Osiyoda Maqanna, Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag'allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo'la oladi.

Demak, Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi diniy-falsafiy ta'limotlar, ya'ni zardushtiylik, uning bosh kitobi-«Avesto», Moniy ta'limoti, «Moniy yozuvi», mazdakiylik harakati jamiyatda adolat, erkinlik, teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da'vat etgan. Shuningdek, Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O'rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o'lkalarida ham aks-sado bergan. Vatanimizning o'sha davrlarda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma'naviyatimiz, falsafamiz jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

**Tayanch iboralar:** Davlat, Zardusht, Avesto, nmana, zantu, Moniy, Mazdak, Xorazm.

### Nazorat savollari

1. Avesto so'zining ma'nosi?
2. Zardushtning vatani qayer?
3. Zardushtiylik haqida kimlar ma'lumot qoldirganlar?
4. Moniy yashagan yillar?
5. Mazdak ta'limotining asosi?

# ISLOM DININING KELIB CHIQISHI VA SOTSIAL MOHIYATI

## REJA:

1. VI asr oxiri va VII asr boshlarida Arabiston yarimorolidagi ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyot darajasi.

2. Islomning vujudga kelishi, tarqalishi va uning sotsial mohiyati.

3. Islomda jamiyat haqidagi sotsial qarashlar.

**Maqsad:** Talabalar islom dinining paydo bo'lishi, uning mazmun- mohiyati, shariat, fiqh va hadis ilmining shakllanishi haqida ilmiy bilimga ega bo'ladilar. Shu bilan birga Islom dinining jamiyat ijtimoiy hayotida aks etishi va sotsial mohiyati anglab yetiladi .



Islom dinining paydo bo'lishi arafasida Arabistonning g'arbi O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'oqlarida, shimoliy Afrikada (Misrda) yakkaxudolikka asoslangan iudaizm (yahudiylilik) dini, shimolda Vizantiya (Hozirgi Turkiya) nasroniylik dini (xristian) mavjud edi. O'sha davrdagi tarixiy vaziyatda

arab qabilalari va shahar davlatlari aholisi oldida quyidagi sotsial vazifalar mavjud edi:

**birinchidan**, arablar hayotida urug'chilik, qabilachilik tizimi yemirilib, qulchilik bilan feodal tartiblari shakllanayotgan edi. Natijada arablar ijtimoiy turmushida tabaqalanish, sinfiy tengsizlik jarayonlari tezlashdi, yuqori sinflar orasida dabdabali to'y-ma'rakalar, aysh-ishratbozlik, isrofgarchilik, maishiy aynish avj oladi. Ayni paytda quyi sinf vakillari - kambag'al, yetim-yesirlar ahvoli og'ir edi;

**ikkinchidan**, arab qabilalarining bir qismi vodiy va vohalardagi qishloq hamda shaharlarda yashab, dehqonchilik,







hunarmandchilik va savdo ishlari bilan shug'ullanar va bu joylarda madaniyat ancha rivoj topgan edi. Savdo yo'lida joylashagan Makka va Madina shaharlari madaniyat va diniy markazlar edi. Biroq o'sha vaqtlarda arablarning ko'pchiligi sahrolarda yashab, chorvachilik bilan shug'ullanib ko'chmanchilik hayotida yashaganlar. Shaharlik va sahroyi-badaviy arablar orasida tez-tez talonchilik urushlari yuz berib turganligi tarixiy manbalarda ko'rsatilgan. Arablarda ularni tartibga solib turadigan markazlashgan kuchli davlat ham yo'q edi. Ana shunday kuchli davlat tuzish tarixiy zaruriyatga aylangan. Bu davlat ijtimoiy tarqoqlikka barham berib, arablarni birlashtirishi zarur edi;

**uchinchidan**, o'sha davrda arablarda g'oyaviy-mafkuraviy birlikning yo'qligi. Chunki, arab qabila va urug'lari turli-tuman dinlarga, diniy urf-odatlariga amal qilganlar, ayniqsa, ajdodlar ruhiga sig'inish, ayrim hayvonlarni ilohiylashtirish (totemizm), ayrim tog'lar, g'orlar, suv manbalari, daraxtlar, toshlar va g'ayritabiiy kuchlarga ishonish kuchli bo'lgan. Kun tartibida ko'p xudolik - mushrikiylikdan vahdoniyatga, ya'ni yakkaxudolikka o'tishdek muhim tarixiy vazifa turar edi;

**to'rtinchidan**, shahar va boy chorvadorlar orasida ijtimoiy-axloqiy og'ish(deviantlik) holatlari keng tarqalgan edi. Ayrim arab oilalarida qiz bolalarni yerga ko'mib tashlashdek dahshatli odat ham bor edi. Kun tartibida ana shunday ahvolga barham berish vazifasi ham mavjud edi.

Yuqorida sanab o'tilgan sotsial muammolarga barham berish uchun, avvalo, markazlashgan davlat va yagona din zaruriyati yangi dinning vujudga kelishini ta'minladi.

Islom dinining asoschisi Muhammad Ibn Abdulloh Saudiya Arabistonidagi Makka shahrida Quraysh qabilasining Xoshimiylar xonadonida, Al-Xorazmiy va al-Beruniylar ma'lumotlariga ko'ra milodiy yil hisobida 570 (571)- yil 20-aprelda tug'ilgan. Ilk islom manbalaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Muhammad «fil egalari yurishi» deb atalgan tarixiy voqeadan ellik kun keyin tavallud topgan. Islom an'anasida bu 1-«fil yili» rabi'-ul-avval oyining 12-kuni deb qabul qilingan. Yoshlik paytlarida bobosi Abdulmutallib va uning suhbatlarida



qatnashgan ulamolardan din to'g'risida ko'p saboq olgan edi. U bir necha yillar mobaynida muttasil ravishda diniy tafakkur va ibodat bilan shug'ullanib turgan. Muhammad ibn Abdulloh Makka yaqinidagi Hiro g'origa borib doimo ibodat qilar, bir necha kun-u tunlarni shu g'orda o'tkazish odati bo'lgan. Muhammad payg'ambar 610-yildan boshlab ya'ni, 40 yoshida Makkada aktiv Hanif sifatida islom dinini targ'ib qilib, hammani yangi dinga e'tiqod qilishga da'vat eta boshlagan.

Muhammad payg'ambarning Islom dini uchun olib borgan kurashi ikki davrga: Makka va Madina davrlariga bo'linadi.

Islomni Makka davridagi targ'iboti, mushrikiylikka qarshi olib borgan kurashi, milodiy 610-yilning 15 dan 16-avgustga o'tar kechasidan boshlanib, to 632- yilning 8-sentabrigacha, ya'ni 23 yil davom etgan.

Muhammad rasululloh targ'ibotiga dastlab yaqin qarindoshlaridan bir qismi ishonib, uning izdoshlariga aylanishdi. Islomni qabul etganlar safi kengayib bordi. Quraysh qabilasidagi yoshlarning bir qismi ham payg'ambarga ishonib islomni qabul etganlar. Muhammad payg'ambar dastlabki to'rt yilni yopiq targ'ibot usulidan foydalanib yashirin holda olib bordi. Uning safdoshlari doimo birga bo'lishar, to'y, aza, namoz-u ro'zalarda bir-birlarining ahvolidan xabar olishar, oila, mol-mulklari doimo bahamjihatlikda yashagan va tasarruf etilgani uchun ularni «mo'minlar jamoasi» deb atashgan. «Mo'min-musulmon» atamasi ana shu tariqa paydo bo'lgan.

Islom targ'iboti odamlarni yakka iloh Allohga imyon keltirishga, Ibrohim payg'ambar e'tiqodini tiklash, odamlarni halollikka, birovning haqqiga xiyonat qilmaslikka chaqirish kabi ezgu ishlardan tarkib topgan.

Makkada nozil bo'lgan suralar (90ta, ba'zi manbalarda 86 ta)da mol-dunyo ko'paytirishga intilib, odamgarchilikni unutadigan kishilar, odamlarni tarozidan aldab, yolg'on gapirib, firibgarlik qilib, pulga foyda olib, mol-dunyasini ko'paytiradigan qalblarning ishi qoralanadi. Beva-bechoralarga, yetim-yesirlarga g'amxo'rlik qilmaydigan, qo'l uzatgan gadoni haydaydigan qattiqqo'l, shafqatsiz, toshmehr odamlar tanqid qilinib, rahmdillik, insonlarga yordam qilish targ'ib etilgan.



Bunday umumbashariy va insoniy hislarga, ahloqiy halollik va poklikka da'vat, g'oyatda shirali va chiroyli qilib tilovat etilgan oyatlar, odamlarga kuchli ta'sir qilganligi sababli ular islomni qabul qiladilar, ularni bu yo'ldan jazo ham qaytara olmaydi, xususan, qullar islomni e'tiqodga aylantiradilar.

Eramizning 632-yili 8-iyunda Muhammad rasululloh o'z uyida vafot etadi. Bu davrga kelib musulmonlar davlati Yamandan Sinoy yarimoroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahrosigacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan katta mamlakat edi. Bu yerlarda Islom hukmron dinga aylandi.

Muhammad (s.a.v) vafotidan keyin uning o'rinbosarlari yoki noiblari (arabcha xalifalar) davlatni boshqara boshlaganlar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati «Arab xalifaligi» deb nom oldi va katta bir davlat barpo etildi.

Bosib olingan barcha hududlarda xalifalikka bo'ysunuvchi hokimliklar tashkil topdi, xalqlardan davlat hisobiga va mahalliy hokimiyat uchun o'nlab soliqlar, o'lponlar yig'ib olinardi. Ko'p shahar va qishloqlarda masjid, madrasalar, diniy maktablar, katta ruhoniylar maqbaralari, ko'plab qalandarxonalar vujudga kelib, islom urf-odatlarini va shariat dasturlari turmushga chuqur singib ketdi, yagona islom mafkurasi va «musulmon madaniyati» shakllandi.

Hozirgi zamonda islom jahon dinidan biri sifatida 125 davlatda tarqalgan, dunyoda 1,3 milliarddan ko'proq musulmonlar mavjud. Arabiston yarimorolida, Kichik Osiyoda, Shimoliy Afrikada, Osiyo qit'asida, Evropa, Amerika qit'alarida ham musulmonlar yashaydilar. Dunyoning 28 davlatida islom dini rasman davlat dini hisoblanadi. (Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Amirliklar, Quvayt va boshqalar).

Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim» bo'lib, u arabcha «qira'a»-o'qimoq, «qiroat qilish» ma'nosini beradi.

U 114 ta sura, 6236 oyatdan iborat. Suralar «oyatlar to'plami» («tizim, qator») ma'nosini bildiradi. «Oyat» so'zi faqat qur'oniy o'ziga xos ibora bo'lib, «mo''jiza», «ilohiy belgi» ma'nosini anglatadi.



«Qur'on» matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta «juz'» (o'zbekcha «pora») ga bo'lingan. Juz' - keyinchalik «Qur'on» matnini o'qishga oson bo'lishi uchun teppa-teng 30 ga bo'linganligidan paydo bo'lgan.

Masalan, «Qur'on»dagi eng katta 2-«al-Baqara» surasi ikki poradan ko'proq, keyingi 37 ta kichik suralar jamlanib bir poraga kiritilgan.

Suralar «Qur'on» da o'z mazmuniy izchilligiga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni muddatlar tartibiga qarab emas, balki hajmiga qarab joylashtirilgan. Bundan faqat bir necha sura mustasno. Masalan, faqat 7 ta oyatdan iborat 1-sura («Fotiha») oldinga joylashtirilgan, chunki bu sura mazmuni iymon uchun juda muhim hisoblanadi.

Suralardan 90 tasi Makka davrida va 24 tasi Madina davrida nozil bo'lgan. «Qur'on» da diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar: qabila-urug'chilik hayot tarziga xos an'ana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-axloqiy qonun va qoidalar, jumladan, oila-nikoh, ajdodlar va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorisilik, savdosotiq va qarz muammolariga xos ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan. «Qur'on» ning insof, vijdon, halollik kabi axloqiy ta'limotlari umumbashariy qadriyat hisoblanadi.

### **Islom dinining aqidalari quyidagilardan iborat:**

1) Iymon, ya'ni yakka Allohdan boshqa iloh yo'qligiga ishonish;

2) Farishtalarga ishonish, ularni Alloh olovdan yaratgan jonsiz, ko'zga ko'rinmaydigan ruhlar, deb tasavvur etiladi. Farishtalar Allohga itoat etadilar, uning xizmatini bajaradilar, deb ishonadilar;


3) Muqaddas kitoblarga ishonish va ulardagi ko'rsatmalarga amal qilish;

4) Payg'ambarlarga va Muhammad(s.a.v)ning Allohning elchisi ekanligiga ishonish;

5) Oxiratdagi va boqiy dunyodagi hayotga ishonish. «Qur'on» da, oxiratda o'lganlar tiriladi, xudo ularni so'roq qilib gunohkorlar do'zaxda azob tortishga, savob ish qilganlar esa jannatda abadiy rohat-farog'atda hayot kechirishiga hukm qilishi aytiladi. Bu dunyo foni, ya'ni o'tkinchi, aldamchi, bir lahzali, asosiy hayot esa boqiy dunyoda ekanligi ta'kidlanib, har bir kishi







sabr-toqatli, insofli, adolatli bo'lib, savob amalar qilishi kerak, ana shundagina jannat hayoti unga nasib etadi, deydilar;

6) Inson taqdirining xudo tomonidan oldindan belgilab (peshonasiga yozib) qo'yilganligi to'g'risidagi tasavvurlar. Bu aqidaga ko'ra xudo hamma narsalar ustidan, shu jumladan, odamlarning taqdiri ustidan ham to'la hukmronlik qiladi. Insonda xohish va iroda erkinligi yo'q bo'lib, inson faqat xudo xohlaganini, peshonasiga yozilganini ko'radi, degan g'oya ilgari suriladi. Bu aqida ijtimoiy munosabatlarga tegishli bo'lib, islom olamida ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan;

7) Islomning oxirgi aqidasi - bu o'lgandan keyin tirilishga ishonishdir. Bu aqidaning vujudga kelishida qadim dunyodagi animizm va avlodlar ruhiga sig'inish dinlarining bevosita ta'siri sezilib turadi. Islomdagi Shia musulmonlari e'tiqodi beshta aqida: tavhid (yakka xudolik), adl (adolat), nubuvvat (payg'ambarlik), imomat (imomlar hokimiyati) va qiyomat (oxirat kunining kelishi va o'lganlarning tirilishi)ni tan olishdan iborat.

«Qur'on» islomda yakka-yu yagona manba hisoblanadi, hadis esa Muhammad payg'ambarning hayot yo'li, u aytgan hikmatlari, ibratli xabarlar, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari, uning va sahobalarining yaxshi ishlari, o'git va nasihatlaridan iborat to'plamdir. Hadislarni dastlab Muhammad(s.a.v)ning qarindoshlari, xalifalar, sahobalar ishlatgan, ya'ni ular biron-bir ko'rsatmani (avvalo, huquqiy xarakterdagi ko'rsatmani) qonunlashtirish uchun o'zlari undan eshitgan so'zlarni dalil qilib keltirganlar. VII-IX asrlarda ming-minglab hadislar to'plangan yoki to'qilgan. Hadisshunoslik savob ish hisoblangan, hadislarni to'plash mustaqil bilimga aylangan, bu ishga ixtisoslashgan ilohiyot peshvolari esa muhaddislar, deb atalganlar.

Hadislarning aksariyati sotsial masalalarni qamrab olar, hamda unda huquqiy va axloqiy normalar, marosim va urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, kasb-kor, savdo-sotiq, ilm, ota-ona, farzand, qarindosh-urug', do'stlik, yaxshilik yoki yomonlikka oid bo'lgan, ammo tarixiy mazmunga ega bo'lgan.

Hadislarni yetkazgan kishilar ishonchli bo'lsa, bu hadis yaxshi (hasan) deb atalgan. Ishonchli bo'lmagan shaxslar yetkazgan hadislar bo'sh (zaif) deb atalgan.

Shariat musulmon davlati qonunchiligi, sotsial-ahloqiy qarashlarning majmui hisoblangan. Shariat-arabcha «to'g'ri yo'l»,

«ilohiy belgilab berilgan yo'l» demakdir. Shariat - islom qonun-qoidalariga, moddiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarida musulmonlar bajarishi lozim deb belgilangan, ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik, axloqiy va diniy faoliyat va hatti-harakatlar bo'yicha qonun-qoidalar va me'yorlar majmuasidir. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, u faqat huquq va qonunchilikka xos masalalar bilan cheklanib qolmay, u axloq va diniy marosimchilik masalalarini ham o'z ichiga oladi. Musulmonlar uchun bajarish farz, ya'ni majbur hisoblangan dasturlarni belgilab beradi va ularni diniy qonun tusiga kiritadi. Shuni hisobga olganda, shariatni faqat shartli ravishda diniy huquq tizimi deb atash mumkin.


Shariat insonning huquqiy, axloqiy va diniy hayotini qattiq nazoratga oladi, u hatto insonning shaxsiy va oilaviy hayoti, kundalik turmushiga oid barcha masalalarni ham o'z tasarrufiga oladi hamda ularni diniy qoidalar darajasiga ko'taradi. Shariat feodal tizimdagi ijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya, ruxsat etilgan va qat'iy ta'qiqlangan hatti-harakatlar: oila, nikoh va taloq masalalari, savdoda oldi-sotdi tartibi va mulkiy munosabatlar, jinoiy harakatlar va jazolash me'yorlari kabi bir butun, yaxlit tizimdir. Shariat va uning qoidalari islomda Alloh tomonidan belgilab berilgan ilohiy yo'l bo'lganligi uchun u muqaddas hisoblanadi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, Muhammad payg'ambar diniy jamoada yakka hukmdor sifatida - ham hokim, ham qozi, ham lashkarboshi, ham bosh imom bo'lib, u Alloh nomidan musulmonlarning oilaviy va shaxsiy muammolarini o'zi hal etgan, musulmonlarga pand-nasihat qilgan, yo'l-yo'riq ko'rsatgan. Ana shular keyinchalik hadislariga kiritilgan, ular shariat dasturlari, qonunlari darajasiga ko'tarilgan.

Shariat VIII-XIII asrlar davomida asta-sekin shakllandi. «Qur'on», hadis (sunna), ijmo' va qiyos shariat manbalari hisoblanadi.

Ijmo' - diniy jamoa fikri (arabcha-ijmo' al-umma) bo'lib, «Qur'on» va hadislariga asoslangan, ammo alohida vaziyat yoki shart-sharoitni hisobga olib chiqariladigan ulamolar hukmi edi.

Qiyos - kengayib ketgan, ichki nizolar kuchayib borayotgan xalifalikda shariatga asos qilib olingan to'rtinchi manba edi. «Qur'on» va hadislardan topilmagan ko'rsatmalar o'rniga





ulamolar bergan fatvo o'tgan. Qiyos - mantiqiy taqqoslash yo'li bilan biror masala bo'yicha hukm chiqarish usulidir.

Ijmo' bilan qiyos qabul qilingach, mahalliy va markazdagi humdorlar shariatni o'z xohish-irodalariga qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada islomning Muhammad payg'ambar davridagi ko'p talablari buzildi.

Shariatni yaratish jarayonida fiqh kategoriyalari ishlab chiqildi. Bular:

1. «Farz» - bunga bevosita «Qur'on»da ko'rsatilgan har qanday holda ham bajarilishi majbur bo'lgan harakatlar kiradi. Farz deb belgilangan talablarni bajara olmaslik qattiq gunoh hisoblanadi. Masalan, har bir musulmon kalimai shahodat keltirishi, namoz o'qishi, ro'za tutishi, zakot to'lashi, haj qilishi farz majburiyatlaridandir;

2. «Mandub» - (tavsiya qilingan, lozim deb tayinlangan) oddiy tilda «Sunnat». Bunga bajarish tavsiya etiladigan harakatlar kiradi, bajarish savob, lekin bajaril-maganda gunoh hisoblanadi. Masalan, qurbonlik marosimi o'tkazish, sadaqa ulashish, aziz joylarga borish;

3. «Muboh» - bunga har bir shaxs ixtiyori bilan bajarsa bo'laveradigan hatti-harakatlar kiradi, ular savob ham, gunoh ham hisoblanmaydi. Masalan, o'lganlar ruhiga chiroq (sham) yoqish. Bibi seshanba, mushkulkushot o'tkazish;

4. «Makruh» deb ataladigan kategoriyaga nolozim hisoblanadigan hatti-harakatlar kiradi. Makruh ishni qilish nolozim hisoblanadi, lekin gunoh hisoblan-maydi. Masalan, xotinni taloq qilish, emizadigan bolasi bor ayollarni ro'za tutmasligi kabi;

5. «Harom» yoki «Mahzur» deb ataladigan kategoriyaga shariatda qat'iy ravishda ta'qiqlangan hatti-harakatlar kiradi. Masalan, islomdan chiqib boshqa dinni qabul qilish, birovning haqqini o'zlashtirib yuborish, zino qilish, zakot to'lamaslik kabilar. Harom ishlarga yo'l qo'ygan shaxs gunohkor hisoblanib, unga jazo qo'llanishi mumkin.

O'rta asrlar davrida yangi kategoriya ishlab chiqilib «Vojib» deb atalgan. «Vojib» xalifalar, podsholar, amirlar, sultonlar va boshqa hukmdorlarning farmon va buyruqlarini bajarish majburligini va zarurligini anglatgan. «Vojib» Alloh buyruqlaridan keyin, ya'ni Muhammad (s.a.v.) ko'rsatmalaridan





avvalgi o'ringa qo'yilgan. Vojibni «Amri vojib» deb ham aytiladi. Shohning aytgani Allohning aytgani, degan ma'noda ishlatilgan. Shariat islom rasmiy din hisoblanadigan davlatlarda hozir ham o'z kuchiga ega. Masalan, Eron Islom respublikasida 1979-yildan boshlab shariat rasmiy kuchga ega. Lekin islom davlatdan ajratilgan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (31,61-moddalar) shariat qonunlari rasmiy kuchga ega emas, ammo shariatning axloqiy talablari, ayrim holatlarda ijtimoiy-mulkiy, oila-nikoh talablari hamon an'anaviy kuchga egadir.


Islomda «Qur'on», shariat, hadislarida sotsial hayot tarzi bilan bog'liq juda ko'plab ko'rsatmalar berilgan bo'lib, unda inson, uning hayoti va hayotining mazmuni, mehnat, uning ahamiyati, boshqa dindagi xalqlarga munosabat, xotin-qizlar, oila-nikoh, odamlarning jamoat joylaridagi sotsial munosabatlar, me'yorlar va boshqa ko'pgina masalalar axloqiy jihatdan qanday bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Masalan, «Qur'on» ning 4-sura 33-oyatida: «O'z-o'zingizni o'ldirmangiz», yoki 6-suraning 152-158-oyatlarida «Ota-onangizga muruvvat qilinglar, ifloslikka (buzuqchilikka) ochiq ham, yashirin ham yaqinlashmangiz, odam o'ldirmangiz» deyiladi.

Ijtimoiy tamoyillar, oddiy kundalik me'yorlar, har qanday dindan avvalroq ibtidoiy jamiyatning yuqori bosqichlarida vujudga kelgan dinlar, shu jumladan, islom dini ham ana shu sotsial yutuqlarni o'z mazmuni, maqsadi va yo'nalishiga asosan qayta ishlab va unga o'ziga xos bo'lgan yangi tamoyil va me'yorlarni qo'shib musulmonlarga Alloh va payg'ambar nomidan taqdim etadi.

Shariatda mulkka munosabat ham belgilab qo'yilgan. Masalan, yerga egalik shakli shariatga ko'ra uchta: podsholik mulki, xususiy mulk, vaqf mulki kabilardan iboratdir. Xalifa butun mamlakatning mulkiga xo'jayin bo'lmasada, barcha mulk amalda uniki hisoblanadi. Davlat yer mulkida yersiz dehqonlar ma'lum shartnoma asosida ishlaganlar.

Vaqf mulkiga yerlar, savdo rastalari, objuvozlar, bog'lar, karvon saroylar, barcha masjid, madrasa, maqbara, diniy maktablar, mozorlar atrofidagi joylar, diniy yozuvlar kirgan.

Shariatni amalga oshirish qozilar va ularning ixtiyorida bo'lgan qozilik mahkamasi qo'lida edi. Shariat ta'qiqlari, majburiyatlarini xalq qanday bajarayotganligini mahalliy



ruhoniylar, qozi, imom, ulamo, uyboshi, ellikboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar nazorat qilingan. Shariatda jinoyatni turlarga ajratib jazo belgilanadi. Birinchi xildagi jinoyat qonli jinoyat bo'lib, unga birovni o'ldirish yoki yarador qilish, o'g'irlik yoki qaroqchilik kabilar kirib, ular og'ir jinoyat hisoblanadi. Bunday jinoyatga yo'l qo'ygan shaxs o'limga yoki og'ir tan jazosiga hukm qilinadi; ikkinchi xildagi jinoyatga dindand qaytish, zino qilish, o'g'irlik, qaroqchilik kirib, bu hollarda ham aybdor kishi o'lim jazosi olgan.

Uchinchi xil jinoyatga shariatga nolozim ishlar kiradi: sababsiz namoz o'qimaslik, ro'za tutmaslik, birovga tuhmat qilish, birovlar haqini yeb yuborish, qimor o'ynash, kayf qilish, zakot to'lamaslik, din peshvolarini haqoratlash. Bu jinoyatlar zindonga solish, qamchi bilan savalash, mol-mulkini musodara qilish bilan jazolangan.

Islomning boshqa dinlardan keskin farqi unda asrlar bo'yi xalq ommasi hayotiga keng singib ketgan, barchani o'z ta'siriga olgan, jamotchilik fikri va ijtimoiy psixologiyaga ta'sir qilib, turmush tarzi belgilangan, tartib-intizomga solib, odamlarni kollektivchilik, hamkorlikka o'rgatgan, musulmonlarning dunyoqarashi va iymon-e'tiqodini kengaytirib borgan tenglik haqidagi g'oyalarning ko'pligidir.

**Tayanch iboralar:** Islom, Alloh, hadis, shariat, sunnat, farz, namoz, payg'ambar.

### Nazorat savollari

1. Sharqning ijtimoiy-siyosiy hayotini izohlang?
2. Islom yuzaga kelishining sotsial omillari?
3. Islomning sotsial maqsadi?
4. Ijtimoiy funksiyasi?
5. Islom va jamiyat?
6. Islom yoyilishining sotsial sabablari?
7. Jamiyatning sotsial muammolari?
8. Islom va shaxs?
9. Shaxsning sotsial shakllanishida islomning roli?



## IX-XII ASRLAR MARKAZIY OSIYO UYG'ONISH DAVRI VA SOTSIAL TA'LIMOTLAR

### REJA:

1. IX – XII asrda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy – iqtisodiy hayot.

2. «Ma'mun akademiyasi» va Al-Xorazmiyda ijtimoiy tafakkur masalalari.


3. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Koshg'ariy asarlarida sotsial masalalar.

4. Abu Bakr Ar-Roziy (865 - 925) ilmiy merosi va dunyoqarashi.

*Maqsad: Talabalarga Markaziy Osiyodagi ilk uygo'nish davrining sotsial xususiyatlari, vujudga kelish sabablarini tushuntirish. Shu bilan birga buyuk allomalarni ilmiy merosini tanishtirish hamda ularning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*



VIII asrning oxiri va IX asrning boshlariga kelib, Arab xalifalarining markazi Bag'dodda madaniy-ma'rifiy hayot ancha yuksalib, unda ilm-fan kuchli rivojlana boshlaydi. Bu shaharda tashkil topgan «Dor ul-hikma»-«Donolar uyi» da yahudiy, xristian va islom olimlari birgalikda ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar. Xususan, qadimgi sharq mutafakkirlari, yunon va rim olimlarining asarlari arab tiliga tarjima qilinib, ularga sharhlar yozilgan. Bu ishlar, ayniqsa, xalifa Xorun ar-Rashid davri va udan



keyingi al-Ma'mun xalifaligi davrlarida juda avj oladi. Al-Ma'mun otasi davrida xalifalikning Markaziy Osiyo bo'yicha vakili sifatida Marvda noib edi. U otasi vafotidan so'ng uning o'miga xalifa bo'lgach, barcha musulmon o'lkalaridan, shu jumladan, Markaziy Osiyodan ham olim-u ulamolarni Bag'dodga jalb qilib, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Xususan, uning taklifiga ko'ra Bag'dodda bu davrda Markaziy Osiyodan kelgan vatandoshlarimiz Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Marvaziy, Javhariy kabi buyuk olimlar faoliyat ko'rsatib, bu davr jahon ilm-fani, madaniyat va falsafasiga katta hissa qo'shishadi.

IX asrning oxirlariga kelib, Markaziy Osiyo hududlarida arab xalifaligining ta'siri susayib, bu hudud xalqlari mustaqillikka erisha boshlaydilar. Mustaqillikka erishgan joylarda bir necha mustaqil davlatlar paydo bo'ladi. Bu mustaqil davlatlar: Somoniylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar kabi feodal davlatlari bo'lib, ular o'rtasida o'zaro savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy munosabatlar rivojlanadi, natijada, ushbu hududda Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch, Xiva kabi shaharlar madaniyat va ma'rifat markazlariga aylandilar. Shaharlarda madaniy va ma'naviy hayot yuksalib, ilm-fan, san'at va madaniyat gurkirab rivojlana boshlaydi. Bu madaniy va ma'naviy markazlarda o'zaro va boshqa musulmon Sharqining turli shaharlari o'rtasida savdo-sotiq, ijtimoiy, madaniy aloqalar kuchayadi, ularda ilm-fan o'choqlari: maktablar, madrasalar ochiladi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu mustaqil davlatlar boshqa musulmon o'lkalari davlatlari bilan o'zaro yaxshi diplomatik aloqalar o'rnatishlari tufayli Markaziy Osiyodan ko'plab yoshlar Bag'dod, Basra, Qohira, va Damashq kabi shaharlarga, Sharqning boshqa o'lkalaridan Buxoro, Samarqand, Marv shaharlari madrasalariga o'qishga kelishib, ilm olishadi. Natijada, bu davrda Markaziy Osiyo xalqlaridan jahonga mashhur juda ko'p buyuk mutafakkirlar: olimlar, san'atkorlar, shoirlar yetishib chiqishadi. Ayni shu davrda Markaziy Osiyodan jahonga mashhur islom va hadis ilmi namoyondalari: Ismoil al-Buxoriy, Iso at-Termiziy; qomusiy allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu

Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino; islom fiqhshunosi Marg'inoniy, tilshunos allomalar: az-Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariylar yashab ijod etishadi.


X asrning oxiri-XI asrning boshlarida Xorazmda ilm-fan, madaniyat va san'at kuchli rivojlanadi. Bunda Xorazmshohlarning avlodlaridan bo'lgan shoh Ma'mun boshchiligida Markaziy Osiyoda birinchi akademiya-Ma'mun akademiyasi tashkil topib, unga Abu Rayhon Beruniy boshchilik qiladi. Bu akademiya shu davrning buyuk olimlari, xususan, Abu ali Ibn Sino ham jalb qilinadi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan bu mustaqil feodal davlatlarda ular o'rtasida o'zaro urushlar, har xil to'qnashuvlar bo'lib turishiga qaramay bu davrda me'morchilik, qurilish ishlari, hunarmandchilik, obodonchilik, madaniy-ma'naviy aloqalar kuchayib, ular madaniy yuksalib borishadi. Bunday madaniy yuksalishlar, avvalo, ularning arab mustamlakachiligidan qutilishlari, bu xalqlar mustaqil davlatlarining vujudga kelishi, o'zlarining milliy madaniyatlarini qayta tiklashlari, boshqa musulmon Sharqi o'lkalari davlatlari bilan madaniy aloqalarining yaxshi yo'lga qo'yilishi tufayli sodir bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi bu madaniy yuksalish VIII-IX asrlarda arab xalqlarida yuz bergan madaniy yuksalish kabi bu hudud xalqlari hayotida ham sodir bo'lgan o'ziga xos uyg'onish davri edi.

Ma'lumki, g'arb adabiyotlarida Ovro'pa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVII asrlar Renessans-Uyg'onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko'pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo'lganligidan ko'z yumadilar. Xolbuki, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Ovro'padan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Ovro'padagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya'ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirdi va Ovro'pa Renessansining vujudga kelishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Shuning uchun IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg'onish davri, aniqrog'i, Uyg'onish davri deb





Ustiga ham to'la asosimiz bor. Bu ilk Uyg'onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ovro'po mamlakatlaridan farqli o'laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma'naviyatga, Uyg'onish davri madaniyatiga xos quyidagi tomonlarni qayd etib o'tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy masalalarga qiziqish;

- insonni Yaratuvchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug'lash, unga ishonch bildirish, targ'ib-tashviq etish, ularni Yaratuvchining eng ulug' va yuksak ijodi deb baholash, ma'rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;

- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma'naviyatga intilishiga yo'l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlda, axloqda, ma'naviyatda yetuk bo'lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do'stlik, o'zaro yordam, ko'maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;

- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, o'zaro kelishuv, birlikka ega bo'lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta'minlaydi;

- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi-bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma'rifatli, ilmi, axloqli bo'lish, jamoani kelishib boshqara olishiga bog'liqdir. Ma'rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta'limotlarining muhim xislatidir.

XIII asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo'g'ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o'ziga bo'sundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, deyarli ikki yil davomida Movarounnahr



ham bosib olindi, ko'p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olim-u fozilar o'ldirildi, boshqa mamlakatlarga quvg'in bo'ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tutdi.

Lekin ilk Uyg'onish, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so'nggi ma'naviy rivojida o'chmas iz qoldirdi. Madaniy yuksalish XIV-XV asrlarda mo'g'ul mustamlakachiligidan qutilib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bog'liq holda yana bir bor yuz berganini ko'ramiz.

Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**birinchidan**, odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, fan-ta'lim, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

**ikkinchidan**, olamni bilishga intilishning kuchayishi, tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojlanishi, inson bilimni yuksaltirishga intilish;


**uchinchidan**, insonga xos tabiiy, badiiy, ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug'lash, oliy umuminsoniy qonuniyatlarning yuksalishi;

**to'rtinchidan**, ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridan edi.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari o'rtasida madaniy qadriyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy boyliklar, turli xalqlarning an'analari, tili va tarixini o'rganish, bilishning eng to'g'ri yo'llari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun apparatini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning optika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur o'rganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi. Sharq olimlarining matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari ma'lum. Odatda tabib, munajjim, sayyoh bo'lgan Sharq faylasuflari asbtrakt







mulohazalardan ko'ra ko'proq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar.

Arablarning Xuroson, Movarounnahr va Xorazmda islom dini bilan bir qatorda arab tili, arab alifbosini ham joriy qilishi, arab tilining davlat tili deb e'lon qilinishi mahalliy tilda yozilgan asarlar yo'q qilinishiga olib keldi. Mahalliy bilimdonlar quvg'in ostiga olindi. Arab tili, islom va «Qur'oni Karim»ni yaxshi egallagan shaxslarning jamiyatdagi nufuzi oshdi. Bu arab tiliga nisbatan hayotiy ehtiyojni kuchaytirdi. Movarounnahr va Xorazmda ham hatto o'z ona tiliga nisbatan arab tilini yaxshi bilgan tolibi ilmlar borgan sayin ko'payib bordilar. Arab tili va islom dini bo'yicha mukammal bilim va malakaga ega bo'lganlarning arab xalifaligining markaziy shaharlariga borib o'qishi odat tusiga, an'anaga aylandi.

Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa, Basra singari katta shaharlarda Movarounnahr va Xorazmdan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimiz soni borgan sayin ko'payib bordi. Xususan, bu borada Bag'dod shahri Sharqning ilm-ma'rifat markazi sifatida katta ahamiyat kasb etdi. 998 - yili Ma'mun I vafot etib, o'rniga Ali ibn Ma'mun taxtga o'tirganidan keyin Xorazmdagi siyosiy ahvol barqarorlashadi. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, uning otasiyoq Gurganchga Xorazmning barcha ilmiy salohiyatini mujassamlashtirishga uringan. Keyinchalik bu ishni Ali ibn Ma'mun sharaf bilan davom ettirdi. Ali ibn Ma'mun ana shunday og'ir siyosiy muhitda dono va zukko maslahatchilarga muhtoj edi. Uning baxtiga tog'asi Abu Nasr ibn Iroq o'z davrining o'ta bilimdon olimi edi. Undan tashqari Abu Nasr, Beruniyni o'z xonadonida tarbiyalab, yetishtirgan. Ushbu ikki mutafakkir Iroqiylar saroyida ilm ahli uchun ideal sharoit yaratadi. Bu ikki shaxs Yaqin va O'rta sharqdagi ko'plab olimlar bilan shaxsiy yozishmalar olib borganlar. Buning ustiga X asr oxiriga kelib Somoniylar sulolasiga barham berilishi natijasida, ibn Iroq va Beruniylarning takliflari bilan 1004-yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda «Dorul hikma va maorif» nomini olgan



ilmiy muassasa to'la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag'doddagi «Bayt ul-Hikma» dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, bu muassasada suryon va yunon tillaridan ba'zi tarjimalar ham bajarilgan. Ali ibn Ma'mun vafotidan keyin (1009-yil) uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun xorazmshohlar taxtini egallaydi. U Beruniyini saroyga yaqinlashtiradi va o'ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi. Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun yanada kattaroq imkoniyatlar ochiladi. XVIII asrda fransuz ensiklopedistlari xalifa al-Ma'mun haqidagi maqolalarida uning va Bag'doddagi «Bayt ul-Hikma» ning faoliyatini har tomonlama sinchkovlik bilan tahlil qilib, Afinadagi Platon Akademiyasiga juda o'xshashligini e'tirof etganlar va «Bayt ul-Hikma» ni «Al-Ma'mun akademiyasi» deb ataganlar.

XX asrda Abu Rayhon Beruniy ijodini o'rganish munosabati bilan Abul Abbas Ma'mun II atrofidagi ilmiy muassasa ham har tomonlama o'rganildi va bu muassasa ko'p tarafdin Bag'doddagi «Bayt ul-Hikma» ga o'xshashligi va u ham o'z davrining akademiyasi ekanligi isbotlandi, unga «Ma'mun akademiyasi» nomi berildi. Ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra, akademianing faoliyat ko'rsata boshlagan davri, ya'ni olimlar to'la yig'ilib, ilmiy izlanishlar olib borilgan davri 1004-yilga to'g'ri keladi. Ko'hna Urganchdagi «Majlisi ulamo» ilm dargohi bo'libgina qolmasdan, balki barcha ilmlar bilan shug'ullanuvchi akademiyalardan biri hisoblangan.

Mustaqillik yillarida ya'ni, 1997-yil 10-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Xiva shahrida Xorazm Ma'mun Akademiyasi qaytadan tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risidagida» gi farmoni O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon ilmiy hamjamiyatidagi o'rmini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish hamda is'tedodli va fidoiy olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muhit yaratishdagi milliy an'analarni rivojlantirish maqsadida amalga oshirildi.




Ilk uyg'onish davrining yetuk allomalaridan biri **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** yaqin va O'rta Sharqda ilk uyg'onish davrining ilm-fan va madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olimlardan biridir. Muhammad

ibn Muso al-Xorazmiy 783-yili Xorazmda dunyoga keldi. Xorazmda qomusiy olim sifatida shakllandi, voyaga yetdi va o'z ijodini shu yerda butun jahonga tanitdi. Al-Xorazmiyning yoshlik yillari haqida ma'lumot deyarli saqlanib qolmagan. U Beruniy, ibn Sino bilan bir davrda yashadi va o'zining beqiyos ilmiy asarlarini yaratdi.

Ayniqsa, uning sotsial siyosiy qarashlari e'tiborga loyiqdir. Muso al-Xorazmiyning ko'p qirrali ilmiy qiziqishlari matematika, nazariy va amaliy astronomiya, geografiya, geometriya, tarix va boshqa ko'plab fanlarga oiddir. Uning nomini tarixda qoldirgan asarlaridan biri- «Al-jabr val-muqobala» (Tenglamalar va qarshilantirish) dir. Bu asar bir necha asrlar davomida g'arb va sharq olimlariga algebra fani bo'yicha dasturiy amal bo'lib xizmat qildi, «Algoritm» va «Algebra» degan atamalar Xorazmiy nomi bilan bog'liqdir. Xorazmiy ilmiy bilimlarni rivojlantirish va sistemalashtirishga alohida e'tibor bergan. Uning fikricha, ilmiy bilim va tadqiqotlar o'z tarixiga ega bo'lib, vorislik asosida rivojlanib boradi. Xorazmiy ilm -fan kishilariga katta hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'ldi. Ularning vazifalari xilma-xil ekanligini ko'rsatdi. Uning fikricha, olimlarning bir qismi fan sirlarini kashf etadi, erishgan yutuqlarini kelgusi avlodlarga me'ros qilib qoldiradi. Olimlarning ikkinchi qismi erishilgan ilmiy yutuqlarni tushuntiradi, izohlaydi, sharhlaydi, ularni to'ldiradi va keng ommalashtiradi. Nihoyat, olimlarning uchinchi qismi o'tmishdagi olimlar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni tuzatib, shu asosda ilmiy an'analarni davom ettiradilar. Xorazmiyning bunday qarashlarida ilmiy bilim bosqichlari, ilmiy faoliyatning ko'p qirrali va mashaqqatli xarakteri g'oyat tushinarli tarzda bayon etilgan. Xorazmiy nafaqat






buyuk matematik, balki astranomiya, geografiya va tarix fanlarining etuk bilimdoni, tabiatshunos, faylasuf sifatida ham ma'lum va mashhurdir. Xorazmiy maxsus asar yozgan bo'lmasada, uning matematika, geometriya, astranomiya, geografiya, tarix va musiqa ilmiga oid barcha kitoblarida ilgari surilgan va ilmiy isbotlangan falsafiy fikr va mulohazalar, falsafiy g'oya, nazariya va ta'limotlar son-sanoqsizdir. Eski narsa o'rnini yangisi, o'layotgan narsa o'rnini tug'ilyotgan narsa egallashi uning ta'limotida tabiiy qonuniy jarayon hisoblanadi. Xorazmiy dunyodagi har bir narsa va hodisa mohiyatida o'zaro bir-birini taqazo etadigan, bir-birisiz yashay olmaydigan ikki qutb, ikki qarama-qarshi tomon mavjuddir, taraqqiyot ular o'rtasidagi dialektik birlik va kurash orqali amalga oshadi, deb ko'rsatadi.

U moddiy dunyoning abadiyligini, uning nihoyatda murakkabligi, doimiy ravishda o'zgarib va rivojlanib borishni ta'kidlaydi. Inson o'zining tirishqoqligi, mehnati va amaliy faoliyati, Alloh ato etgan aql-idrok, qobiliyat va iste'dodi bilan dunyoni sekin-asta bilib boradi, bugun bilmagan narsani ertaga muqarrar ravishda bilib, o'zlashtirib oladi, deydi. Ayni paytda u insonni bilim subekti, tabiat, jamiyat, umuman, moddiy olamni esa uning obekti deb biladi. Xorazmiy hissiy va aqliy bilimning o'ziga xos xususiyatlarining mohiyatini, o'zaro aloqadorligini alohida ta'kidlaydi. Uning aytishicha aqliy bilim hissiy bilimsiz vujudga kelmaydi.

Hissiy bilim borliqning tashqi tomonlari haqida bilim berish manbaidir. Aqliy bilim yordamida esa inson narsa va hodisalarning murakkab ichki tuzilishi, mohiyati va qonuniyatini bilib oladi. Aqliy bilim inson bilish rivojining yuqori bosqichidir. Bunda biz Xorazmiyning aqliy bilim masalalariga alohida e'tibor berganligini ko'rib turibmiz. Bilimda inson aql va amaliyot ahamiyatini ko'rsatganligi buyuk vatandoshimizning ajoyib xizmatlaridan hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning, odob-axloqning, islom dini, shariat qonuniyatlarining katta o'rin tutishi haqida alloma tomonidan bayon etilgan fikrlar hozirgi davr uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk vatandoshimiz Muhammad Muso al-Xorazmiyning nodir asarlari, yaratgan ta'limoti, ijtimoiy-falsafiy

qarashlari hozirgi avlod uchun bitmas-tuganmas xazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaho ma'naviy boylikdir. Mamlakatimizda 1983- yili al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

Al-Xorazmiy o'z ijodiy ishlarida birinchi o'ringa xalq manfaatlarini qo'ydi va e'tiborini uning amaliy hayotiy ahamiyatiga qaratdi. Uning algebra, arifmetika, matematika, geometriyaga oid asarlari asrlar davomida taqsimlashda, vasiyatnomalar tuzishda, mol-mulkni o'zaro bo'lib olishda, sud ishlari, savdo-sotiq muammolari, shuningdek, yerlarni o'lchashda, kanallarni qazish, bino qurishda katta xizmat qildi. Umuman olganda, «al-Xorazmiy o'z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, barcha davrlarning ham eng buyuklaridan biri»<sup>1</sup>dir.



Turkiy tilda birinchi yirik hajmli adabiy-marifiy asar yozgan adib **Yusuf Xos Xojib** dir. U o'zining bizga malum bo'lgan yagona didaktik badiy-falsafiy asari «Qutadg'u bilig» (Saodatga boshlovchi bilim) nomli asari bilan jahonga mashhur bo'lgan.

Adabiyotshunos olim Qayumjon Karimov Yusuf Hos Hojibning dunyoga kelishi va ulug' bir siymo sifatida tanilishi

ob'ektiv hayotiy va qonuniy zarurat bo'lganligini quyidagicha ifoda etadi: «O'sha vaqtda yagona qo'l ostida birlashgan ulkan davlatni boshqarish, hayotni to'g'ri izga solish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib beruvchi donishmand kerak edi. Shunday kishi topildi. Bu Yusuf edi. U o'z davri o'rtaga tashlagan dolzarb masalalarga ziyrak ko'z bilan qaradi. Shu bois uning 13500 misradan iborat keng hajmli «Qudag'u bilig» nomli chuqur g'oyaviy-falsafiy didaktik asari maydonga keldi. Ulug' olim o'ta ziyraklik va donishmandlik bilan ziyolilar, dehqonlar, chorvadorlar, kosib-hunarmandlar, savdogarlar, kambag'al-qashshoqlar va boshqa

<sup>1</sup> Буюк истеъдод сохиблари. Тошкент.: Адолат, 2002. –Б.14.

<sup>1</sup> Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси



barcha ijtimoiy guruh, toifa va tabaqalarning hayot tarzlari, dunyoqarashlari, odatlari, axloqlari haqida falsafiy mulohazalar sistemasini yaratdi.

Falakkiyot, geografiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, ijtimoiyot kabi fanlardan ma'lumotli bo'lishni targ'ib-tashviq etgan.

Yusuf Hos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 4 tayanch unsur asosiga qurilgan:

Biri to'g'rilikka tayanch adolat,

Biri davlat erur o'qutli g'oyat,

Uchinchi ulug'lik Aql va zako,

To'rtinchi qanoat erur bebaxo.

Bularning har biri alohida nomga ega.

Adolat-Kuntug'di. Davlat-Oyto'ldi. Aql-O'gdulmish.

Qanoat-O'zg'urmish.

Asarda ko'tarilgan barcha muammo va masalalar yechimi ana shular orasida bo'lib o'tadigan baxs-munozara, savol-javob asosida beriladi.




### **Mahmud Qoshg'ariy**

- turkiy xalqlarning qomusiy olimi. Uning hayoti va ijod faoliyati to'g'risida yetarli ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Shu bois olimning tug'ilgan yili va vafoti sanasi ham ma'lum emas. Bobosi Muhammad va otasi Husayn Qoshg'ardagi Beregon

shahridan bo'lgan. Qoshg'ariylar oilasi Bolasog'unga ko'chib kelishganda Mahmud hali yosh edi. Bo'lajak olim o'z davrining madaniy-ilmiy markazlaridan bo'lgan bu shaharda o'qidi, arab, fors tillarini o'rgandi. U yoshlik chog'ida xalq jonli tilidagi so'z va iboralarni, hikmatli so'z va maqollarni astoydil o'rgandi, ularni qunt bilan yozib bordi, har bir so'z, iborani sharhlash, manosini aniqlashga intildi. U xalq og'zaki ijodi, tili, adabiyotining kelib chiqishini chuqur tadqiq qildi.

Mahmud Qoshg'ariy o'zi to'plagan boy dalillar asosida





«Javohir un-nahv fi lug'oti-turk» (Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari) va «Devonu lug'otit-turk» asarini yozdi. Qoshg'ariyning birinchi yozgan asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. «Devonu lug'otit-turk» asarini 1074-1075-yillarda yozgan. Unda olim dunyo xaritasini ham ilova qiladi va Kichik Osiyodan to Xitoy hududlarigacha cho'zilib ketgan yerlarda yashovchi turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, urf-odatları, turmush-tarzi, madaniyati to'g'risida g'oyatda qimmatli ma'lumotlar beradi. Asarda turkiy qavm urug'lar: kipuguz, yamak, boshqirt, basmil, kay, yaboqu, tatar, qirg'iz, chigil, yag'mo, tuxsi, ig'roq, jaru, jamil, uyg'ur, tang'ut, tabg'ochlardan tashqari yana fors, arab, xitoy, rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar bor.

Mahmud Qoshg'ariy asarini yozish uchun Farg'ona, Xorazm, Movoraunnahr, Buxoroga qadar bo'lgan o'lkalarni kezib chiqqan. U yerdagi xalqlarning xalq og'zaki ijodi, tili, madaniyati, urf-odatları bilan tanishgan va shu yerlarda istiqomat qiluvchi aholidan turli badiiy parchalarni yozib olgan. Bu parchalar XI asrda yozib olingan bo'lsa-da, o'z mazmuniga ko'ra ancha qadimiy davrlar bilan ham bog'lanib ketadi. Olimlar bu parchalarning ayrimlarini V-VII asrlarga ham aloqadorligini ta'kidlaydi. «Devoni lug'otit-turk» da turkiy xalqlar og'zaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ortiq she'riy parchalar, maqollar, hikmatli so'zlar va lavhalar berilgan. Olim o'z asarida turkiy tillarga oid juda ko'plab so'z birikmalari, iboralar, talaffuz qoidalarini asoslab beradi.

Bulardan tashqari Turkistondagi ba'zi shaharlarning nomlari, sharh, izohlar ham berib o'tilgan. Jumladan, unda Toshkent «Tarkent» tarzida ko'rsatiladi va Tosh shahri demakdir, deb izohlanadi. Samarqandning asl nomi «Samizkand»-Katta shahar deb ta'riflangan. Xullas, she'riy usulda qalamga olingan buyuk mutaffakkir Mahmud Qoshg'ariyning asarida yuksak ezgulik g'oyalari, mehnatsevarlik, shaxsiy qahramonlik, g'animga nafrat kabi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Devoni lugotit-turk» jahondagi juda ko'plab tillarga, shu jumladan, nemis, turk va ozarbayjon tillariga tarjima qilingan. Asarning ahamiyatiga baho berib V.V.Bartold quyidagilarni yozadi: «Mahmud hayot voqealarini, fakt va dalillarni o'z ko'zi bilan ko'rgani, bilib

yoʻzгани uchun bu asar hamon oʻzining ilmiy, maʼrifiy, tarixiy qimmatini saqlab kelmoqda».



**Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (865-925y.y.)** Ray shahrida yashab oʻtgan sharqning qomusiy olim, tabib, faylasuf, kimyogar mutafakkir hisoblanadi. Yevropada u Rhazes va Abubater nomi bilan tanilib, tabobat sohasida oʻz davrining Jolinusi sanalgan. Shuningdek, kimyo, botanika, matematika, astronomiya, mantiq va falsafa kabi fanlarni chuqur oʻrgangan. Roziy maʼlum muddat Ray va Bagʻdod

shifoxonalarini boshqargan.


Abu Bakr Roziyning jami 184 asaridan 61 tasi bizgacha yetib kelgan boʻlib, asarlarining koʻp qismi X-XIII asrlarda Yevropada lotin tiliga tarjima qilingan.

Roziyning tabobatga oid asarlarida terapiya, jarrohlik, diagnostika, sanitariya-gigiena, farmakognoziya, anatomiya, ruhshunoslik kabi sohalar bayon etilgan. Roziyning eng muhim asarlari «Kitob al-hoviy fit-tib» («Tibbiyotga oid bilimlar majmuasi») Unda antik davrdan to Roziy zamonigacha boʻlgan nazariy va amaliy maʼlumotlar berilgan») va «Al-Kunnosh al-Mansuriy» («Mansurga bagʻishlangan toʻplam») asaridir.

Oʻrta asr Oʻrta Sharq xalqlari falsafasida mavjud boʻlgan taʼlimotlarning birortasiga bogʻliq boʻlmagan, lekin Gnostitsizmning baʼzi turlariga yaqin boʻlgan borliq va uning mohiyati haqidagi oʻz taʼlimotini yaratdi. Uningcha, borliq, yagona bir-biriga boʻysunmagan besh mustaqil boshlangʻich mohiyat(yaratuvchi, jon, vaqt, makon, materiya) dan vujudga kelgan. Bularning har biri borliqning vujudga kelishi va mavjud boʻlib qolishida «zaruriy vujud» lardir. Roziyning bilish nazariyasida moddiy olam hodisalarining inson sezgi aʼzolariga taʼsir etib unda aks etishi, tashqi olam bilish obʼekti, inson esa bilish subʼekti ekani taʼkidlanadi. U bilishning eng kuchli quroli sifatida aqlga yuqori baho beradi, insonning ijodiy faoliyati faqat aql tufaylidir, degan gʻoyani ilgari suradi. Axloq masalasida







Roziy asketizmga qarshi chiqib, uni Suqrotning namunasi deb bilgani holda faol ijtimoiy hayotni yoqlaydi.

Ar-Roziy o'z davrida mavjud bo'lgan barcha dinlarga salbiy yondashadi va tanqid qiladi, u haqiqat bir, dinlar ko'p, haqiqat manbai muqaddas yozuvlar emas, faylasuflar va olimlarning kitoblari bo'lishi kerak, degan fikmi aytadi. Uningcha, «Aql bizni olijanoblikka yetaklaydi, hayotimizni go'zallashtiradi, maqsadlarimizga yetkazadi». Ar-Roziyning antiklerikal so'zlari musulmon mutafakkirlari tomonidan qattiq tanqid qilingan.

Bu davrda ilm va olimlarga benihoyat hurmat, ehtirom bilan qarash odat bo'lgan. Faxriddin ar-Roziy ibn Sinoning «Ishorat» asariga sharh yozar ekan, «hamma qalblar va hamma oqillar ilm eng oliy baxt va eng yuqori kamolot bosqichi va eng oliy fazilat ekanligi, bilim egalari esa eng oliysifat, eng atoqli inson ekanliklarini bir og'izdan tasdiqlaydilar» deydi.

Uning axloqqa oid uchta asari «Kitob tibb ar-ruhoniyy» («Ruhiiy tabobat»), «Kitob siyrat al-falsafiya» («Falsafiy hayot tarzi»), «Maqola fi amorot il-iqbol vad-davla» («Davlatmandlik va baxt-iqbol haqida») bizgacha yetib kelgan. Roziy Suqrotni axloq sohasida o'zining va barcha faylasuflarning ustozini deb hisoblaydi.

U ratsional (aqliy) gedonizm tarafdori bo'lib, dunyo noz-ne'matlaridan aqlga muvofiq va me'yor bilan lazzatlanishni yoqlaydi.

**Tayanch iboralar:** Uyg'onish davri, Xorazmiy, Ma'mun, akademiya, Xorun ar-Rashid, tasavvuf, Qutadg'u bilig, Roziy.

### Nazorat savollari

1. Xalifa Ma'mun kim?
2. Xorazm Ma'mun akademiyasi qachon tashkil topgan?
3. Abu bakr Roziy fanning qaysi tarmoqlari bilan shug'ullangan?
4. Mahmud Qoshg'ariy nechanchi asrda yashab o'tgan?
5. O'zg'urmish qaysi asar qahramoni?
6. «Qutadg'u bilig» asarida qanday sotsial masalalar ko'tarilgan?
7. Sotsial munosabat nima?

## MARKAZIY OSIYODA HADIS VA FIQH ILMLARI RIVOJI

### REJA:


1. Ismoil Buxoriyning «Sahihi Buxoriy» asarida shaxsning ijtimoiy-axloqiy sifatleri.
2. Abu Mansur al-Moturidiyning jamoatchilik fikri haqidagi qarashlari.
3. Abu Hamid Muxammad G'azzoliy dunyoqarashi.

**Maqsad:** *Talabalarga islom dinining maqaddas manbalaridan hadis ilmi va shariatning asosi bo'lgan fiqh ilmi, uning paydo bo'lishi hamda buyuk hadisshunos va fiqh ilmi namoyondalari hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.*

Hadis-islom dinida Muhammad payg'ambarning aytgan so'zlari, amallari, u kishiga berilgan sifatlarni o'zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so'zining lug'aviy ma'nosi-«xabar, hikoya» ma'nolarini beradi. Hadislar islomning «Ahli Sunnat val-jamoat» yo'nalishida «Qur'on»dan keyingi ikkinchi muqaddas manba sifatida ko'riladi. Hadislar tarkibiy jihatdan ikki qismdan iborat bo'lib, ular: xabar beruvchi *matn* va rivoyat qilgan roviylar zanjiri – *musnaddan* iborat.

Eramizning VII-VIII asrlarida musulmon siyosiy qatlamlari orasida shiddatli kurashlar davom etishiga qaramasdan, juda ko'plab hadislar dunyoga kela boshladi. VIII - XII asrlar Movarounnahrda hadis ilmi sohasida olg'a siljish davri bo'ldi. Bu davrda yashagan olimlar faqatgina ma'lum bir chegaralangan doirada ijod qilish bilan kifoyalanmay, imkon qadar ilmning ko'proq qirralariga ega bo'lishga intilganlar. Shunga ko'ra biror olim, masalan, faqatgina mufassir yoki faqihning o'zi emas, balki bir vaqtning o'zida muhaddis ham bo'lolgan. Chunki bu davrda, yuqorida aytib o'tilganidek, diniy ixtiloflar kuchaygan edi. IX asr mavjud hadis to'plamlari qayta ishlangan holda ularni boblar bo'yicha tasnif qilib, *musannaflar* yozish davri bo'ldi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi XII - XIII asrlardan boshlab alohida e'tiborga molik deb sanala boshlandi. Ular





orasida katta nufuzga ega bo'lgan Imom al-Buxoriy (v. 870 y.) va Imom Muslimning (v. 875 y.) «Al-Jome' as-sahih» to'plamlari; undan keyingi muhim to'plamlar: Abu Dovud, at-Termiziy (v. 892 y.), an-Naso'iy (v. 915 y.) va Ibn Mojjaning (v. 886 y.) «As-Sunan» asarlaridir. «Al-Jome' as-sahih» kitoblari o'z ichiga biografik ma'lumotlar, «Qur'on» oyatlariga tafsirlar, diniy qonun-qoidalar, ijtimoiy va shaxsiy axloq mezonlarini qamrab oldi. «Al-Jome' as-sahih»ning ishonchlilik darajasi sunniylar orasida boshqa to'plamlardan ko'ra yuqoriroq hisoblanadi.

Hadis to'plamlarining qay darajada ishonchli ekanligini aniqlab beradigan maxsus nazorat bo'lmaganligi bois ularning mavqeini jamiyatda egallagan obro'siga qarab belgilash mumkin.

Keyinchalik islom olamida turli darajadagi soxta hadislarining ko'payib ketishi muhaddis-olimlar oldiga katta mas'uliyatli vazifani – mana shu to'qima va sahih hadislarini ajratib berish vazifasini qo'ydi. Qissanavislar inkor etib bo'lmaydigan isnodlar bilan hadislar to'plash bobida eng «ilg'or» kishilar bo'lib, bu hikoyalari uchun sodda kishilar ularga yaxshigina haq to'lar edilar. Ko'pchilik soxta hadislarini osonlikcha aniqlash mumkin edi. Hadislar turli maqsadlarda to'qilar edi. Ba'zilar siyosiy manfaatlar yo'lida, ijtimoiy mafkuralarni tarqatish maqsadida yangi hadis to'qisalar va mashhur hadislarini qisman o'zgartirsalar, boshqalar o'z shaxsiy manfaatlarini o'ylab turli hadislarini muomalaga kiritdilar.

Hadislarni tanqidiy o'rganish bo'yicha tez orada olti to'plamda uchragan bir qator maxsus terminlar guruhi vujudga keldi. Imom at-Termiziy bu sohada salmoqli ishni amalga oshirdi. U faqatgina hadislarini to'plash bilangina cheklanib qolmasdan, ularning tahliligiga ham alohida bo'lim ajratdi. Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib hadislarini *sahih*, *hasan* va *zaif* guruhlarga ajratgan olimdir.

Hadislar *sahih* (*ishonarli*), *hasan* (*yaxshi*), *zaif* (*ishonchsiz*), *saqim* (*kasal*) va boshqa turlarga ajratildi. Masalan, sunniylikda *sahih* hadislar darajalari bo'yicha yetti xilga bo'lindi:

- 1) Imom Buxoriy va Imom Muslim keltirgan;
- 2) faqat Imom Buxoriy keltirgan;
- 3) faqat Imom Muslim keltirgan;


4) ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;

5) Imom Buxoriy shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;

6) Imom Muslim shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;

7) boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.


Musulmon olamida eng ishonchli deb hisoblangan olti sahifali hadis to'plamlarining mualliflari: Imom Buxoriy, Imom Muslim, Ibn Moja, Abu Dovud as-Sijistoniyy, Termiziy va Nasoiylar katta hissa qo'shdilar.



Hadis ilmining yetuk namoyondonasi **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy** 810-yilning 20-iyulda Buxoroda tavallud topgan. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. O'n yoshidan boshlab Abdulloh ibn al-

Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yod oladi. Eramizning 825-yili al-Buxoriy onasi va akasi bilan muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashaydi, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi.

Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin al-Buxoriy umrining oxirlarida, 863-868-yillari Nishopurda yashadi va madrasada hadis ilmidan dars beradi.



O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyorimizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan-ko'p ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. At-Termiziy o'z ustozlari va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan. Hatto, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib «ko'p yig'laganidan ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashagan» degan fikrlar bor. Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan.

Imom al-Buxoriy xoriждан qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik al-Buxoriyni ko'rolmas edi. Natijada ularning hatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib «Al-jome' as-sahih», «At-ta'rix» kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy «Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi», degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo'htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va bir muncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasalga chalinib 870-yil 1-sentyabrda vafot etadi va shu erda dafn qilinadi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashabbusi bilan 1974-yilda respublikamizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200 yillik yubileyi nishonlangan. Uning shoh asarlari hisoblanmish «Al-jome' as-sahih» va «Al-adab al-mufrad» kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga


ega bo'ldi. Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjolardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavalludi munosabati bilan uning maqbarasi qayta qurildi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga 20dan ortiq boy va qimmatli asarlar yozib qoldirgan bo'lib, ulardan «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta'rix as-sag'iy», «At-ta'rix al-avsot», «At-ta'rix al-kabir», «Kitob al-kuna» va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Buyuk allomaning eng muhim asari, «Al-jome' as-sahih» dir. Bu asar «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Bu sharaflı ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergan bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'rganishda **Abu Mansur al-Moturidiyning** o'rni beqiyosdir. Abu Mansur al-Moturudiy (870-944 y.y.) islom dunyosida «hidoyat yo'li imomi», «mutakallimlar imomi» martabasiga muyassar bo'lgan alloma, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. Uning «Qur'on»ning tafsiriga bag'ishlangan «Kitob at-tavhid» (Yakkaxudolik haqidagi kitob), «Kitob ta'vilt al-Qur'on» kabi asarlari ulamolar orasida katta e'tibor qozongan.

Sunniylik asosidagi islomdagi katta yo'nalishni tashkil etuvchi Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-





Moturidiy asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan, shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr xalqlari hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik kontsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy qarashlarini shaxsning islom doirasidagi faoliyati, erkin fikrlash huquqi, me'yor, inson qadr-qimmatini muhim o'rin tutadi.

Darhaqiqat, inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning murosaviy muvozanat kontsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movarounnahrda real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir.



**Abu Mansur al-Moturidiy maqbarasi**

Ko'pgina asarlarida Moturidiy asosiy maqsad qilib islomdagi hanafiya mazhabi tamoyillarini muhofaza etish va «aql as-sunna val-jamoa» ta'limotiga zid qarashlarni rad etishni ko'zda tutadi. Maturidiy qarashlarida Alloh, inson, imon, olam, ilm va aql masalalari yetakchi o'rin tutadi. Ilohiy sohasini sharhlashda u tabiat-mijozi keng, gina qudratlardan yiroq, kek saqlamaydigan, diniy betoqatlikka o'rin qoldirmaydigan, shu bilan birga, o'ta ehtiyotkor mutafakkir hisoblanadi.



Al-Moturidiy jamoa va jamiyatning mohiyati, insonning aqliy kamoloti o'zlikni anglashga bog'liqligini, bu esa o'z navbatida mohiyatni to'g'ri anglash imkoniyatini berishini asoslab bergan.

Al-Moturidiy insondagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo'naltirilmaligi, shaxs davlat oldida mas'ul bo'lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas'ul bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Shuningdek, Al-Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi (sharqona demokratiya), jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi. Moturidiy qarashlarida Movarounnahr xalqlari mentalitetiga islom e'tiqodini muvofiqlashtirish, islomni yanada inson manfaatlariga yaqinlashtirish g'oyasi markaziy o'rin tutadi.

Al-Moturidiy Movarounnahr ijtimoiy fikriga ko'rsatgan ta'sirini quyidagi yo'nalishlarda qayd etish mumkin:

*birinchidan*, Movarounnahrda jamoatchilik fikrini o'ziga xosligini inobatga olib, umumiy fikrga kishilarni ongli tarzda, ixtiyoriy birlashishga da'vat etgan;

*ikkinchidan*, turli narsalar uchun xos bo'lgan mohiyatni ramzlarda talqin etish orqali ijtimoiy maylga diqqatni jalb etadi;

*uchinchidan*, al-Moturidiy ijtimoiy barqaror muhit jamiyatni ma'naviy to'laqonligini ta'minlash, turmush tarzi, an'ana, marosim va urf-odatlar, milliy mentalitet hamda etnik o'ziga xosliklarga tayangan holda amalga oshadi deydi;

*to'rtinchidan*, jamiyatdagi ijtimoiy fikr barqarorligi ham tazyiq va kuch vositasida emas, balki o'zaro hamjihatlik, hamkorlik negizida amal qilishi g'oyasini ilgari suradi.

Al-Moturidiy o'z mulohazalarida o'zgalar g'oyalari, nuqtai nazarlarini xolisona tekshirib ko'rishga erinmaydigan va o'ziga ma'qul keladigan diniy hamda dunyoviy qarashlarni qabul qilishni maqsadga muvofiq deb biladigan inson edi. Moturidiyga ko'ra, barcha me'yor, e'tiqodni Alloh yaratadi. Insonning mas'uliyati ularni tanlash va ixtiyor etishda o'z aksini topadi. Agar kishilar yaxshilik, ezgulik yo'lini o'zlariga ravo ko'rsalar, taviq ne'matiga musharraf bo'ladilar. Agar ular hidoyat yo'lini tark etsalar va uni dillaridan yiroqlashtirsalar, xazlanga (murtadlikka) uchraydilar. Moturidiy ilmning ibodatdan ustun ekanligini yaxshi biladi. Shuningdek, xabar bilan birgalikda, jonli mushohadaning ahamiyati muhimdir, chunki Alloh bu dunyoni behudaga yaratmagan. U yaratganni bilish va anglashning muhim



vositasi hisoblanadi. Bu olamni yaratishga qodir Alloh inson zotiga sezgi, farosat, mushohada qilish quvvati, ong va aqlni ato etgan. Ular orqali inson yaratganni taniydi. Shuning uchun ham hech narsa Moturidiyga ko'ra, aql ne'matining o'rnini bosa olmaydi.



Yana bir islom allomalaridan biri **Abu Xomid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy** (1058-1111 y.y.) bo'lib, u Eronning Tus shahrida yashab o'tgan musulmon sharqining yirik faylasufi, islom ilohiyotchilaridan biridir.

G'azzoliy dastlabki ta'limni Tusda olib, Jurjonda davom ettirgan. G'azzoliy islomiy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar, jumladan, mantiq, fiqh, falsafani chuqur o'rganadi. U keyinchalik Bag'doddagi «Nizomiya» madrasasida fiqh, mantiq, islom falsafasidan dars berdi. Hayotining so'ngi yillari zohidlikka berilib, ijod bilan shug'ullangan. G'azzoliyning fiqh ilmiga oid «Bosit», «Vojiz», aqidaga doir «Qavoid al-Aqoid» (Aqidalarning qoidalari), «Risolat al-qudsiya» (Qudsiya risolasi), mutasavvufilar uchun «Mukoshafat ul-qulub» (Qalblar kashfiyoti) kabi asarlar yozgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, G'azzoliyning butun musulmon dunyosiga tanilishida kalom yo'lidan chekingan hamda islomni zaiflashtirish yo'lida borgan mu'taziliylar, botiniylarga qarshi yozgan «Fadoyiq al-Botiniya», «Tahofut al-falasifa» (Faylasuflarning rad etishi) kabi asarlari unga katta shuhrat keltirgan.

G'azzoliy o'zining «Ihya ulum ad-din» (Diniy ilmlarni tiriltirish) asarida islom ta'limotining yaxlit tizimini ishlab chiqqan va uni falsafiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. U bilishni inkor etmagan bo'lsa-da, Allohni aql bilan emas, maxsus ruhiy jismoniy harakatlar-sig'inish va ibodatlar orqali anglash mumkin degan g'oyani ilgari suradi. O'zining «Tahofut al-falasifa» asarida bir qator faylasuf va allomalar, xususan, Forobiy



va Ibn Sinoni Platon va Aristotel falsafiy ta'limotlarining ta'sirida bo'lganliklari, ularning qarashlarini qabul qilganliklari uchun qattiq tanqid qiladi. U mazkur asarida Forobiy va Ibn Sinoning islomiy ilmlarni, xususan, Qur'oni Karimni inson aqliy bilimlari tarozisi bilan o'lchashlarini qoralab, insonlarning aqliy bilimlarini Qur'on ta'limoti asosida o'rganish kerak degan qarashni bildiradi.

Jamiyat va inson inqiroziga sabab bo'ladigan qusurlar bu, kibru havu, riyo, shuhratparastlik, hasad, zolimlik, adolatsizlik kabi xususiyat va tuyg'ulardir. Agar jamiyatda shunday qusurli odamlar ko'paysa, o'sha jamiyat halokatga mahkumdir. Ana shunday qusurlardan qutulish yo'llarini G'azzoliy o'zining «Mukoshafat-ul qulub» asarida keltirib o'tgan. Agar jamiyatda shafqatsizlik o'rini marhamat, kibr-u havu o'rini odob-tavoze, riyo o'rini ixlos, haqsizlik o'rini adolat egallasa, bunday jamiyatda baxt-saodat qaror topadi, deydi.

Imom G'azzoliy ta'limotiga ko'ra, dil ilohiy ne'mat, uni oddiy jismiy yurak ma'nosida tushunmaslik kerak.

Aqid ilmining bilimdonlaridan bo'lgan Suyutiy Imom al-G'azzoliy haqida shunday yozgandi: «Agar Muhammad alayhissalomdan keyin yana bir payg'ambar dunyoga kelishi mumkin bo'lganda, bunday saodat, shubhasiz, al-G'azzoliyga nasib etardi» deya ta'kidlagan:

- Ko'rgan narsangnigina qabul et, eshitganlaringni unut: Quyosh bosh ko'targach, Zuhalni tomosha qilishdan bizni mahrum qiladi.

- Shubha haqiqatga olib boruvchi yo'ldir. Kim shubhalanmas ekan, hech narsani ko'ra olmaydi. Ko'rishdan mahrum odam esa tushunolmaydi. Tushunishdan mahrum kimsa misoli so'qir kabi yo'ldan adashadi.

- Avvalo shuni tushunib olish joizki, Oллоh haqidagi bor haqiqatni va Uning ulug'vor mohiyatini faqat Oллоhning o'zigina biladi. Bundan hayron bo'lmaslik joiz: farishtalar haqidagi haqiqatni farishta, payg'ambarlar to'g'risidagi haqiqatni payg'ambargina bila oladi. Hatto shogird to ustozining darajasiga yetolmas ekan, uni chinakamiga tushunolmaydi. U ustozining darajasiga yetgandan keyingina o'zini ustoz kabi anglay boshlaydi. Tirik mavjudotlarning quyi darajadagi turlari: chumoli va chivinlarni ham faqat chumoli hamda chivinlarga anglay oladi. Afsuski, faqat insongina o'zi haqida haqiqiy bilimga ega





emas. Biz o'zimizni faqat sirdan-u yoki bu qilmishimiz va tashqi qiyofamiz orqali bilamiz. Ruhiy mohiyatimizni bilishga urinmaymiz.

- Payg'ambarimiz shunday degandilar: «Uch narsadan: shubha-gumondan, yomon xayollardan va havasdan hech kim qutulolmaydi. Men sizga ulardan xalos bo'lish yo'lini aytaman. Agar gumonsirasang, tekshirma, yomon xayollar kelsa, ulardan qoch, havasing kelgan narsaga ega bo'lish istagidan o'zingni tiy».

- Payg'ambardan so'radilar: «Xalqlarning kulfatiga nimalar sabab bo'ladi?» U zot shunday javob qaytardilar: «Manmanlik, gerdayish, takabburlik, raqobat, tarqoqlik va hasad xalqlarga kulfat keltiradi. Ana shular tufayli avval xalqlar o'rtasida ajralish yuz beradi, so'ngra tartibsizlik boshlanadi».

- Uchta olam mavjuddir: ularning biri zohiriy, ikkinchisi botiniy olam bo'lsa, har ikkisining orasidan yana bir olam-ruhiy olam o'rin olgan.

Islom huquqshunoslik ilmini rivojlantirgan buyuk allomalardan yana biri Burhoniddin Marg'inoniy (1123-1197-y.y.) bo'lib, u, shariat ilmiga bag'ishlangan «Kitob al-Hidoya» (1178-y) asarining muallifidir. Mazkur asar nafaqat Movarounnahrda, balki butun islom sharqida bir necha tillarga tarjima etilib, ma'lum va mashhur bo'lib ketdi. Undan asrlar davomida islom huquqshunosligi bo'yicha qo'llanma sifatida foydalanilgan. Burhoniddin Marg'inoniy ushbu asarida birinchilardan bo'lib «aybsizlik prezumpsiyasi» ya'ni ayblanuvchi to aybi aniqlanmagunga qadar aybdor hisoblanmasligi tushunchasini qo'llagan.

**Tayanch iboralar:** hadis, fiqh, sahih, G'azzoliy, Buxoriy, Moturidiy, jamoatchilik fikri, ixtiyor erkinligi.

### Nazorat savollari

1. Hadis so'zining ma'nosi?
2. Hadis ilmi qachondan boshlab shakllandi?
3. Fiqh so'zi qanday ma'noni bildiradi?
4. Imom al-Buxoriyning eng yirik asari qaysi?
5. Aybsizlik prezumpsiyasi nima?
6. Al-Moturidiyning qanday asrlari bor?
7. Imom al-G'azzoliyning fikrlaridan ayting?

# ABU NASR FOROBIYNING IJTIMOIIY-SIYOSIIY QARASHLARI

## REJA:

1. Abu Nasr Forobiyning hayoti va faoliyati.
2. Forobiyning ijtimoiy - siyosiy va falsafiy ta'limoti.
3. Forobiy asarlarida adolatli va ma'rifatli jamiyat haqidagi ta'limotlar.


*Maqsad: Talabalarni Abu Nasr Forobiy hayoti va faoliyati bilan tanishtirish hamda uning sotsiologik ta'limotlarining shakllanish jarayonlari va ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*



O'rta asrlar Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarning rivojlanishida Abu Nasr Ibn Muhammad al-Forobiy faxrli o'rin tutadi. Forobiy Sirdaryo bo'yidagi Forob (hozirgi Shimkent viloyati) qishlog'ida 873- (872) yil tug'ilib, 950 (951)- yil 17-yanvarda Damashqda vafot etgan. U musulmon Sharqida Aristoteldan keyin «Ikkinchi muallim» unvoniga muyassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Forobiy eng yirik aristotelshunos, uning falsafasi, tabiiy-ilmiy nazariyasi va asarlarini chuqur bilgan faylasuf edi. Shuning uchun ham Forobiyni hayotligidayoq «ikkinchi Aristotel» deb faxriy nom bilan atagan edilar.

Forobiy Aristotel asarlarini arab tiliga birinchi bo'lib mukammal tarjima qildi. U yirik faylasuf, tilshunos, logik, matematik, astronom, ximik, medik, psixolog, etika va musiqa san'atining yirik nazariyotchisi, grek madaniyati, fani va falsafasini yaxshi egallagan, o'zining butun hayoti, ajoyib talantini tabiiy fanlar, ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikr rivojiga bag'ishlagan ensiklopedik olim edi. Forobiy dastlabki bilimni





Forobda olgan. Uning fikr doirasiga, ilm-fanga bo'lgan kuchli qiziqishi va intilishini boyitish uchun Toshkent, Samarqand va Buxoroda, Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida tahsil olgan. 940-yildan to umrining oxirigacha Damashqda g'aribona yashab, faqat ilm-fan bilan shug'ullangan. Fan olamida uning 160 dan ortiq asari ma'lum. Lekin uning ko'pgina asarlari yo'qolgan, ulardan bir nechtasigina bizgacha yetib kelgan. Shu jumladan uning «Fazilatli shahar aholisining qarashlari» (Aristotelning Metafizika asariga yozilgan sharhlardan iborat), «Ehsonul ulum» (falsafa, tabiiyot, matematika, logika, tilshunoslik, siyosat kabi fanlarning umumiy tavsifi berilgan), «Platon va Aristotel falsafasining maqsadi» (Organonga sharx), «As-siyosat al-madaniy» (ahloq, siyosatga bag'ishlangan), «Musiqaning ulug' kitobi» (musiqqa nazariyasi), «Fanlarning kelib chiqishi» kitoblari ham bizgacha yetib kelgan.

Forobiy asarlarini ularning mazmuniga qarab quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Falsafaning umumiy masalalariga oid asarlar: Masalan, «Substansiya haqida so'z», «Masalalar manbai», «Qonunlar haqida kitob»;

2. Inson bilishining tabiatiga oid: «Yoshlarning aqli haqida kitob», «Kattalarning aqli haqida so'z», «Mantiq haqida katta qisqartma kitob», «Isbot kitobi», «Sillojizm shartlari kitobi», «Jonning mohiyati haqida risola»;

3. Falsafa va tabiatshunoslik fanlarining mazmuni va mundarijasi haqida asarlar, masalan: «Ilmlarning kelib chiqishi va ta'rihi haqida kitob», «Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z», «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob», «Falsafaga izohlar» kabi;

4. Tilshunoslik, she'riyat, notiqlik va xattotlikka oid asarlar: «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «Lug'atlar haqida kitob», «Xattotlik haqida kitob» va boshqalar;

5. Ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish, axloq, huquq va tarbiyaga oid asarlar: «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Shaharni boshqarish», «Urush va tinch turmush haqida kitob», «Fazilatli xulqlar» va boshqalar.


Forobiy sotsial qarashlarining asosini panteistik ta'limot


tashkil qiladi. Bu ta'limotga ko'ra, butun mavjudot-borliq emanatsiya asosida yagona boshlang'ichdan bosqichma-bosqich vujudga kelgan. Bu oltita bosqichdan iborat bo'lish, ular o'zaro sababiyat orqali bog'langan. Bundagi birinchi bosqich-birinchi sabab - bu «vujudi vojib» - o'z-o'zidan zaruriy mavjud bo'lgan yagona Alloh; ikkinchi bosqichi - bu «vujudi mumkin» bo'lib, ular osmon jismlari, ikkinchi sababdir; uchinchi bosqich - faol aqlidir; to'rtinchi bosqich - tirik mavjudotlarga xos jon; beshinchi bosqich- narsa va hodisalarning ko'rinishi, ya'ni shakli; nihoyat, oltinchi bosqich- narsa va hodisalarning jismi, tanasi, ya'ni moddadir. Bu bosqichlar bir-birlari bilan sababiy bog'langandir.

Shunisi diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to'g'ri farqlagan. Uning fikricha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she'riyat kabi fanlar aqliy tarbiyaga xizmat qiladi; siyosat, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid fanlar insonlarni jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o'rgatadi. Forobiy ta'limotida mavjudot to'rt unsur - tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topadi; osmon jismlari ham shu unsurlar birikuvidan vujudga keladi. Forobiy uchun dunyo g'uncha bo'lib, asta-sekin o'zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko'proq namoyon qilib ochila boradi. Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql bir tomondan ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan tashqi ta'sir - ta'lim-tarbiya natijasi ekanligani uqtiradi.

Forobiy aqlli inson haqida gapirib, shunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni ixtiro etadigan, zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuruvchi kishilardir. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi. Ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim».

U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. O'zining «Fozil odamlar shahri» asarida inson mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishi, mohiyatga intilish haqni tanish





ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab, farqlashga ko'mak berishini asoslab berdi.

Forobiy olamni anglashda *vorisiylik* omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha sir-u asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldingi ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni boricha, shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy jamiyatning obro'li shaxslari, olimlari, oqil kishilarini ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchlardir, deb hisoblaydi. Forobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg'u beradi.

Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratadi. Bu ta'limot davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalarni qamrab olgan. Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishining zaruriy vositasi deb hisoblaydi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'ladi. Kishilarni diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatiga, aqliy iqtidoriga, ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida ortirgan bilim va ko'nikmalariga qarab baholashga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni keskin qoralaydi. Forobiy jamiyat rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurashib borishi va nihoyat, fozil jamiyat fozil shahar darajasiga ko'tarilishi haqida fikr yuritadi. Farobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podsholarga ham ma'lum talablar qo'yadi.

U xalq haqida doimo g'amho'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yishi zarur. Ular quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak: adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi, qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra olishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi zarur. Uning fozil jamoa haqidagi ta'limoti komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketgan. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Uning fikricha, «inson shunday mahliqoki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin».<sup>1</sup>

Forobiy davlatni har tomonlama yetuk, o'zida eng yaxshi fazilatlarini namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarur ekanligini qayd etadi. Uning aytishicha, fozillar shahri hokimi, eng avvalo, quyidagalarga ega bo'lishi kerak:

**birinchidan**, to'rt muchasi sog'lom bo'lishi, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishda biror a'zosidagi nuqson xalaqit bermasligi lozim;

**ikkinchidan**, shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshning fikrlarini tez tushunib, ilg'ab olishi zarur;


**uchinidan**, o'zi anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi, zehni o'tkir, zukko bo'lishi, fikrini ravshan tushuntira olishi, chiroyli so'zlar bilan ifodalashi lozim.

Forobiy o'z asarlarida «davlat» atamasini qo'llamaydi, biroq shahar jamoalari deganda shahar-davlatlarni nazarda tutgan. Bunday shahar-davlatlar ichki va tashqi vazifalarni bajaradilar. Tashqi jihatdan davlat shaharni, uning aholisini himoya qiladi, xorijiy davlatlarning hujumidan saqlaydi. Ichki jihatdan esa shahar aholisining baxtli va farovon turmushini ta'minlaydi. Uning fikricha, «shahar-davlat boshlig'i o'z fuqarolariga ilm-fan va saodatga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi muallim bo'lishi kerak». U shahar-davlat boshlig'i lavozimiga saylanadigan nomzod mulohazali, aql va farosat bilan fikr yurituvchi, g'amxo'r va odil bo'lishi kerak, deb yozadi. Forobiyning ideal shahar davlati ikki toifadan iboratdir. Birinchi toifadagi shahar-davlat yaxshilik, ezgulik, donishmandlikka asoslanadi. Ikkinchi

<sup>1</sup> Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: Abdullo Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyati, 1993, 69-bet







toifadagilar esa nodonlik, johillik va zulmga asoslanadi. Uning fikricha, shahar-davlat fazilatli (Al-madina al-fozila) va fazilatsiz (Al-madina al-johiliya) bo'ladi. Aholining o'zaro yordami, do'stligi va tinch-totuv yashashiga asoslangan shahar-davlat fazilatlidir.

Farobiyning ijtimoiy-siyosiy risolalarida xalq hokimiyati, ya'ni demokratik davlatning tuzilishi haqidagi fikrlari alohida o'rin tutgan. Farobiy o'zining asarlarida jamiyatning kelib chiqishi, davlatning paydo bo'lishi, uning shakli, davlat arbobi va uning vazifasi, davlatni idora etish haqida o'z fikrlarini bayon etgan. U insonning jamiyatdagi harakatlarini ikkiga bo'lgan: *birinchisi*: adolatli, haqiqiy, aqlga muvofiq harakatlar; *ikkinchisi*: adolatsiz, maqsadga muvofiq bo'lmagan harakatlar.

Forobiy jamiyatni buyuk, o'rta va kichik turlariga ajratadi. Uning fikricha, buyuk jamiyat bu - yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha xalqlar, insonlarning birlashuvidir; o'rta jamiyat ma'lum bir alohida xalq yoki millatning uyushmasidir; kichik jamiyat esa faqatgina shahar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin.

Shahar mukammal jamiyatning ilk bosqichi sifatida mavjud bo'lib, u yoki bu xalq joylashgan makonda paydo bo'ladi. Buyuk qomusiy olim millatlarning xususiyatlarini aniqlashning ham o'ziga xos yo'lini taklif qiladi. Forobiyning fikricha, xalqlar bir-birlaridan quyidagi uchta ko'rinish orqali farqlanadilar:

- 1) tabiiy ko'nikmalar va axloq orqali;
- 2) xarakter; 3) til orqali.

Tabiiy axloq va xarakterning paydo bo'lish sababi u yoki bu xalqning yashab turgan jug'rofiy muhiti bilan bog'liqdir, shuningdek, suv, havo, o'smliklar va turli xildagi moddalardan foydalanish ham shu muhit orqali namoyon bo'ladi. Demak, Forobiy fikricha, jug'rofiy muhit jamiyatning shakllanishi uchun muhim bir omil bo'lib xizmat qiladi. Ammo Forobiy jamiyat qurilishida tabiiy omillarga hal qiluvchi xususiyatni bermaydi. Tabiiy sharoitni u xalq psixologiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan vosita sifatida tan oladi va uni jamiyat shakllanishining bosh omili hisoblamaydi.

Forobiy davlat tashkilotining asosi va poydevori deb xalq va davlat boshlig'ining kelishuvini e'tirof etadi.

Qaysi shaharda zulm hukmron bo'lsa, o'sha shahar johila,

«nodon» shahardir. Bir-birlariga ezgulik va yaxshilik qilish uchun birlashishga asoslangan shahar fozil shahar hisoblanadi. Unda hamma insonlar baxt-u saodatga erishadilar. A'zolari bir-birlariga baxt-iqbolga erishuv uchun yordam beradigan jamiyat fozil jamiyat hisoblanadi. Hamma shaharlari bir-birlariga yordam beradigan xalq ham fozil xalq hisoblanadi. Shunday qilib, agarda hamma xalqlar baxt-saodatga erishishlari uchun bir-birlariga yordam bersalargina butun yer zamini fozil bo'ladi.

Fozil shahar-davlatni Forobiy sog'lom inson organizmiga qiyoslaydi. Fozil shahar rahbariyati tepasida fozil, hamma qadrlaydigan, o'z oldiga jamiyatning barcha a'zolorini haqiqiy baxt-u iqboliga erishuvini maqsad qilib qo'ygan shaxs turishi kerak. Bunday shaharda yaxshilik va adolat doimo hukmronlik qiladi, adolatsizlik hamisha qoralanadi.

Forobiyning fikricha, huquqni, eng avvalo, fozillar shahrining hokimi himoya qiladi. Shunga ko'ra hokimning axloqiy fazilatlarini haqiqatda u shunday deb yozadi:

«Hokim allohdan boshqa hech kimga bo'ysunmasligi kerak. U tabiatdan o'n ikki fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur».

Nodon, johil shahar o'zining bir necha turiga egadir: faqatgina moddiy va tabiiy istemol – ovqatlanish, ichimlik ichish, keyim-kechak, uy-joy va boshqalar bilan chegaralanib qoladigan shaharlar, ya'ni ma'naviy kamolot haqida umuman o'ylamaydigan shahardir. «Ayirbosh» shaharda esa hayot tarzi boylikka xirs qo'yishda namoyon bo'ladi; o'ziga bino qo'ygan shaharda faqat izzat-ikromga, maqtanishga, maqtashga, birovlariga mute bo'lishlikka mukkasidan ketiladi.

Umuman, jamiyat taraqqiyotini Forobiy faqatgina ijtimoiy foydali mehnatning salmog'i bilangina o'lchaydi. Undan tashqari axloqiy omillar taraqqiyotning muhim omillaridan hisoblanadi, deydi. O'zining Yunonistonlik ustozlariga o'xshab Forobiy o'z ideal jamiyatining sotsial strukturasi ishlab chiqadi. Uningcha, boshqarish va bo'ysunish prinsiplari ideal jamiyatning tabiiy bir tarkibiy qismidir. Forobiy boshqaruv va bo'ysunishning bir necha ko'rinishlarini ajratib ko'rsatadi.

«Shaharda shunday ma'lum bir inson - boshliq bor va boshqa bir qator insonlar ham mavjuddirlar. Ular o'zlarining darajalariga muvofiq shu boshliqqa yaqindirlar. Ularning har birlari o'z mavqelari va qobiliyatlariga asoslanib, boshliq maqsadlagan





vazifalarni bajaradilar. Ular birinchi darajada bo'ladilar. Ulardan quyiroqda boshqa insonlar joylashgan bo'lib, ular ham o'zlaridan yuqoridagilarning maqsadiga mos tarzda faoliyat ko'rsatadilar».

«Bu jarayon shunday ko'rinishda davom etadiki, toki bu zanjirsimon jarayonda kim oxirgi bo'g'in bo'ladi». Shuning uchun muallif jamiyatdagi turli sinflar mavjudligini e'tirof etadi. Forobiy jamiyatda dehqonlar-yerga ishlov beruvchilar va chorvadorlar, hunarmandlar, ruhoniylar, jismoniy va aqliy mehnat vakillarini jamiyatning asosiy sinflari deb tan oladi.

Forobiy quldorlikni keskin ravishda qoralaydi va uni insonning qadr-qimatini kamsituvchi, aql bovar bo'lmaydigan og'ir holatdir deb tariflaydilar. Doimiy urushlar asosida qurilgan farovonlikni, boshqa mamlakatlarga tajovuz qilishlarni, ularning fuqorolarini qulga aylantirishlarni Forobiy adolatsizlik va johillik deb ataydi.

O'zining davlat haqidagi ta'limotida Forobiy uning ichki va tashqi vazifalari haqida fikr yuritadi. Ichki funktsiyaning mohiyati shundaki, davlat fuqorolarini haqiqiy baxtga erishish uchun o'tkazilgan tadbirlargina asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlar: adolatning o'rnatilishi, xalqning savodini chiqarish, uni borliq haqidagi asosiy bilimlar bilan tanishtirish, aholini axloqiy intellektual sohada samarali tarbiyalash, yaxshi va namunalii ishlarni keng tarqatish. Boshqa qolgan muammolar - iqtisodiy va siyosiy muammolar asosiy maqsadga - insonlarni ma'naviy kamolotga erishishlari maqsadlariga bo'ysunishlari lozim. Faqatgina iqtisodiy muammolar bilan chegaralanib, siyosatni asosiy maqsadga aylantirib qo'ygan davlatni Forobiy johil davlat deb ataydi. Tashqi funktsiyaning mohiyati esa, avvalombor, ushbu shahar yoki mamlakatni tashqi dushmanlardan muhofaza qilish, ya'ni mudofaa masalalarida namoyon bo'ladi.

Forobiy davlat boshqaruv shakllariga ham o'zining katta e'tiborini qaratadi. Bunda bu muammo ikkilamchi hisoblanib, asosiysi bu baxt-u saodatga erishish sifatida namoyon bo'ladi. Boshqaruv sharti bevosita davlat boshlig'iga qo'yiladigan talablardan kelib chiqadi. Forobiy ideal davlat boshlig'iga 12 talab qo'yadi: donishmadlik, qonunlarni bilish, davlat ishlarining yo'l yo'rig'ini egallash, ushbu qonunlarni qo'llay olish, harbiy mahoratga ega bo'lish, adolat, haqiqatga muhabbat, va hokazo.

Shahar boshlig'ining o'rni va roli unda mujassamlashgan

ushbu sifatlarning salmog'i bilan o'lchanadi. Shuning uchun bu sifatlarning xarakteri tufayli rahbar bir odam, ikki, bir necha yoki xalq tomonidan saylanadigan shaxs bo'lishi mumkin.

Ideal davlatning ideal rahbarini tasvirlab berar ekan, Forobiy shuncha sifatga ega odamning bo'lishi juda murakkabligini ham etirof qiladi. Chunki tabiatan bunday xususiyatga ega bo'lgan insonlar juda kam uchraydilar. Forobiy rahbarlikka bir odamni emas, balki ikki va undan ko'proq insonlarni taklif qiladi. Lekin u baribir bir odamning, kuchli shaxsning rahbarligiga o'z moyilligini bildiradi. Rahbariyatning sonidan qat'i nazar nomzodlarni ajratib olish mezoni qilib Forobiy intellektual, axloqiy sifatlardan tashqari yana boylikni ham ajratib ko'rsatadi. Uningcha, faqat boy kishigina davlat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan harajatlarni qoplay oladi. Forobiyning ta'biricha, davlat boshlig'i lavozimiga ma'lumotli feodallar yoki ilg'or ziyoliylar loyiqdirlar.

Shu bilan birga Forobiy o'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari—davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

**Tayanch iboralar:** Forobiy, asar, fozillik, falsafa, fazo, substantsiya, vorisiylik, boshqarish, davlat-shahar, rahbar, fozillar shahri, johillar shahri.

### Nazorat savollari

1. Forobiy qarashlarining mohiyati nimalardan iborat?
2. Forobiyning sharq Arastusi deyilishiga sabab?
3. Forobiy fozil jamiyatni qayday ta'riflaydi?
4. Uning asarlarini sotsial ahamiyati haqida qanday fikrlarni bildiradi?
5. Yunon falsafasi va Forobiy?
6. Forobiy asarlarida ijtimoiy munosabatlar muammosi?
7. Inson muammosi?





# ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOY-SIYOSIY QARASHLARI

## REJA:

1. Abu Rayhon Beruniyning hayoti, faoliyati va dunyoqarashi.
2. Beruniy ijtimoiy-axloqiy qarashlarida oila va nikoh masalalari.
3. Beruniyning davlat va jamiyat haqidagi sotsial fikrlari.

**Maqsad:** Talabalarga Beruniyning ilmiy merosi bilan tanishish orqali jahon ilm-fanida ushbu asarlarning ilmiy ahamiyatini tushuntirishdan iborat. Shuningdek, ularda buyuk mutafakkirlarning avlodlari ekanliklaridan faxr tuyg'usini o'stirish.




O'rta asrlarning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari bo'yicha kelgusi avlodlarga juda boy ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u fanlarning deyarli barcha tarmoqlari bilan shug'ullangan. Akademik I.Yu.Karchovskiy so'zi bilan aytganda, «u qiziqqan sohalarni sanab chiqishdan ko'ra, qiziqmagan sohalarini sanab chiqish osonroqdir». U 973-yil 4-sentabrda Xorazmning poytaxti Kat (hozirgi Beruniy) shahri yaqinida tug'ilgan. Yoshligidanoq Beruniyda ilm-fanga qiziqish orta bordi va fanning deyarli barcha yo'nalishlari bo'yicha buyuk kashfiyotlar qildi. Zamondoshlari iborasi bilan aytganda «uning qo'li hech qachon yozishdan to'xtamagan, nigohi muttasil kuzatish bilan band bo'lgan, qalbi esa fikrlashga mudom qanot bog'lab turgan». Hozircha olimning ma'lum bo'lgan 154 nomdagi asarlari geografiya, astronomiya, tarix, geologiya, gidrogeologiya, geodeziya, mineralogiya, fizika, kimyo, botanika, farmakologiya kabi sohalarga aloqadordir.

Afsuski, ana shu asarlardan bizgacha faqat 30 tasigina yetib kelgan, xolos. Shuningdek, u yerning radiusini aniqlagan, hatto proyeksiyaning (buyumning tekislikdagi aksi, tasviri) uch xilini topganligi tarixdan ma'lum.

Buyuk mutafakkir o'z asarlarida Xristofor Kolumbdan salkam besh asr avval hozir Amerika deb ataluvchi qit'aning borligini bashorat qilgan. Ba'zi tarixchi, geograflarimiz XV–XVI asrdagi buyuk kashfiyotlar tarixini yoritishda bu masalani yo mutlaqo tilga olmaydilar yoki faqat g'arbchasini izohlaydilar. Jumladan, Beruniy: «Bizning tekshirishimizcha, yerning shimoliy (ikki) choragidan biri quruqlik bo'lganligidan, uning hamqurt (diametral qarama-qarshisidagi) chorak qismi ham quruqlik bo'lishini taxmin qilamiz» deydi. Beruniy o'zining 45 dan ortiq falakkiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr ilgari olamning markazi Yer emas, Quyoshdir, degan xulosa chiqardi. Yerning Quyosh atrofida aylanishini birinchi bor o'rtaqo qo'ydi. Shu bilan birga Beruniy ona tilidan tashqari bir qancha tillarni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi. O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblar ixtiro etgan. Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu erda o'zining ikkinchi ustoz tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi.

Beruniy «Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. «Osor al-boqiya» Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, metrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi.





Beruniy keyinchalik Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtiriladi. Xorazmshoh tomonidan juda katta izzat-ikrom bilan qabul qilingan Beruniy Urganchda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatadi. Beruniy shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi. Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017-1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning «Xorazmning mashhur kishilari» asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari «Tahdid nihoyot al-amoniya li tashidi masofat al-masokin» (Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash - Geodeziya) asari 1025-yilda yozib tugatilgan.

Beruniyning «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar» asari ham 1029-yil G'aznada yozilgan. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Beruniyning «Hindiston» nomli mashhur yirik asari «Tahqiq mo li-l-Hind min ma'-quda maqbula fi-l-aql av marzula» (Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi) 1030-yilda yozilgan bo'lib, bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V. R. Rozen «Sharq va G'arbnig qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q», deb baho bergan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo'lgan Beruniyning u erda sanskrit tilini puxta o'rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishga imkon berdi. «Hindiston» asari yozib tugatilgan yili Mahmud G'aznaviy vafot

etdi va uning o'rniga taxtga o'g'li Mas'ud o'tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid «Mas'ud qonuni» asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: «Mas'ud qonuni» kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan».

Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bularidan biri «Mineralogiya» dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro'poda ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – Dorivor o'simliklar haqida kitobi «Saydona» nomi bilan mashhur (XX asrning 30-yillarida Turkiyada topilgan) bo'lib, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi. Beruniy shogirdi Abul Fadl as-Seraxsiy bergan ma'lumot bo'yicha, 1048-yil 11-dekabrda vafot etgan. Alloma bilish va o'rganish lozim bo'lgan fanlarni quyidagilarga: til, adabiyot, falsafa, tarix, etnografiya, she'riyat, matematika, fizika, jug'rofiya, geodeziya, falakkiyot, ximiya, minerologiya, tibbiy fanlarga ajratadi. Shuning bilan birga har bir fanga o'z davrigacha bo'lgan bilimlarini umumlashtirib o'zining yangi xulosalarini bergan va ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan.

Beruniy Markaziy Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg'or an'alarini ijodiy rivojlantirib «sabablarning sababi» – inson va insoniyat jamiyati masalasi degan fikr ustida izlanishlar olib bordi. U inson qiyofasi uning yurish-turishi, xatti-harakati, yuz ifodasi bilan yuzaga kelishini takror-takror aytib, o'quvchiga go'zallik qonuniyatini yetkazadi. Kishilarning turmushdagi yurish-turishlari va o'zlarini tutishi, shaxsiy gigenasiga oid maslahatlar bergan. Alloma insoniy sifatlardan eng muhimlari ozodalik va tartiblikdir, deydi. Beruniyning inson ruhiyatiga tartibli, uyg'un narsa ta'sir qiladi va shu bilan birga qalb ham shunga intiladi, degan fikri bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Albatta, uyg'unlik hamma san'at turlarining asosiy xususiyatlaridan biridir. Go'zallik va nafosat uning asosidir. Inson tabiatan ana shu uyg'unlik va go'zallikka intilish orqali san'atni vujudga keltiradi,







rivojlantiradi.

Insonning eng yaqin narsasi uning tabiati, ruhidir. Shuning uchun kishi tabiatiga yoqadigan ishlarni qilishi kerak. Insonga eng yaqin narsa esa uning kiygan kiyimidir. Kiyim odam tanasiga yopishib, terisini yopib turadi. Insonlarga yashayotgan uy-joyi g'amxo'rlik qiluvchi insoni, yeb-ichadigan ozuqasi va mehnat qurolidir.

Beruniy uchun insondan sharafliroq va qimmatliroq zot yo'q. U insonning kundalik turmushdagi hayoti, o'zini tutishi, so'zlayotgan so'zi, qalbi, bajarayotgan mehnati - hamma-hammasi go'zal bo'lishini talab qilgan.

Insonlarning ko'rinishidagi go'zallik, tuzilishidagi chiroy har bir inson uchun sevimli, - deb yozadi alloma. U tabiiy go'zallik bilan birga inson fe'l-atvorida alohida go'zallik borligini tushunadi hamda birinchisidan ikkinchisining tub farqini ko'radi. Kishining chehrasi hali u onasining qornida ekanidayoq shakllanishini, uni o'zgartirib bo'lmasligini takidlaydi. Lekin inson o'z axloqiy qiyofasini va turmush - tarzini o'zgartirmoqqa qodir, deb bilgan. Agar insonlar o'z hirslaridan ustun tura olsa, o'zidagi barcha nuqsonlarni yo'q qilib, ularni yaxshi sifatlarga aylantira oladi.

Olim o'z bolalariga va qizlarga maslahatlarida tozalik va oilada ahillik o'rnatish haqida ta'lim berib, nafis did va qarashlar bolada oilada boshlanishi va shakllanishini to'g'ri ta'kidlagan. Kishilarning eng nazokatli turmush lavhalari to'g'risida so'zlar, ularga hamxo'rlik va mehribonlik bilan shaxsiy turmushning nozik tomonlari bo'yicha o'gitlar beradi. Asarda ota-onalarning yigit va qizlariga bergan nasihatlar, oilaviy munosabatlarida suv bilan bog'liq ibratli fikrlar bir nechta misollar orqali bayon qilingan.

Bu keltirilgan misollar chinakam nafosat bo'lib, ularni o'rganish, unga amal qilish, ulardan ta'lim olish hozirgi kunimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Alloma insonning jamiyatdagi rolini aniqlab, inson tabiatining va mijozlarining turlicha bo'lishi ularning xohishi va maqsadlari ham turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi, binobarin, «Insonlarning maqsad va niyatlari har xil bo'lgach, san'at va hunar ham turlicha bo'la

boshladi», ya'ni bu mehnatning taqsimlanishiga olib keladi, deydi.


Beruniy tomonidan yana shunday fikrlar izhor etilgan: «Insonning eng oliy baxti – bilishda, chunki u aqlga ega. Baxt ana shu nuqtayi nazardan tushunilsagina jamiyatga tinchlik va farovonlik keltiradi. Haqiqiy huzur-halovat inson biron narsaga ega bo'lgan sari ana shu narsaga ko'proq ega bo'lish maqsadida intilishining tobora ortib borishidan iborat. Inson ruhida avval bilmagan narsasini bilib olishda ana shunday holat paydo bo'ladi»,- deydi. Insonning oliy fazilati esa, Beruniy fikricha, boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir.

Abu Rayhon Beruniy o'z zamondoshlariga ham, keyingi avlodga ham quyidagicha murojaat qilgan edi: «Har bir qo'zg'atuvchi (olim) diqqat bilan o'lchasin, hamisha o'z ishlaridan qoniqmasin, o'z ishlarini qayta-qayta tekshirib tursin, mumkin qadar kamroq g'ururlansin, tobora tirishqoqlik bilan ishlasin va mehnatda hech mahal zerikmasin». Bu fikrlari bilan u insonda aniq maqsad, shijoatga va baxt-u iqbolga faqatgina mehnat bilan erishish mumkinligini uqtiradi. Beruniy bir grek donishmandining fikrini keltirib, uni maqullaydi: «Kimda kim o'z o'tmish avlodlari bilan g'ururlansa, o'sha avlodlar tirik, uning o'zi esa o'likdir. Yoki agar kishi o'zini-o'zi yuksaklikka ko'tarmasa, ulug' o'lik suyaklar unga g'urur bo'lolmaydi».

Mutafakkir birinchilardan bo'lib inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtayi nazaridan o'rganadi. U odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloq, nasl-nasablarda turlicha bo'lishi u yashaydigan makon va muhitning turlichaligidan degan fikrni bildiradi. «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir».

U fanni din ta'siridan qutqarish uchun kurashadi. U dindand fan ishiga aralashmaslikni talab qiladi. Ruhoniylar fikrining g'ayriilmiy mohiyatini fosh etib, dunyo va uning tuzilishi to'g'risidagi diniy tasavvurlar hukmron reaksiya tomonidan o'ylab chiqilganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bu hol tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la






oladi. «Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar o'zaro tobelik kuchi asosida birlashgan».

Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uningcha, bu illatni yo'qotishning asosiy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shahobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab va ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shahobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa ishtaha va g'azabdir. Ishtaha insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo'lib, insonning ovqatlarni tanavul qilish lazzati va o'ch olish zavqi bilan aldaydi. Ularning ta'siriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to'rt oyoqli hayvon deb hisoblaydi. U rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Olimning uqtirishicha, biror kishi keltirgan xabarni o'z ko'zi bilan ko'rish, bilish va u haqda aniq tasavvurga ega bo'lgan ma'qul. Xabarga yolg'on aralashmasligi lozim. Xabar rost va yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki odamlarning maqsadlari xilma-xil bo'ladi. Beruniy yolg'onchilik tufayli kishi adolatdan yuz o'girishi mumkinligini aytib, yolg'on so'zlovchilar omonatga hiyonat qilishi, boshqalar mulkini hiyla bilan bosib olishi, o'g'rilik qilishi, umuman, jamiyat va xalqning buzilishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Beruniy rostgo'ylikni adolat bilan barobar qo'yadi. Uning fikricha, xalq adolatni sevgani kabi rostgo'ylikni ham sevadi. Ammo uning mohiyatini, yoqimlilikini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi. Adib o'zining «Hindiston» asarida ma'rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati kabilar to'g'risida(VII bob) fikr bildiradi va ibrat tariqasida bir hikoyani bayon etadi: «Bir ustoz o'z shogirdlari bilan qorong'i kechada yo'l bosib borar edi. Ular yo'l bo'yicha tik turgan bir koroltinga duch keladilar. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanini aytishni talab qiladi. Shogirdlaridan biri bilmayman, ikkinchisi ham bilmayman va bilishga qudratim yetmaydi, deb javob beradi. Uchinchisi esa tong yorishsa, ma'lum bo'ladi, qo'rqinchli narsa bo'lsa, tong yorishishi bilan yo'qolib ketadi. Qo'rqinchli narsa bo'lmasa, ahvoli ravshan bo'ladi, deb javob qiladi». Hikoyadan olim uch shogirdning ahvolini, qobiliyatini ularning javoblaridan bilib oladi. Unga birinchi va ikkinchi

shogirdning ilmsizligi, uchinchisining ishni keyinga surishi, ilmsiz bo'lsa ham, ma'rifatga intilishi namoyon bo'ladi. Shu tufayli uning javobini ma'qullaydi. Bu shogird koroltinga borib, bir-biriga chirmashib ketgan qovoq palagini ko'radi, koroltin jonsiz narsa ekaniga ishonadi, biror ihota emasmikan deb shubhalanadi-da, tepib yuboradi, koroltin ag'anaydi. Shunda shogird uning ihota ekaniga to'la ishonadi. Barcha ko'rgan, bilganlari haqida ustoziga xabar qiladi va uning qarshisida e'tibor qozonadi. Beruniy bu orqali tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi. Uning «O'tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Kitob as-saydona», «Al-qonuni al-Mas'udiy», «Geodeziya» va boshqa asarlarida inson kamolotida axloqiy tarbiyaning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi yoki yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon hisoblanadi. Yaxshi xislatlarga to'g'rilik, odillik, o'zini vazmin tutish, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, sahiylik, shirinsuhanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa hasadgo'ylik, baxillik, nosog'lom raqobat, o'z manfaatini ko'zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi. Faxrlanishni yaxshi xulq ma'nosida ishlatib, «Yodgorliklar» da shunday deydi: «Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilm-u hikmat egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi». Demak, Beruniy insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarini yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Bu insoniyat yaratgan pedagogik fikr taraqqiyotida «qizil ip» bo'lib o'tganidek an'anaga muvofiq Beruniyda ham axloqiy tushunchalar, axloqiy barkamollikning muhim tomonlaridir. Beruniy saxovat (o'zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo'lish, halollik va haqgo'ylik, o'z mehnati bilan kun ko'rish va boshqalar)ni insonning axloqiy kamolotini ko'rsatuvchi xislatlar deb biladi.







Ezgu tilakka yetishga to'sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg'onchilik, munofqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo'yish va tamagirlik, g'azab va johillikka inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi. Mutafakkir ilgari surgan axloqiy xislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat, uni yovuzliklardan xalos etish uchun esa dono, adolatli hukmdor bo'lishi kerak, deydi.

Olim kundalik turmush masalalariga ham katta e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini ham uyg'un, go'zal eta oladi. Uyg'unlik go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodalik, tarbiyalilik bo'lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur deb ko'rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go'zalligi, turmush tarzidagi go'zallikning uyg'un bo'lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimdan tortib, kundalik turmushdagi yurish-turishi, so'zi, qalbi, qilgan ishi – hammasining go'zal bo'lishi ta'kidlangan. Har bir shaxsda sharm-hayo, nafis did, iffat, latofat, shirinsuhanlikning tarkib topishi turmushi yanada go'zal bo'lishga olib keladi. Olimning inson turmushiga xos xulq - odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go'zal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi u. Ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur, deb ta'kidlaydi. Bunda inson o'zini boshqara olishga qodir bo'lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo'lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo'lishi zarur, deydi. «Mineralogiya» asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: «Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir». Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko'rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, mutafakkir inson kamolotida, mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan




sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrixoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar, deb biladi. Olim bolalarni mehnatga o'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o'rgatish kerak, deydi u. Lekin o'z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, ibn Sinolar kabi inson kamolotida uch narsa: ilm-u ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilmi-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir.

Beruniy sotsiologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy kitobini to'la ma'noda insoniyat tarixining o'tgan besh ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnosotsiologik asar deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug' mutafakkir asar yozilishi jarayonida olib borgan sotsiologik tadqiqotlari, qo'llagan usullari xususida so'z yuritib shunday yozgan: «Mazkur asarni yozish asnosida o'zimga ishonch hosil qildimki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo'li bilan haqiqiy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin emas. Bunga faqat «kitob ahllari» va turli din arboblari, shu (e'tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So'ngra ularning isbot uchun keltirgan so'z va e'tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi».

Abu Rayhon Beruniy dunyoning sotsiologik manzarasi evolyutsion jarayon natijasida tarkib topganligini alohida qayd etadi: «Tuzilish va buzilish natijasida unsur bo'laklari bir-biriga qo'shilib, dunyo obod bo'lgan va olam tartibga tushgan».

Mutafakkir olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki, turli ijtimoiy darajalardagi murosas va konsensus ekanligini uqtiradi. «Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo'lgan narsaga qanday ishonib bo'ladi», deb ulug' mutafakkir qarama-qarshiliklardan xoli bo'lgan jarayonlarda o'zgarish ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi.



Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha bo'lmish ijtimoiy tabaqalashuv haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan».

Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoev «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz» asarida fan va siyosatning o'zaro munosabati masalasiga to'xtalar ekan, fan davlatga, xalqqa, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim ekanligini alohida ta'kidlaydi. O'z fikrining ishoti sifatida Abu Rayhon Beruniyning o'n asr burun aytgan fikrini keltirib o'tadi: «Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi».<sup>2</sup> Bundan ko'rinadiki, allomaning fikrlari bugungi kun uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

## ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARI:

### O'n ikki ming teriga yozilgan kitob

Podshoh Doro ibn Doro xazinasida «Abisto» (Avesto)ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan yozilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar Maqduniy otashxonalarini vayron qilib, ularga xizmat qiluvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuhorgan edi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri «Abisto»ning beshdan uch qismi (ya'ni, o'n sakkiz naski) yo'qolib ketdi. «Abisto» o'ttiz nask edi, majusiylar qo'lida chamasi o'n ikki nask (qism) qoldi.

### Yil va fasllar

Quyoshning burjlar falakidagi harakati ul-kullga (kull-hamma, barcha, butun) qarshi harakat qilib, qaysi nuqta bo'lsa ham uning harakatining boshlangan joyi, deb faraz etilgan nuqtaga qaytib kelgunicha o'tgan (muddatda) yil deyiladi. Yil to'rt fasl-bahor, yoz, kuz, qishni va ularning to'rt xil tabiatlarini o'z ichiga olib, qaerdan boshlangan bo'lsa, shu erda tamom bo'ladi.

## Suvning sho'rligini kamaytirish

Agar sho'r suvli quduqlarga yaxshilab quritilgan mumdan bir necha ratl tashlansa, suvdagi sho'rlik kamayishi mumkin. Hatto tajribachilar: «Agar mumdan nozik bir idish yasab, dengiz suviga tashlansa, og'ziga chiqmaydigan bo'lsa, uning ichiga sizib o'tgan suv, albatta, shirin bo'ladi», deydilar. Chunonchi, kuz va yozda Tinch ko'liga Nil suvi ko'p aralashsa, shirin bo'ladi yoki aksincha, kam aralashsa, juda sho'r bo'ladi.

### Xushbo'y suv

Misrda bir tog' etagida ibodatxona yaqinida «Pok» deb mashhur bo'lgan hovuzga tog' tagidagi buloqdan shirin, xushbo'y suv oqib turadi. Qachon biror isqirt, iflos, kir odam unda yuvinsa, suvning ta'mi o'zgaradi, badhid bo'ladi. To suvi bo'shatilib tozalanmaguncha, o'shanday hid chiqaveradi, tozalansa, xushbo'ylikka qaytadi.

### Ochni to'ydir

Xalifa Umar ibn Abdulaziz o'g'li Abdullohning ming dirhanga bir qimmatbaho toshni sotib olganini eshitib, o'g'liga xat yozibdi: «Menga yetib kelgan xabarga qaraganda, bir uzuk olibsan. Senga nasihatim shu, darhol o'shani sotib, uning qiymatiga mingta ochning qornini to'yg'az. O'zingga bo'lsa, kumushdan uzuk qildir, uning ko'zi ham o'zidan bo'lsin». Abdulloh otasi aytganday qilibdi.

### Suqrotning javobi

Qadimgi yunonlarda teriga yozish odati bo'lmagan edi. Keltirilishicha, Suqrot dan bu haqda so'rashganda: «Ilmni tirik kishilar qalblaridan o'lik qo'ylarning terlariga ko'chirmayman», degan ekan.

### Yomonning kasofati

Bir kishi, ittifoqo, o'zi tanimagan bir guruh bilan hamroh bo'lib qoldi. Bu kimsalar qaroqchilar bo'lib, bir qishloqni bosib, xarob qilib qaytayotgan edilar. U kishi o'g'rilar bilan birga biroz yo'l bosgach, qasoskorlar yetib kelib, ularni qo'lga oldi. Bu kishi garchi o'g'rilarga sherik bo'lmasa ham, ularga qo'shilgani uchun azobga duchor bo'ldi.

### Nomus

Malika Kleopatra (o'z o'lkasiga yopirilib kelayotgan) dushman bo'lmish Avgust qo'liga tushib, nomusi poymol bo'lishidan qo'rqib, ikkala ko'kragiga zaharli ilon qo'ygan ekan.







Uning huzuriga kirishganda, u toj kiyib boshi bilan o'ng qo'liga suyanganicha o'tirganmish. Shu ko'yi dushman qo'liga tushib sharmanda bo'lmasdan, obro'sini saqlab qolgan ekan.

### Ma'rifat

Ma'rifatdagi darajalarni bir-biridan ortiq qo'ymoqchi bo'lgan kishilar uchun shunday masal to'qilgan: Qorong'u kechada shogirdlari bilan yo'lga chiqqan bir kishi yo'l ustida tik turgan narsani ko'rib cho'chigan va uning nima ekanligini aniqlashni buyurgan. Bir shogird: «Nima ekanligini bilolmayman», degan, ikkinchisi: «Uni bilishga qudratim ham etmaydi», deya to'g'risini aytgan. Uchinchisi esa: «Bilishning foydasi yo'q, chunki tong yorishgach, ma'lum bo'ladi-qo'yadi» degan. Demak, uch shogirdning ma'rifati qisqalik qilgan. Birinchisi-ilmsizligi, ikkinchisi-ojizligi, uchinchisi-ishni keyinga surib, ustozlari oldida ojiz ekanliklarini ko'rsatishgan. Ammo to'rtinchisi aniq javob bermagan va shubhali narsaga yaqin borib, uning o'ralashib ketgan qovoq palagi ekanligini ko'rgan va uni tepib yuborgan. Shunday qilib, shogird o'zining ma'rifatliligi bilan ustozini xursand etgan ekan.

### Nechta kamolot davri mavjud

An-Notiliy shunday degan: «Inson uchun uchta kamolot davri mavjud. Biri-balog'atga yetishi, ya'ni o'zi kabi bironing undan bo'lishi mumkin bo'ladigan vaqt bo'lib, ikkinchi yetti yillikning (sobuning) boshidir; ikkinchi «kamolot» tafakkur quvvati bo'lib, uning aqli quvvatdan fe'lga chiqadigan vaqti, ya'ni oltinchi yetti yillikning boshidir; uchunchi kamolot - odam yolg'iz bo'lsa, o'zini, uylangan bo'lsa, oilasini, podshoh bo'lsa, fuqarosini kutishga yaraydigan vaqti». An-Notiliy «kamolot» muddatini bir yuz qirq yil degan, ya'ni inson shu yoshgacha yashashi mumkin ekan.

### Quloq va ko'zdan qo'rqamiz

Jamil al-Azariy deydi: «Xursandchilik manzilida bo'lsak ham, quloq va ko'zdan qo'rqib turamiz». Chunki ko'z kuzatuvchi a'zo sanaladi. Quloq sezgisi teshigi rog'alari esa quloq soladi - undan hech narsa yashirin qolmaydi.

- Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga (ko'r-ko'rona) qarshilik ko'rsatma.

- Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir.



- Kichik narsaga e'tiborsiz qarama, uning foydali o'rni bor, katta ishning kerakli joyi bor.
- Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzaldir.
- Ehsan qilgan kishining minnati ehsanini yo'qqa chiqaradi.
- Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar.
- Yolg'on doim rostdan yengiladi, u xuddi suv yuzasidagi ko'pkdek yo'q bo'lib ketadi.
- Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.
- Bilmaganimiz sababli bilgan narsalarimizni aytmay qo'yishimiz ham yaxshi emas.
- Har bir insonning qadr-qimmatini o'z ishini qoyil qilib bajarishida.
- Donishmand va olimlar xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni yurgizadi, yomonini yo'q qiladi.
- Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bormaydi.
- Asosi bo'lmagan fandan voz kechsa ham bo'ladi.
- Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.

**Tayanch iboralar:** Beruniy, G'azna, Hindiston, Osor al-boqiya, Ma'mun, munajjimlik, Ptolemey, Almagest.

### **Nazorat savollari:**

1. Abu Rayhon al-Beruniy qachon qayerda tavallud topgan?
2. Mineralogiya asari haqida gapiring?
3. Beruniy inson kamolotining asosi nima deydi?
4. Beruniy Mas'ud G'aznaviyga atab qanday asar yozgan?
5. Beruniyning geografiyaga oid asarini ayting?
6. Beruniyning fikricha, ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch nima?
7. Beruniy inson sezgilari haqida qanday fikrlarni ayt o'tgan?

# ABU ALI IBN SINONING FAOLIYATI VA ILMIY MEROSI

## REJA:

1. Abu Ali ibn Sinoning hayoti va faoliyati.
2. Ibn Sinoning mamlakatni boshqarishda iqtisodiyot, siyosat va boshqa omillarning ahamiyati haqidagi qarashlari.
3. Ibn Sinoning ilmiy merosi.

**Maqsad:** *Talabalar Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ijodi haqida ma'lumotga ega bo'lish bilan birga, uning jahon tibbiyoti tarixida tutgan o'rni va rolini anglab yetishlariga erishish. Shu bilan birga ibn Sino asarlarining sotsial ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*



Sharq va Yevropada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan «Shayx-Ur-Rais», Sharqda «Olimlar boshlig'i», Yevropada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. U 980 - yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida tug'ilgan. Uning to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan inb Ali ibn Sinodir. Oti Husayn, otasining ismi Abdulloh edi. Husayn 5 yoshga kiringach, Ibn Sinolar oilasi poytaxt-


Buxoroga ko'chib keladi va uni o'qishga beradilar. Ilmga chanqoq Ibn Sino 10 yoshga yetar-yetmas, «Qur'on» va adab darslarini to'la o'zlashtiradi. Ayni paytda u hisob va al-jabr bilan ham shug'ullanadi, arab tili va adabiyotini mukammal egallaydi. Ibn Sinoning mutolaasi zo'r, mehnatsevar edi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinonig ilm sohasidagi dastlabki ustozlari Abu Abdulloh Notiliy el orasida hakim va faylasuf sifatida mashhur bo'lgani uchun otasi

Ibn Sinoni unga shogirdlikka beradi. Notiliyning qo'liga olim mantiq, handasa, falakiyotni o'rganadi va ba'zi falsafiy masalalardan ustozidan ham o'zib ketadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab maktab, madrasa, kasalxonalar, nodir kitoblar saqlanadigan kutubxonalar bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarda oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. Ilm olish uchun chuqur qiziqishi bo'lgan Ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi.

Abu Ali ibn Sino, ayniqsa, tib ilmini chuqur egallaydi, unga bu sohada ta'lim bergan kishi buxorolik mashhur tabib Abu Mansur Qamariy bo'ldi. Ibn Sino bu kishidan ko'p tabobat sirlarini o'rgangan. Ibn Sino 17 yoshidayoq Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida tanilgan. O'sha kezlarda hukmdor Nuh ibn Mansur betob bo'lib, saroy tabiblari uni davolashga o'z bo'ladilar. Dovrug'i butun shaharga yoyilgan yosh tabibni amirni davolash uchun saroyga taklif etishadi. Uning muolajasidan so'ng bemor tezda sog'ayib, oyoqqa turib ketadi. Evaziga ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sababi somoniylarning kutubxonasi o'sha davrda butun O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalardan biri edi. Ibn Sino bir necha yil davomida shu kutubxonada kecha-yu kunduz mutolaa bilan mashg'ul bo'lib, o'z davrining eng o'qimishli, bilim doirasi keng kishilardan biriga aylandi va shu paytdan boshlab ilmsevar olim o'rta asr ijtimoiy qarashlarini mustaqil o'rganishga kirishdi. U yunon mualliflarining, xususan, Aristotelning «Metafizika» asarini berilib mutolaa qildi. Lekin kitob bayonining aksariyati yosh olimga tushunarsiz edi. Tasodifan yosh olimning qo'liga Abu Nasr Forobiyning «Metafizikaning maqsadlari haqida» kitobi tushib qoladi va uni o'qib chiqibgina ibn Sino metafizikani o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Buyuk olim zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda oladi. Olimning ilmiy ijodi 18 yoshidan boshlanadi. IX-asr oxiri X-asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat







murakkablashadi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga - Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asari «Tib qonunlari», «Ash-shifo» kitoblari ustida ish olib boradi. U yerda Ibn Sino, asosan, matematika va astronomiya bilan shug'ullanadi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida Ibn Iroq va Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ibn Sino Abu Sahl Masihiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oladi. Xorazmshoh vaziri Abul Husayn as-Sahliy ilmlarni sevuvchi kishi bo'lganidan, Ibn Sino u bilan do'stlashadi va unga atab alkimyogarga oid «Risolai eliksir» (Eliksir haqida risola) nomli asar yozadi. Mahmud G'aznaviy 1017 - yil Xorazmni o'ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o'z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G'aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'ladi. Ibn Sino tez orada Xorazmni tark etib, Movarounnahr va Eron yerlarini kezadi. Mahmud G'aznaviyning ta'qiblari oxir-oqibatda uni Xamadon shahriga olib keladi. Xamadondagi to'qqiz yillik (1015-1024 yillar) hayoti davomida ibn Sino Xamadon hukmdorining tabibi va vaziri bo'ldi. Siyosiy kelishmovchiliklar natijasida u goh o'z lavozimidan ayrilar, goh yana joyiga qaytardi. Bularning hammasi uni umrining so'nggi yillarida Isfaxonga kelishiga undadi. U erda Amir Ali al-Davla allomani iliq qabul qildi. Isfaxon davri ibn Sino ijodida juda mahsuldor bo'ldi. Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Uning 242 dan ortiq asarlari mavjud bo'lib, 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematikaga, 1 tasi musiqaga, va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Ma'lumki, ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan

ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir». Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, inson o'z bilimining haqiqiyiligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:


- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

- ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;  
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;  
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;  
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Shuningdek, Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. «Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir». Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh





mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mutadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino har bir axloqiy xislatning ta'rifini beradi: mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat; g'azab – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat.

Ziyraklikni narsalar va xatti-harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi, kishilar baxtsizlik azob-uqubatga duchor bo'lganda, achinish, ular bilan xushmuomala bo'lishga undovchi insoniy quvvat. Kamtarlikka xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolotga yetishishiga to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehnga, o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni - adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishni ham kiritadi. Chunki har bir kishi jamiyatda odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi.

Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo'shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o'zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o'zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmi do'st muhim rol o'ynaydi, deydi. Insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har


bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur, deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi.

Ulug' mutafakkirning sotsiologik qarashlari o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetik, ya'ni o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatini ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deydi. Konservativ teologiya nazariyasida mavjud bo'lgan hamma narsalarning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi. Ibn Sino Allohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Alloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok eta olinishi kerakligini ham asoslab beradi. Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning, albatta, bir kun kelib yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda G'ayritabiiy narsalarning yo'qligini ta'kidlaydi. Bu fikr bo'lajak sotsiologlarga jamiyat hodisalarini o'rganishda faqat isbot etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy guruhlar muammolarini taqiq etish maqsadga muvofiq emasligini uqtiradi.

Al-Forobiydan farqli o'laroq Ibn Sino sotsial-falsafiy ta'limotlar bayon etilgan maxsus kitoblar yozmadi. Nazariy fanlarga qiziqish unda asosiy o'rin tutardi. Xayoliy davlat va xalifalikka «Salomatlik kitobi» ning so'nggi qisminigina bag'ishladi. «Payg'ambarlik haqidagi ta'limot» va «Najot» kitobidagi bir bo'lim payg'ambarlik konsepsiyasiga bag'ishlangan. «Siyosat haqida kitob» ida u oiladagi munosabatlar tamoyillarini tahlil qildi. U al-Forobiy singari payg'ambarni faylasuf-hukmdor vositasida ta'riflab beradi. «Payg'ambarlik haqida ta'limot»ida u ta'kidlaydiki, payg'ambarlar majoziga e'tibor beruvchi va ularning ichki, yashirin ma'nosini izlovchi kishilargina haqiqatga erisha oladilar.







Shuni ham nazarda tutish lozimki, uning qarashlari shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir etgan al-Forobiy edi. U davlat aholisini uch tabaqaga bo'ladi: hukmdorlar, hunarmand va jangchi-qo'riqchilar. Bu tabaqalarning har biri o'z hukmdoriga ega. U o'z navbatida alohida guruhlar uchun tabaqalar ichida boshliqlarni tayyorlaydi. Har bir jamiyat a'zosi davlat manfaati uchun umumiy foydali mehnatda ishtirok etib, o'z oldiga qo'yilgan vazifani ado etadi. Ezgulik yo'li fuqarolik burchlarini bajarish bilan bog'liq, ya'ni umumiy foydali mehnat natijalariga bog'liq holda ma'lum manfaatga erishish. Hukmdor o'z fuqarolik burchlaridan bo'yin tovlovchilarni kuch bilan majbur qilish huquqiga ega, chunki davlatda bekorchilikka o'rin yo'q.

Ibn Sino tasavvuridagi davlat - nafaqat boshqaruv vositasi, balki ba'zilarining boshqalar hisobiga gullab - yashnashi emas, adolat g'oyalari yo'lida majbur qilish vositasidir, deb hisoblaydi.

Xalq manfaati g'oyasiga tayangan sotsial tartibning mohiyatini ibn Sino jamiyatda hamma narsa o'z joyida bo'lishi hamda har bir inson o'z huquq va majburiyatlarini bilish uchun doimo puxta va barqaror bo'lishi lozimligini aytadi. Bu jamiyatda sotsial chegaralovlar aniq ko'rsatilgan bo'lib, ular jamiyat barqarorligi uchun zarurdir. Unda bosh hukmdor turli tabaqalar va toifalarning boshliqlariga tayanadi. Bundan ko'rinadiki, ular bosh hukmdor singari o'z donishmandliklari va odilliklari tufayli hokimlik huquqiga ega ekanliklarini isbotlaganlar.

Aytish mumkinki, faol tabiblik amaliyoti, qarashlarining umuminsoniylikka yo'naltirilganligi uning o'z ixtiyoridan tashqari yashash sharoiti ta'minlana olmaydiganlarga munosabatini belgilaydi. Bular davlat g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan bemorlar va yordamga muhtoj kishilardir. Ibn Sino jismoniy va aqliy yetishmovchiligi tufayli o'z fuqarolik burchlarini to'liq bajara olmaydiganlarni o'ldirish nohaqlik, deydi.

Uning fikricha, qo'riqchilar umumiy mafaatga intilishda tartibni ta'minlaydilar. Soliq va jarimalarni yig'adilar hamda qonunning bajarilishini nazorat qiladilar. Ularning asosiy burchlari sudxo'rlik, talonchilik va o'g'rilikka qarshi kurash hisoblanadi.



Ibn Sino sotsial qarashlarida turmush va oilaviy hayotning qoida va tartiblarini ko'rib chiqish bilan bog'liq uy xo'jaligi alohida o'rin tutadi. Turmush kechirish inson zotini saqlash va davom ettirishni ta'minlaydi. Oila davlatning asosi hisoblanadi. Oilada er - xotin, ota-ona, farzandlar o'rtasidagi munosabatlar shakllanadi va belgilanadi, deb hisoblaydi mutafakkir. Bu munosabatlar ko'p hollarda ularning o'z fuqarolik burchlarini bajarishlari imkoniyatini belgilaydi. Ibn Sino turmushning sofligi oiladagi sog'lom munosabatlarning asosi sifatida zarurligini ta'kidlaydi. Shuning uchun davlat oila-nikoh munosabatlariga zarar yetkazuvchi har qanday axloqsizliklarga qarshi kurashishi lozimligini uqtiradi. Ibn Sino agar qandaydir yarashuv ehtimoli bo'lmasagina, ajrashish ehtimolining borligi, biroq u farzandlar uchun salbiy oqibatlar olib kelishini ko'rsatib o'tadi.

**Tayanch iboralar:** ibn Sino, Avitsenna, olim, Shayh-ur-ra'is, tib qonunlari, tibbiyot, inson, Aristotel.

#### **Nazorat savollari:**

1. Ibn Sino yashagan yillar?
2. Ibn Sinoning eng katta asari?
3. Mutafakkirning bola tarbiyasi haqida qanday fikrlari bor?
4. Mahmud G'aznaviy kim?
5. Ibn Sino qachon qayerda vafot etgan?
6. Ibn Sino turmushning sofligini nimada deydi?
7. Ibn Sinoning fikricha davlatda nimaga o'rin yo'q?

## XII-XIV ASRLAR MARKAZIY OSIYODA IJTIMOIIY- AXLOQIY G'UYALARNING RIVOJLANISHI

### REJA:

1. Tasavvuf va yassaviylik ta'limotida sotsiologik qarashlar va ularning ijtimoiy mohiyati.
2. Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandiy asarlari va fikrlarining sotsial o'rni.
3. Validdin Abdurahmon ibn Xoldunning sotsiologik qarashlari.

*Maqsad: Talabalarga rivojlangan o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Sharqdagi sotsiologik ta'limotlarning rivojlanish jarayonlari va ushbu ta'limotlarni davlatchilik asoslariga ta'sirini tushuntirish hamda allomalarning ilmiy merosini o'rgatish.*

Islom falsafasida «Qur'on», fiqh, axloq va boshqa masalalarni sharhlash va izohlashda bir-biriga zid bo'lgan tamoyillar paydo bo'lib, kalom, ya'ni ilk islom diniy-falsafiy ta'limoti vujudga keldi. Ilk islom aqidalariga qattiq rioya qilishni ilgari suruvchi mutakallimlar insonda iroda va fikrlash erkinligini Allohga qarama-qarshi qo'ymagan holda himoya qiluvchi muttaziylilar ta'limoti, ruhiy poklanish va kamolot bosqichlaridan o'tib, ilohiy haqiqatga erishish to'g'risidagi so'fiylik yoki tasavvuf ta'limoti VIII asrdayoq arablar bosib olgan barcha hududlarda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda keng tarqaldi. Bu ta'limot XIV asr oxirlaridan boshlab bu erda yangi bosqichga ko'tarilib rivojlandi. Tasavvuf islom asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim bo'lib, unda qadimgi yunon ta'limoti-neoplatonizm, iudaizm, xristianlik, zardushtiylik, ayniqsa, buddizmning ta'siri seziladi.

**Tasavvufda insonning kamoloti va Allohga ruhan erishuv yo'llari to'rt bosqichdan iboratdir:**

*Birinchi bosqich* shariat deb atalib, bunda, avvalo, shariatning barcha talablarini chin qalbdan bajarish va unga to'la bo'ysunish talab etiladi;

*Ikkinchi bosqich* tariqat bo'lib, bunda murid o'z shaxsiy istaklaridan voz kechib, o'zini pir ixtiyoriga topshirishi kerak;


*Uchinchi bosqich* ma'rifat bo'lib, bunda so'fiylar koinotning birligi xudoda mujassam bo'lishini, olam xudoning emonatsiyasidan, ya'ni nurlanishidan vujudga kelishini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, balki qalb bilan anglab olishlari kerak;


*To'rtinchi bosqich* haqiqatdir. Bunda so'fiy shaxs sifatida tugab, xudoga - mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, Allohga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur.

Tasavvufning nazariy va amaliy tomonlari bo'lib, amaliy tomoni bevosita Allohga erishuv jarayonidir. Bu yo'lda so'fiylik qoidasini bajargan holda juda ko'pchilik tasavvufga ishonadilar. Keyinchalik amaliy so'fizm, so'fiylikning nazariy masalalari bilan shug'ullanish esa so'ngroq vujudga kelgan. So'fizm nazariyotchilari o'z davrining bilimni puxta egallagan, ilmlardan xabardor, bilimdon-mutafakkir kishilar bo'lganlar. Bulardan Abdul Hamid G'azzoliy (1058-1111), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Yahyo (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240) kabilarni ko'rsatish mumkin. Ular so'fizmning nazariy masalalari bo'yicha qator risolalar yaratganlar.

So'fiylik nazariyasi dastlab xalifalikning markaziy shaharlari Bog'dod, Damashq, Madina kabi shaharlarida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, sharq o'lkalarida keng tarqaldi. So'fiylar to'xtovsiz sayohatda bo'lar, turli shaharlarda bilim, dinga berilgan shaxslar bilan uchrashuvlar, muloqatlar o'tkazar edilar.

So'fiylik ta'limoti hukmron mafkuradan farq qilgani holda Allohni haqiqat deb talqin etgani, jannat-do'zaxni inkor qilgani, barcha dinlarni teng deb bilgani, haqiqatga erishish yo'lida umumiy diniy aqidaga emas, shaxsiy tajriba-intuitsiyaga asoslangani, islomiy qoidalariga befarq qaragani uchun ortodoksal islom rahbarlari tomonidan ayrim hollarda ta'qib qilindi, ayrim so'fizm mafkurachilari jazolandi ham. Bistamiy qoralandi, Mansur Xalloy o'lim jazosiga hukm qilindi. Xurosonda Aynul Kuzrat ham o'ldirildi. So'fiylar xalqqa yaqin bo'ldilar, uni himoya etishga harakat qildilar. Movarounnahrda mo'g'ullar





hujum qilgan vaqtlarda ayrim so'fiylar Vatan himoyasi yo'lida qurbon bo'ldilar.

Movoraunnahrda tasavvuf ta'limotlari X asrdan boshlab keng yoyila bordi. Tasavvuf ta'limotini rivojlantirishda Movorounnahrlik va Xurosonlik yirik so'fiylik ta'limotchilarining xizmatlari katta bo'lgan. Lekin bu yerda mustaqil so'fiylik maktablari XI-XII asrlardagina vujudga kela boshlagan. Masalan, so'fizm ta'limotini ishlab chiqishda Hakim at-Termiziyning 80 ga yaqin risolalari muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rta Osiyo tasavvufining rivojlanishida Yusuf Hamadoniy ta'limoti muhim rol o'ynaydi. Bu ta'limot, umuman, O'rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf maktablariga juda katta ta'sir ko'rsatdi. U g'arbiy Eronning Hamadon shahrida tug'ilib, o'sgan bo'lsa-da, umrining asosiy qismi va faoliyatini O'rta Osiyoda o'tkazgan. U hunarmandchilik - kosibchilik bilan shug'ullangan. Uning ta'limoti hunarmandlar orasida keng tarqalgan va asosan, ularning manfaatlarini ifodalagan.

Yusuf Hamadoniy ta'limotida vatanparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan bo'lib, u shogirdlari bilan birga qo'lida qurol bilan mo'g'ullar hujumiga qarshi kurashdi. Hamadoniy ta'limotidan O'rta Osiyoda so'nggi tasavvuf maktabi - Yassaviylik va Naqshbandiylik kelib chiqdi. Birinchisi, Xoja Ahmad Yassaviy, ikkinchisi Abdulxoliq G'ijduvoni va keyinroq Bahovuddin Naqshband nomlari bilan bog'liqdir. Bu tasavvuf maktablariga to'xtashdan avval XI asrlardan boshlab O'rta Osiyoda Qadariya tasavvuf ta'limotining tarqala boshlanganini qayd etib o'tmoqchimiz.

O'rta Osiyo muzofotida birinchi vujudga kelgan yirik so'fiylik tariqati Yassaviylikdir. Bu tariqatga Ahmad Yassaviy (1105-1165) asos solgan. Yassaviy Yassi (Turkiston) shahrida ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Uning otasi Ibrohim Yassi (Sayram) shahrida uzoq yil shayxlik qilgan va ko'p muridlarga ega bo'lgan.

Yassaviy Buxoroda mashhur ulamo Yusuf Hamadoniydan so'fiylikning asoslarini o'rgandi, ustozining o'limidan so'ng o'rniga biroz vaqt o'rinbosar bo'lib qoldi, so'ng o'z yurti Turkistonga qaytdi. Yassaviy ta'limoti uning turkiy tilda yozilgan «Devoni hikmat» asarida bayon etilgan. Bu asar ko'chmanchi va



o'troq turkiy xalqlar o'rtasida so'fiylik ta'limotini targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Yassaviy ta'biricha, qiyinchilikka chidamli, og'ir hayotga o'rgangan odam haqiqiy so'fiy bo'la oladi va u xudo vasliga erishadi. Bu dunyo bevafoidir. Yassaviy g'oyalari O'rta Osiyoning turli shaharlarida uning shogirdlari tomonidan keng targ'ib qilindi. Shulardan biri Sulaymon Boqirg'oniy bo'lib (vafoti 1192-yilda), u o'zining turkiy tilda yozilgan «Boqirg'on», «Oxir zamon» asarlarida so'fizm va yassaviylikni targ'ib qilgan.




Markaziy Osiyoda shakllangan eng yirik so'fiylik tariqatlaridan yana biri kubroviyadir. Unga Xorazmda XIII asrning boshlarida **Najmiddin Kubro** (1145-1221) asos solgan. Kubroviya

tariqati O'rta va Yaqin Sharq o'lkalarida ham keng tarqalgan. N. Kubro Xivada tug'ilib so'fiylik ta'limotini Misr, Tabriz, Hamadon shaharlarida egallagan. Ko'hna Urganchda o'z ta'limotini rivojlantirib, shu yerda yangi so'fiylik tariqatiga asos solgan. Mo'g'ullar hujumi davrida o'z muridlari bilan shahar himoyasida faol ishtirok etib qurbon bo'lgan. Kubro bilishning maxsus yo'lini rivojlantirib, so'fizm rivojiga katta hissa qo'shgan. U o'zining qator risolalarida Kubroviya tariqatining qoidalarini ishlab chiqqan. Bu qoidalar so'fiylikning ham nazariy, ham amaliy masalalarini o'z ichiga oladi. Kubroviya tariqati O'rta Osiyo, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, Eronda tarqaldi va mayda so'fiylik oqimlarining vujudga kelishiga sababchi bo'ldi. Bu oqimlar Hindistonning Dehli, Bihar shaharlarining madaniy hayotiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

#### **Kubroviya tariqati odoblari (qoidalari):**

1. Tavba - murid qilgan gunohlari uchun pushaymon bo'ladi.
2. Zuhl fi dunyo - murid mol-mulk, boyligidan voz kechadi.
3. Tavakkul al-Allah - murid xudoga chuqur ishonib, unga e'tiqod qiladi.





4. Qanoat - murid mol-mulkdan voz kechib, sabr-qanoat qilishi zarur.

5. Uzlat - murid ko'proq yolg'iz qolib, o'zini botinan chiniqtirib borishi kerak.

6. Mulozimot al-zikr - murid xudo nomini doimo tilga olib, uning sha'niga zikr samo' qilish shart.

7. Tavajju' al-Allah - murid butun vujudi bilan Allohga murojaat qilib yurmog'i lozim.

8. Sabr - murid shahvoniy, havoii havaslardan qutilmog'i lozim.

9. Murokaba - murid o'z qalbini pastkashliklardan saqlamog'i, riyo va makr-u hiylalardan, nayranglardan xalos qilmog'i shart.

10. Rido - Xudoni tanigan (orif) va kone', deb hisoblanmog'i lozim.

Butun musulmon sharqida eng keng tarqalgan yirik so'fiylik tariqati naqshbandiylik ham O'rta Osiyoda shakllandi. Naqshbandiylik ta'limotining boshlang'ich kurtaklari buxorolik mashhur tasavvufchilar Yusuf Hamadoniy (XII) hamda Abdulxoliq G'ijduvoniy (XII-XIII) ta'limotlarida olg'a suriladi. Lekin bu shakllanayotgan yangi so'fiylik tariqati **Bahovuddin Naqshband** (1318-1389) tomonidan mukammallashtirilgan. Bahovuddin Naqshband Buxoroga yaqin Kasri Hinduvon qishlog'ida hunarmand oilasida tug'ilib o'sdi. So'fiylik ta'limotini, asosan, Buxoroda, O'rta Osiyo shaharlarida Sayyid Amir Koluliy, Orif Diggironi, Qosimshayx va Xalil otalardan o'rgandi. O'z ta'limotida yassaviylik va g'ijduvoniy ta'limotlarining ayrim tomonlarini birlashtirdi.

Naqshbandiylik tariqati ta'limoti Alloh yagona, ikki xil olam yo'q, shuning uchun moddiy olam talablariga moslashib yashamoq, uning lazzatidan bahramand bo'lmoq, faol mehnat qilish, lekin boylikka intilmaslik lozim deb hisoblaydi. Naqshbandiylik 4 tamoyil asosida hayot kechirishni tavsiya etadi.


1. Xilvatda anjuman - muridlar doimo muloqotda, birgalikda jamoada yashamoq, ular dardiga ham, quvonchiga ham teng sherik bo'lmoq, boylikka intilmaslik, kambag'alarga yordam bermoq.

2. Safar dar vatan - hayotni o'rganish, safarda, sayohatda bo'lish, tabiatdan zavqlanish, his-tuyg'udan voz kechmaslik, bilimni oshirish, g'am-alamga hadeb berilavermaslik.

3. Nazar dar qadam - har bir qadamni o'ylab bosish, foydali ishlar qilish, yaxshilikka mehnat bilan intilish, bekorqa vaqtni o'tkazmaslik.

4. Xush dar dam - inson bu olamning yakuni, u har doim tabiatdan, uning noz-ne'matlaridan foydalanishi, bahra olishi, qiyinchilikdan qo'rqmasligi, o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishi lozim. B.Naqshband «qo'l mehnatda, dil Allohda bo'lsin» deydi. Xudoga munojot, zikr, hamd-sanolarni ovoz chiqarmasdan izhor qilishga da'vat qildi.

Xullas, naqshbandiylik insonni ulug'laydi, uning hayotga, tabiatga faol munosabatda bo'lishini targ'ib qiladi. U bunday ta'limotlari bilan, bir tomondan, hukmron din arboblarning noroziligini, ikkinchi tomondan, aholining ijobiy munosabati, xayrixohligini kuchaytirdi. Bu ta'limot Bahovuddindan so'ng uning shogirdlari Alauddin Attor (vafoti 1440 yil) va Muhammad Porso (1345-1420) tomonidan ma'lum tartibga solindi.



**Baxouddin Naqshband majmuasi. Samarqand**

Mo'g'ullar hukmronligi davrida naqshbandiylik g'oyalari O'rta Osiyo madaniy hayotida xalqni uyushtirishda, uni mustaqillikka chorlashda ijobiy rol o'ynaydi. Temuriylar davrida Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror, Alisher Navoiy tomonidan



yanada bu oliy g'oya qo'llab-quvvatlandi. XV asrning ko'p shoir, mutafakkirlari bu g'oyani oliy bosqichga ko'tardilar. Naqshbandiylik ustun ta'limot sifatida 2-3 asr davomida nafaqat O'rta Osiyoda, balki Hindiston, Eron, Kavkaz orti, arab mamlakatlarida ham keng targ'ib qilindi.

O'rta Osiyoda turli so'fiylik ta'limotlarining ta'siri XIX asrlarga qadar davom etganini ko'ramiz. So'fizm musulmon mamlakatlari hayotida muhim ijtimoiy-mafkuraviy va madaniy o'rin egalladi. U badiiy adabiyot, falsafa, musiqa, maorif, ta'lim-tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Turli mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida, shubhasiz, so'nmas iz qoldirdi.

XVI asrdan keying davrlarda so'fiylikda an'anaviylikdan chekinish, jaholatparastlikka burilish yuz berdi.




Sharqning taniqli olimlaridan bo'lgan Ibn Xoldun ilmiy faoliyati ham asosan ijtimoiy masalalar tahliliga bag'ishlangan. Ibn Xoldun 1332-yil Tunisda arab oilasida dunyoga keldi. An'anaviy diniy ta'limga ega bo'ldi. Falsafanini o'rgandi. U yigirma yoshida siyosiy faoliyatga oshno bo'ldi. Avval Tunis sultoni Abu Is'hoqning, keyin esa o'n yil davomida Al-Ma'riyning kotibi bo'ldi. Ispaniyada Granada sultoni

Muhammad saroyida xizmat qildi. U yerda turli diplomatik vazifalarni bajardi. So'ngra Buja sultoni (Jazoirda) Abu Abdulloh huzurida xizmat qildi.

U 1383-yilda Qohiraga ko'chib o'tdi va sulton Bakuka saroyida xizmat qildi. U yerda malikiylik huquqining buyuk qozisi qilib tayinlandi. U bir necha yil davomida Amir Temur huzurida xizmat qildi. 1406-yil Qohirada vafot etdi.

Ibn Xoldun mantiq va matematika, fizika va metafizika, siyosat va etika singari falsafiy fanlar bo'yicha maxsus kitoblar yozmagan. Ibn Xoldunning mashhur asarlaridan biri «Muqaddima» hisoblanadi. Ma'lum an'analar doirasidan




chiqqanda Ibn Xoldunning siyosiy-falsafiy realizmi insonni hayratda qoldiradi. Alloma insoniyat tarixiga ijtimoiy borliq sifatida o'z qarashlarini belgilashga harakat qilib, tarixni harakatga keltiruvchi kuchlar va uning umumiy qonuniyatlari haqidagi masalani maxsus ko'zdan kechirgan. «.....tarix fasafaning muhim asoslaridan biri va falsafiy fanlar qatoriga kirishga loyiq». Ibn Xoldun tarixni nazariy soha, fan darajasiga ko'tarishni istardi. Bundan tashqari, uning fikricha, tarix nafaqat sivilizatsiyasining nazariy komponenti, balki bu sivilizatsiyaning tadqiqot uslubi hamdir. Ko'pgina Yevropa tadqiqotchilari bejiz uni «zamonaviy tarix va tarix falsafasining otasi», deb atamaganlar. Vaqtdan o'zish sindromi-nafaqat hozirgi davr, balki XIV asr, ya'ni Ibn Xoldun timsolida o'z davri va mavjud intellektual rivojlanish darajasidan o'zib ketgan deb bilishgan davr uchun xarakterli tendensiya. Bu nuqtai nazar haqiqatga yaqinligini olish lozim.

O'rta asr musulmon jamiyatida deyarli diniy an'anadan mustaqil va sharq peripatetizmining kelgusi rivoji bilan bog'liq bo'lmagan fasafiy-sotsiologiya nazariyasi paydo bo'ldi. Ibn Xoldun mazmunan o'zi yashab, ijod etayotgan tarixiy davrdan kelib chiqib davlat haqida ta'limot yaratdi. Ibn Xoldun fikricha, davlat sababiyat qonuni amalda bo'lgan tabiiy va zaruriy insoniyat muassasasi emas, balki insoniyat sivilizatsiyasi mavjudligi imkonini beruvchi siyosiy va ijtimoiy birlik hisoblanadi. Aynan shu imkoniyat tsivilizatsiyasi uning tadqiqot predmeti «yangi fan» predmeti sanaladi.

Ibn Xoldun «Muqaddima» da nafaqat arab jamiyati haqidagi «teologiya» ta'limoti bilimdoni, balki musulmon madaniyati va falsafasini chuqur anglagan va ularni «sivilizatsiya» nazarida mujassamlashtirgan donishmand sifatida gavdalanadi. Uning ijtimoiy - sotsiologik ta'limoti «sivilizatsiya» (tamaddun) ni tadqiq etishga asoslangan. Sivilizatsiya va siyosatning boshqaruv san'ati sifatidagi uzviy aloqasi Ibn Xoldun qo'llagan tushunchalarning o'zidan ma'lum, «Umron» «madaniya»-shahar, davlat, fuqarolik jamiyatining sinonimi, shuningdek «xadara»-o'troq shahar hayotining sinonimi hisoblanadi. «Xadara» tushunchasi o'z navbatida mazmunan «tamaddun» yashash yoki





shaharda tashkil etilgan bo'lish iborasiga juda yaqin.

Ta'kidlash joizki, Ibn Xoldun fiqh va tafsir (qur'onni sharhlash) ning yirik bilimdoni bo'lgan, bu uning qozi va davlat arbobi martabasiga ko'mak berdi. Aynan davlat faoliyati tajribasi, mansabning turli tasodiflari uning insonning davlatdagi o'rni haqida realistik nazar tashlashi, inson fe'l-atvori sabablariga e'tibor berish imkonini berdi. Ibn Xoldun fikricha, ongli inson yuksak fikr va intilishlarini tashkiliy siyosiy muassasa bo'lgan jamiyat, davlatda amalga oshirishi va rivojlantirishi mumkin.

Ibn Xoldunning chuqur tarixiy madaniyati, diniy doktrina «umma» ni diqqat bilan o'rgangani, musulmon jamiyatining hamma sohalaridagi rivoji tahlili uning insoniyat sivilizatsiyasi amal qilishi xususiyatlarini to'laligicha aniqlash imkonini berdi. U bir qator asarlarida, davlat, fuqarolar, insoniyat sivilizatsiyasi haqida fikrlar bildirgan. Odatda insonparvarlikni ulug'lagan «yangi g'oya» larni Yevropa uyg'onishi bilan bog'laydilar.

Ayniqsa, bu g'oyalarni zamonaviy va zamondoshlarning «oshkoraligini» o'zida saqlagan, deb qabul qilish mumkin. Biroq Ibn Xoldun ijodidagi so'nggi ishlarida uning nazariyasi va ba'zi zamonaviy ta'limotlar bilan taqqoslov tendensiyasi, uni zamonaviy me'yorlar bilan o'lchashni kuzatish mumkin. Bu tendensiya, qoidaga binoan, shoshilinch xulosalar va ko'pincha u haqida to'g'ri bo'lmagan tasavvurga olib keladi.

Ibn Xoldun boshqaruv va maqsad bilan muvofiq davlatning uch turini farqlaydi: 1) boshqaruv usuli siyasan diniya - shariatga asoslangan; 2) siyasan aqliya- inson ongi yordamida o'rnatilgan, huquqqa asoslangan boshqaruv usuli; 3) siyasan madaniya- arab-musulmon faylasuflari (madina fadila) ideal davlati boshqaruvi usuli. Ko'ramizki, davlatning birinchi turi deganda Ibn Xoldun xalifalik (imomat)ni, ikkinchi turida- sultonlik, ya'ni kuchli asl davlatni nazarda tutadi. U davlatni birlashuv, tashkilotni talab etuvchi inson hayotining tabiiy natijasi sifatida ko'rib chiqadi. Bunda u «inson siyosiy mavjudot», deb hisoblagan faylasuflarga ergashadi. Bu kishilar, albatta, birlashishi, bu esa sivilizatsiya (madaniya) ekanini anglatadi.

O'zaro yordam kishilarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning zaruriy sharti

hisoblanadi. Mavjud hayotiy tajriba kishilarni o'zaro birlashishga undaydi. Bu nuqtai nazarni Ibn Xoldun kishilarning Allohning ixtiyori asosida mukammallikka erishish uchun birlashishi zaruriyati haqidagi an'anaviy tasdiq bilan asoslaydi.

Ibn Xoldun nazariyasidagi ikki holatni ta'kidlash lozim. Ular allomaning ijtimoiy-falsafiy yetukligini umumiy baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchisi, uning xalifalik sultonlikka transformatsiyalanadi, ikkinchisi, xalifalikda hal qiluvchi omil hisoblangan din uning sultonlikdagi juda muhim ahamiyatini saqlab qoladi, degan tasdig'i bilan bog'liq, ya'ni Ibn Xoldun din va hokimiyatning aloqasiga e'tibor qaratadi. Xalifalikning teokratik xarakteri sultonlik shaklidagi mutlaq monarxiya bilan almashtiriladi.


Shunday qilib, Ibn Xoldun fikricha, xalifalikning sultonlikka aylanishi tabiiy va muqarrar jarayondir. Sultonlik hokimi o'z fuqarolari manfaatini haqida g'amxo'rlik qilishi va hokimiyatni ushlab turishga qodir, buning uchun dindan foydalangani ma'qul. Dinning davlatdagi o'rni va rolining bunday talqini an'anaviy sunniylikning siyosiy doktrinasiga oshkora ravishda zid keladi.

Mag'rib mutafakkiri shariatning ideal me'yorlari bilan muvofiqlik va o'zgarib turuvchi tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liqligini hamda fiqhda rivojga ega davlatning mustahkamlash ishida besamara an'anaviy yo'nalish ekanini tushundi. Shuning uchun u «Muqaddima» da diniy huquqning siyosiy omil sifatidagi rolini maxsus ko'rib chiqmaydi. Uning davlat ta'limiga tarixiy yondashuvi shariatning me'yorlari va tarixiy voqe'lik o'rtasidagi uzilish doimo mavjud bo'lishi, shuning uchun davlat, hukumat va qonunlar tabiati odatda tasavvur etilganidan ko'ra murakkabroq ekanini tushunishga olib keladi.

Ibn Xoldun ta'limotining muhim jihatlardan biri davlatning rivoji va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rnatish hisoblanadi. Ibn Xoldun davlatni sivilizatsiya beshigi sifatida ko'rib chiqish bilan hukumat va ma'naviy nodiniy qadriyatlar - birinchi navbatda, fan va san'atning uzviy aloqasiga e'tibor qaratadi. Ibn Xoldun siyosiy vaziyat hamda fuqarolar va hukmdorlar o'rtasidagi uzviy aloqani ta'kidlaydi.

Uning fikricha, insonning davlatdagi ma'naviy hayoti,





umuman, madaniyat va muvofiq tarzda davlatning darajasi pasayishi bilan inqirozga yuz tutishini yaxshi biladi. Axloqiy va diniy iqlim ham unga bog'liq bo'ladi.

«Muqaddima» da fanning o'rni va roliga bag'ishlangan sahifalar juda qiziqarli hisoblanadi. Bu o'rta asr musulmon dunyosining g'oyaviy, zamonaviy tadqiqotlari uchun ham juda zarur manbadir. Mag'rib mutafakkiri fanlar bilan shug'ullanish inson uchun hamma sivilizatsiyalarda ham yetarlicha tabiiy, chunki uning fikrlash qobiliyati va ongi mavjud, deydi. Ibn Xoldunning ijtimoiy falsafiy qarashlari haqida fikr bildirishganda, ular, birinchi navbatda, uning davri - so'nggi arab xalifaligi davrini aks ettiradi, deb ta'kidlash lozim. Uning tarix falsafasida davlat rivojining asosiy tendensiyalarining mulohaza va tahlillari rivojlanishidagi kelgusi yo'lni aniqlashga intilishni ko'rish mumkin.

Ibn Xoldun an'anaviy-siyosiy doktrinani o'zgartirish zaruratini juda keskin his etgan. U sharq periparatlarining ijtimoiy xayolotlaridan ham qoniqa olmagan. O'sha davr tarixshunosligi dalillarni to'plash va mavhum mulohazalarga olib kelgan. Ibn Xoldun keng ma'noda o'z nazariyasining xarakteri an'anaga bog'liq emasligini yaxshi tushungan, shuning uchun u «Muqaddima» da bayon etgan qarashlarini tabiiy jihatdan to'g'ri hisoblab, o'zini yangi fan yaratuvchisi deb e'lon qildi.

**Tayanch iboralar:** tasavvuf, tariqat, so'fiylik, Ahmad Yassaviy, Kubro, ibn Xoldun, vatanparvarlik, mehnat.

### Nazorat savollari

1. Yassaviya va jamiyat?
2. Islomning sotsial mohiyati?
3. Jamiyatning sotsial munosabati?
4. Naqshbandiya va jamiyat?
5. Naqshbandiyada ilm-fan muammosi?
6. Kubroning sotsial qarashlari?
7. Ibn Xoldunning sotsial qarashlari nimalarda aks etgan?



## XIV-XV ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA SOTSIAL FIKRLARNING TARAQQIY ETISHI

### REJA:

1. XIV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy fikrlar taraqqiyoti.

2. «Temur tuzuklari» asari davlatni boshqarish yuzasidan muhim qo'llanma.

3. Abdurahmon Jomiyning ideal jamiyat haqidagi ta'limoti.

**Maqsad:** *Talabalarga XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoning milliy-ma'naviy tiklanishi, Amir Temur davlatining vujudga kelishi va jamiyat sotsial hayotidagi o'zgarishlarning ahamiyatini tushuntirishdan iborat. Shu bilan birga sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishi haqida ma'lumot berish.*

Jahon madaniyatini Muso Xorazmiy, Ismoil Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy kabi nomlar bilan bezagan Markaziy Osiyoning IX—XII asrlardagi madaniyati — Uyg'onish davri keskin ro'y bergan tarixiy voqealar tufayli birdan uzilib qoldi.

XIII asrning boshida Xorazmshohlar davlati Chingizxon qo'shinlarining dahshatli va ayovsiz hujumiga uchradi. Bu hujum 1219-yilda Xorazmshohlarning shimoliy chegarasidagi O'tror qal'asini zabt etishdan boshlandi va 1220-21-yillarda Xorazmshohlar markazi Ko'hna Urganch dushman qo'liga o'tdi. Xorazmshoh qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lishiga qaramay ichki nizolar va kelishmovchiliklarning kuchayganligi, qo'shinning shaharlar himoyasi uchun bo'lib yuborilganligi, birlikning yo'qligi Chingizxon hujumiga bardosh bera olmay tezda barbod bo'lishiga olib keldi. Shaharlar, madaniy markazlar vayron etildi, aholi qirg'inga uchradi. O'lka to'lig'icha mo'g'ullar mustamlakasiga aylandi. Markaziy Osiyoni turli tumanlarga bo'lib yuborgan mo'g'ul xonlari o'rtasidagi o'zaro nizolar va kurashlar ham avj oldi - bular hammasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi, madaniyat o'choqlari so'ndi. Juda ko'p madaniy boyliklar, ilm maskanlari, madrasa va



kutubxonalar yo'q qilindi, san'at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, me'mor va musavvirilar o'ldirildi, tasodifan omon qolganlari esa Shimoliy Hindiston, G'arbiy Eron va Xurosonning turli viloyatlariga qochib, jon saqlab qoldilar.

Shunday sharoitda mo'g'ullar va mahalliy amaldorlarning o'zboshimchaligi va jabr-zulmning kuchayib borishi xalq ommasining ko'tarilishiga olib keldi. Bu xalq qo'zg'olonlarining eng yirigi – 1337-yilda Sabzavor shahrida boshlanib, qariyb 45 yil davom etgan sarbadorlar chiqishidir.

Xalq ommasining ajnabiy istilochilar hamda mahalliy ezuvchilarga qarshi ayovsiz kurashi Markaziy Osiyoda mo'g'ullar hukmronligini ancha zaiflashtirdi va ularga qarshi keskin kurash kuchayishi uchun qulay zamin yaratib berdi. Shunday sharoitda Amir Temur (1336-1405) maydonga chiqib, ijtimoiy jarayonda tezda ko'zga tashlandi hamda mamlakat hayotida juda katta rol o'ynadi.



Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo'lgan Movarounnahr va Xuroson yerlarini mo'g'ullar mustamlakasidan ozod etib, yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi etib Samarqand shahri tanlandi.

Amir Temur davlati o'z davrida Ovro'po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Temur vafotidan so'ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga-Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi.

Musulmon Sharqi, ayniqsa, Markaziy Osiyoning madaniyati tarixida Temur va Temuriylarning hukmronlik davri - XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo'lgan



davr so'nggi umumiy tarixiy rivojlanishga juda katta ta'sir ko'rsatgan yorqin, sermazmun, samarali davr hisoblanadi.

Bu davrda o'zbek tili adabiy til sifatida uzil-kesil shakllandi va Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ichki va tashqi savdo ravnaq topa boshladi. Samarqand qadimdan Sharqning savdo markazi bo'lib, bu yerdan boshqa mamlakatlarni bog'lovchi «Ipak yo'li» o'tar edi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rus yerlari, arab mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o'rnatilishi Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qildi. Amir Temur savdoning rivojiga, karvon yo'llarini yaxshilash, ularni turli talon-tarojlardan himoya qilish, chetdan keltiriladigan mollarga solinadigan soliqlarni tartibga solish, savdogarlarga imkoniyatlar tug'dirish ishlariga katta e'tibor bergan edi. Bularning barchasi ishlab chiqarishning rivojiga ta'sir ko'rsatdi va moddiy boyliklarning ko'payib borishiga olib keldi. Bu haqda Temur «Tuzuklar»da shunday degan edi: «...Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir miskinlar esa o'z ahvoli va kasb-u koriga qarab ish tutsinlar. Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin»

Tarix o'z sahifasiga turli millatga mansub buyuk kishilarning o'chmas nomini bitadi. Tarix sahifalarida mana shunday iz qoldirgan shaxslardan biri Amir Temur va uning avlodlari davridir. Bu davr yurtimizda mamlakatni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilgan, milliy davlatchilik tiklanib, yuksalgan davr hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur boshchiligida xalq ozodligi uchun kurash, mustaqil davlat barpo etish, uni mustahkamlash yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi.

Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shaxrisabz) shahri yaqinida joylashgan Xo'jailg'or qishlogida dunyoga kelgan. Uning to'liq ismi Amir Temur Ko'ragoniy ibn Amir Tarag'aydir.





O'rtasiyoning mug'ullar tomonidan bosib olinishi mamlakatni vayron qildi, iqtisod, madaniyat, san'at va ilm-fan sohasida tanazzul ro'y berdi. Jabr, zulm, zo'rovonlik natijasida xalqning turmushi keskin yomonlashdi. Bunga qarshi kurash borasida xalq ommasining noroziligi, sarbadorlar boshchiligidagi ommaviy qo'zg'olonlar, ayniqsa, sohibqiron Amir Temurning faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Amir Temur ana shu harakatlarning natijasi o'laroq o'z xalqi, vatanining tinchligi yo'lida fidokorona kurash olib borib, mustaqil davlat barpo etdi. U markazlashgan davlat tuzib, mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi.

Temur davrida davlatining markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi (marosimlarni boshqaruvchi) hamda 4 vazir turardi. *Birinchi vazir*-yer soliqlari, chegara bojini undirish, hamda mirshablik ishlarini bajarardi. *Ikkinchi vazir*-askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. *Uchinchi vazir*-harbiylar, ularning lavozim-u mansablariga tayinlanish va me'ros ishlariga qaragan; *To'rtinchi vazir*-saroy hujjatlarini bajargan. Temur davlati tuzilish sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmagan bo'lsa-da, XIV asrning birinchi yarmida mo'g'ul xoni Kebek hukmronlik qilgan davrda joriy etilgan mamlakatni harbiy-ma'muriy bo'linishini saqlab qoldi va uni rivojlantirdi.

Ammo davlatni ma'muriy idora etish tarkibining takomiliga suyurg'olning keng tarqalishi to'sqinlik qildi. Amir Temur davlatni boshqarishda ko'p narsalarga e'tibor berib, ularni bajarishga harakat qildi:

*Birinchi* - uning davlati va saltanatiga bog'langan birinchi tuzugi Tangri taoloning dini, Muhammad mustafoning shariatiga rivoj berdi. Har yerda va har vaqt islom dini quvvatlandi;

*Ikkinchi* -U 12 tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etgan, ularni idora qilgan. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan o'tkazgan;

*Uchinchi* - maslahat kengashi, tadbirkorlik, hushyorlik bilan g'animni o'ziga bo'ysundirgan. Saltanati ishlarini muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizgan;

*Turtinchi* - davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqargan. Amirlar, vazirlar, inoqlar xizmat

qilganlar;

*Beshinchi* - amirlar va sipohiylarni martaba, unvonlar bilan taqdirlagan;

*Oltinchi*-adolat va insof bilan davlat boshqaruvini amalga oshirgan;

*Ettinchi* - sayid, oqil-u dono, olim, tarixchilarni e'zozlagan;

*Sakkizinchi* - azmi-jazm bilan ish tutgan;

*To'qqizinchi* – raiyat ahvolidan ogoh bo'lgan, ulug'ni - ulug', kichikni -kichik o'rnida ko'rgan;

*O'ninchi* – turk-u tojik, arab ahlining, turli toifa va qabilalardan bo'lgan kishilarning ulug'lariga hurmat bilan qaragan;

*O'n birinchi* – farzand, qarindoshlar bilan bir vaqtda do'stlik, tenglik o'rnatgan;

*O'n ikkinchi* – dust-u dushmanligiga qaramay har joyda sipohiylarni hurmat qilgan.

Amir Temur o'z vazifalarini 4 toifaga bo'lgan bo'lib, bular:

*Birinchi* – asillik, toza nasllilik;

*Ikkinchi* – aql-farosatlilik;

*Uchinchi* – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomala bo'lishlik;

*To'rtinchi* – sabr, chidamlilik va tinchlik kabilarga ega bo'lish.

Kimki shu to'rt fazilatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilgan. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlagan. Bunday vazirga to'rt imtiyoz; ishonch, e'tibor, ixtiyor va iqtidor berilgan. Temur o'zining markazlashgan davlati va huquqni barpo etishda musulmon dunyosida shakllangan siyosiy va huquqiy ta'limotiga asoslanadi. U shahar va qishloqlarda tartib va qonunchilikni o'rnatdi. Uning mafkurasi islom bo'lgan bo'lsa, Shariat qonunlar tizimi edi. Amir Temur islomning davlat mafkurasi darajasida, shariatni esa huquqiy tizim sifatida qabul qilish bilan cheklanmasdan, o'zining tamoyillari, qoidalari; «Tuzuklar» ni ham ishlab chiqdi. Fuqarolik jamiyatini turli toifalariga bo'ldi, ularning vakillari bilan bamaslahat ish tutib, qonunchilik va davlat hokimiyatini mustahkamladi. Har bir tabaqa va toifalarning moddiy, ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish o'zga mamlakatlar, xalqlar orasida ham Temurning obro'si







yuksalishiga olib kelgan. U qonunlarga rioya qilishni shu qadar jiddiy qo'ygan ediki, qonunni buzganligi uchun eng yuqori lavozimdagi mansabdorlarni, hatto o'zining eng yaqin qarindoshlar va farzandlarini ham jazolashga buyurgan. Qonunchilikning ana shu darajada o'rnatilishi mamlakatda tinchlik-osoishtalik o'rnatilishigi olib kelgan edi.

Amir Temur davlatni boshqarish jarayonida «Kuchadolatda» tamoyilini amalga oshirdi, iqtisod va madaniyat yuksaklikka ko'tarildi, u mohir harbiy sarkarda sifatida nom qozondi, o'z hayotini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi. Uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go'zal hududiga aylandi. Temur esa madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olim-u fuzalo va din arboblarni to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldilar.

Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda ilm-fanning ko'p sohalarida yuksalish yuz berdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug'rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqa fanlar rivojiga e'tibor berildi, ularda, ayniqsa, o'sha davrning muhim ijtimoiy muammolari va insonparvarlik g'oyalari olg'a surildi. «Amir Temur bobomizning, - deb qayd etadi bu xususda prezident Shavkat Mirziyoev, - adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin, degan chuqur ma'noli so'zlari har birimiz uchun hayotiy e'tiqodga aylanishi zarur»<sup>1</sup>

Amir Temurning nabirasi Ulug'bek asarlarida ham ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va falsafiy qarashlari, davlat qurilishi va uni boshqarishga oid munosabati o'z ifodasini topgan. Bunda, ayniqsa, Turk-mo'g'ul «Yasoq», «Tuzuklar» ning qo'llanilish ko'lami bilan musulmon huquqi - shariat qonunchiligining qo'llanilish va ta'sir ko'lamining o'zaro munosabati diqqatga sazovordir.

Mirzo Ulug'bek chuqur e'tiqodli bir musulmon hukmdor

sifatida, albatta, o'z davlatining obro'si, shon-shavkatiga ninsbatan biron bir shubha tug'dirmaslik uchun tartib va qonunlarni shariatga muvofiq bo'lishiga katta e'tibor bergan.

U temuriylar an'anasiga ko'ra, harbiy ishda, armiyani qurish-boshqarish va boshqa favqulotda hollarda «Yasoq» va «Tuzuklar» ga rioya etgan. «Tuzuklar» garchi diniy, dunyoviy tahlil asosida yozilgan bo'lishiga qaramay, unda dunyoviy qonunchilik tizimiga e'tibor kuchli bo'lgan. Xon, amirlarni ko'tarish, mulk (mamlakat)ni vorislar o'rtasida taqsimlash, soliq olish, ma'murlar faoliyatini tashkil etish, qo'shinni tashkil etish (askarlikka olishdan tortib to zobit, qo'mondonlar nufuz va maqomlarini belgilash, ularning moddiy, maishiy ta'limoti, nafaqa, rag'batlash va jazo belgilash, qatl va h.k.) «Tuzuklar» asosida olib borilgan edi.

Ulug'bek zamonasidan ancha ilgari ketgan «dunyoviy siyosat yurgizish», ilm-fan taraqqiyotiga katta e'tibor berish, din, ilohiyot va xurofotning mutloq iqtidorini oqilona cheklash, oqilona yo'lga solib yuborishga harakat qilgan. Vaziyat shu tariqa qanchalik siyosiy, diniy-mafkuraviy jihatlariga ko'ra qaltis bo'lishiga qaramay, Mirzo Ulug'bek mantiqan juda kuchli, lo'nda, go'zal va hozirjavob, ayni paytda diniy-e'tiqodiy talablarga qarshi e'tirozga o'rin qoldirmaydigan qilib vaziyatdan chiqq olgan, siyosiy va ruhiy madaniyatning yuksak namunasini ko'rsatgan.




O'rta asr mumtoz adabiyotining vakili, ulug' shoir va mutafakkir **Abdurahmon Jomiy** (1414-1492) «Nafahot ul-uns», «Hujjat-ul-asror», «Musiqqa haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Bahoriston» va boshqa asarlar muallifidir.

Jomiyning ta'limoticha, xudo abadiy, mutloq va dunyodagi hamma narsalarning sababchisidir. Xudo mavjud bo'lganda borliq yo'q edi, dunyo o'zining boshlang'ichini Allohdan olgan, demak, xudo hamma narsaning yaratuvchisidir, degan g'oya ustuvor.







Jomiyning sotsiologik qarashlari insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Uning ko'pgina asarlarida inson, adolat, muhabbat, ezgulik g'oyalari tasvirlanadi. Jomiy naqshbandiylik ta'limotiga e'tiqod qilib, uning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirdi. So'fiy, uningcha, halol va pok bo'lishi, biror kasb va hunarni egallashi, qanoatli va olijanob bo'lish, tamagir bo'lmasligi, nafsini jilovlashi lozim.

Jomiy o'zining ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida mukammal jamiyat, adolatli shoh to'g'risidagi orzu-umidlarini ilgari surdi, tenglik va erkinlik, insof va diyonatga asoslangan davlat tuzumi to'g'risida so'z yuritdi. U adabiy asarlardan tashqari din va tasavvuf ta'limoti masalalariga bag'ishlangan «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Shavohid an-nubuvvat» (Payg'ambarlikning dalillari) kabi asarlar muallifidir.

Jomiyning ijtimoiy-falsafiy ta'limoti ibn Arabiy ta'limoti ta'sirida shakllangan bo'lib, u vaxdat ul-vujud falsafasini naqshbandiylik ta'limotiga moslashtirgan. Mutafakkir o'zining «Bahoriston» asarida nobakor rahbarlarning xatti-harakatlarini shafqatsizlarcha qoralangan. Axloq ilmi faqatgina yaxshilik kategoriyalarini tahlil qilish bilan cheklanmay, qarama-qarshi kategoriya (ezgulik va yovuzlik, axloq va axloqsiz)larni ham o'rganib, uni farqlash orqali hayotga tatbiq etib boradi. Jomiy asarlarining ko'p qismida ezgulik g'oyalarning jamiyatdagi illatlarni bartaraf etish uchun olib borilgan harakatlari yotadi.

O'rta asr sotsiologik ta'limotida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlar bilan mukammal jamiyat, adolatli shoh to'g'risidagi orzu-umidlar ilgari surilgan, tenglik, erkinlik, insof va diyonatga asoslangan davlat tuzumiga bag'ishlab ko'plab asarlar yozilgan. Jumladan, Jomiyning «Bahoriston» asari orqali davlatni boshqarish, adolatli tartibni o'rnatish, ma'naviyat va madaniyat uyg'unligini aks ettirish uchun muhim masalalarni yoritib bergan edi. Ushbu asardagi har bir ravza alohida go'zallik, ezgulik sifatida gavdalanganligini ko'rish mumkin. Jomiy o'z asarlarida din va falsafani uyg'unlashtirish, shu yo'l orqali falsafiy fikrlar rivojlanishiga zamin yaratishda alohida mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligini ko'rish mumkin. Uning «Nafohot ul-uns» asarida juda ko'plab mashhur allomalarning ijtimoiy-axloqiy



qarashlari bayon etilgan. Jomiy asarlarida adolat tushunchasi alohida o'rin egallaydi. Bunday asarlarni o'rganish va hayotga tatbiq etish barkamol avlodni tarbiyalashda mamlakat taraqqiyotiga alohida o'rnak bo'luvchi muhim vazifa bajaradi. Agar inson o'z farzandiga yoshligidan tarbiya-ta'limni mukammal olib bormas ekan, vaqt o'tgan sari jamiyatning muvozanati buzilishiga olib keladi, deb ogohlantiradi. Shu bilan birga asarda, yuraklarni kibr-u havo, razolat va nafratdan tozalashlik masalasiga ham katta o'rin ajratilgan.

Abdurahmon Jomiyning ijtimoiy qarashlari uning dunyoqarashi va jamiyat haqidagi sotsiologik fikrlari ilgari surgan ta'limotlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

**Tayanch iboralar:** Amir Temur, Temur tuzuklari, falsafa, vatan, ijtimoiy hayot, Jomiy, raiyat, Ulug'bek.

### **Nazorat savollari:**

1. Amir Temur qanday shaxs?
2. Temur davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot?
3. Sotsial munosabat?
4. Inson omili?
5. Jamiyatning sotsial tuzulishi haqida gapiring.
6. Davlatning sotsial roli qanday?
7. Sotsial adolat masalasi nima?

# ALISHER NAVOIY VA BOBURNING IJTIMOYIY-SIYOSIY QARASHLARI

## REJA:

1. Alisher Navoiyning ilmiy me'rosi va ijtimoiy - axloqiy qarashlari.
2. Zahiriddin Muxammad Boburning ijtimoiy - axloqiy qarashlari.
3. «Boburnoma» asari va uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'рни.

**Maqsad:** *Talabalarga XV-XVI asr ijtimoiy fikr rivojida Alisher Navoiy va Bobur ilmiy merosining o'рни haqida tushuncha berish hamda ularning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*



Buyuk mutaffakkir, shoir, xalqimizning ardoqli, sevimli shoiri Alisher Navoiy 1441- yilning 9- fevralida hozirda Afg'onistonning markaziy shaharlaridan biri Hirot shahrida tug'ilgan. Uning otasi temuriylar xonadoniga yaqin kishilardan bo'lgan. Alisher besh yoshida maktabga chiqqan va bo'lajak hukmdor Sulton Husayn Boyqaro bilan birga tahsil olgan. Maktabda o'qib yurgan kezlarda forsiy tildagi tasavvufiy adabiyotning asoschilaridan Fariddin Attorning mashhur «Mantiq ut-tayr» (Qush nutqi) dostonini sevib, o'qiydi. Bu asar Alisherning butun xayolini tamoman egallab, she'r yozishga bo'lgan qobiliyatini shakllanishiga turtki bo'ldi. Navoiy ikki tilda: o'zbekchada «Navoiy», forschada «Foniy» taxallusida ijod qilgan shoirdir. «Navoiy» «navo» - «kuy» so'zidan olingan, «Foniy» esa forschada «vaqtincha» ma'nosini beradi. Navoiy o'n ikki yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Zahiriddin Muhammad Bobur to'g'ri ta'kidlaganidek, tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik «ko'p va xo'b (yaxshi)» asarlar yozgan emas. Shoir butun turkiy adabiyotda eng katta lirik merosga ega qalamkash hisoblanadi.



Alisherning do'sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan ayrim sabablar tufayli boshqa shaharda yashab taxsil olayotgan Navoiyni o'zining yoniga chaqirib, muhrdor lavozimiga tayinlaydi. U 1472-yildan vazirlik martabasiga ko'tariladi. 1487-1488-yillarda Astrabodda hokim bo'ladi. Umrining oxiriga qadar sultonning eng yaqin kishisi bo'lib qoladi. Unga Husayin Boyqaro «Muqarrabi shohiy», ya'ni shohning eng yaqin kishisi degan oliy martaba bergan edi. Alisher Navoiy umr bo'yi badiiy ijod bilan shug'ullandi. Yettita she'riy devon tuzdi. Ko'plab nasriy asarlar yaratdi. 1491-92, 1498-99 - yillar mobaynida esa barcha lirik she'rlarini to'rt devonga taqsimlab, «Xazoyin ul-maoniy» nomli yirik to'plamini tuzdi. Asardagi har bir devonga alohida-alohida nom qo'yilgan:

1. G'aroyib us-sig'ar (Bolalik g'aroyibotlari);
2. Navodir ush-shabob (Yigitlik nodirliklari);
3. Badoe'ul-vasat (O'rta yosh badiiyatlari);
4. Favoyid ul-kibar (Qarilik foydalari yoki qarilik xulosalari).

Nizomiy Ganjaviyning besh dostonidan tarkib topgan «Panj ganj» (Besh xazina) asariga javob sifatida o'zining besh dostonidan iborat mashhur «Xamsa» (1483-1485-yillarida) asarini yozadi. Bular: «Hayrat ul abror», «Farhod va shirin», «Layli va majnun», «Sabbayi sayyor», «Saddi iskandariy» dostonlaridir.

XV asr adabiyoti namoyondalari turkiy tilni qo'pol, badiiy asarlar yozishga to'g'ri kelmaydi, deb hisoblashgan. Alisher Navoiy bu fikrlarni «Lison ut tayr» (1499) asarida rad etadi. U turkiy tilning madaniy va badiiy ahamiyatini asoslab beradi. Navoiy shunday deydi: «Turkiy tilning boyligi ko'p dalillar bilan isbotlangan. Ommabop muhitdan chiqqan iste'dodli shoirlar o'zlarining qobiliyatlarini fors tilida ochib bermasliklari kerak. Menimcha, men turkiy xalqlarning munosib odamlari oldida buyuk haqiqatni tasdiqladim va ular o'zlarining nutqining va uning ifodalarning asl kuchini, ularning tillari va so'zlarining ajoyib fazilatlarini anglab, ularning tillari va nutqlariga qarshi radikal hujumlardan qutulishdi». Alisher Navoiyning nazariy qoidalari va ijodi chig'atoy tilida o'zbek va uyg'ur adabiyotining rivojlanishiga, shuningdek, boshqa turkiyzabon adabiyotlarning (turkman, ozarbayjon, turk, tatar) rivojlanishiga katta ta'sir





ko'rsatdi.

Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlari jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'z munosabatini bildiradi. Shu bilan birga ayrim asarlarida sotsiologik ta'limotlarini bayon etgan. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida bevosita o'z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif bergan va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligini bayon etadi. Navoiy bu asarni yaratishdan ko'zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: «Bolalikdan to qarilikka qadar qo'hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo'zg'ovchi duyo buqalamunligidan – tovlamachiligidan uzoq vaqt har chil hayot va taraddudlar bilan daydib yurdim».

Asarning birinchi qismida siyosiy, ijtimoiy-axloqiy va ma'rifiy qarashlar bayot etilgan bo'lsa, ikkinchi qismida asosan axloqiy masalalar berilgan. Shu bilan birga asar sotsiologik jihatdan sotsiologiyaning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. Xususan, «Uylanish va xotinlar» faslida uylanish, oila, oilada ayollarning roli va jamiyatdagi gender masalalari borasida fikr yuritilgan.

Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi ijobiy podisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor sotsiologik qarashni asoslab beradi.

Ulug' mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi. «Shu jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - hamsuhbatlarni va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko'rindiki, toki ularda har toifaning xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo'lg'ay».


Shuningdek, odil podsho, fozil jamiyat to'g'risidagi sotsial



qarashlarida u Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk allomalarning ta'limotlaridan foydalangan. Shoir o'zining «Xamsa» va boshqa asarlarida odil podsho va adolatli davlat to'g'risidagi g'oyalar bilan cheklanib qolmay, Husayn Boyqaro davlatini adolatli davlatga, podshoni esa odil hukmdorga aylanishiga chorlagan.

Alisher Navoiy bunday xayoliy jamiyat ideyasi bilan yurakdan shod edi, u bu shirin xayoldan huzurlanardi. Lekin shu bilan birga bu orzu uning qalbini tirnar, unga azob berardi. Sababi o'sha davr sharoiti bu xayoliy jamiyatning tamomila teskarisi edi. Shunga qaramasdan Navoiy kelajakda bu muammolarning hal bo'lishiga, orzusi ushalihsiga ishonar edi. Navoiy markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. U mamlakatda markaziy idora usuli yaratilishini va bunga quyi organlarning so'zsiz tobe bo'lishlari prinsipini o'rtaga tashladi, bu bilan u mayda-chuyda davlatlarning mavjudligidan kelib chiqadigan salbiy tomonlarni yo'qotmoqchi bo'ldi. Navoiy bevosita o'zi ko'rdiki, yetarli kuchli markaziy davlatning yo'qligi(mamlakatning bo'laklarga bo'linib ketishi, to'xtovsiz urushlar) xalqqa, mamlakat va uning iqtisodiyotiga, osudaligiga juda yomon ta'sir etayotir, xalqning, mamlakatning boshiga balo toshlarini yog'dirayotir. Navoiyning fikricha, agar kuchli markaziy davlat yaratilsa, mayda-chuyda davlatlar shu bilan yo'qotilsa, bunday fojiaga chek qo'yish mumkin. Navoiy o'zining adolat, xalq manfaatini ko'zlash asosiga qurilgan ideal markaziy monarxiya davlati sistemasini yaratish fikrini o'rtaga surdi.U shuning uchun Husayn Boyqaroni o'sha vaqtdagi mavjud hokimlarga nisbatan progressiv podshoh deb qaraganligi uchun mamlakatni kengaytirib, isyonkor hokimlarni yengib, yirik davlat yaratib, o'sha yerlardagi yomon vaziyatlarni tuzatishga chaqiradi, viloyatlarni birlashtirishga, aholini markaziy monarxiya atrofida birlashtirish, xalq manfaatini ko'zlaydigan shunday markaziy davlatni mustahkamlashga undaydi. Navoiy fikricha, ideal markaziy davlat boshida turganlar qanday bo'lishi, qanday maqsadni ko'zlashlari kerak, hokimiyat hamda hokimlar bilan xalq orasida qanday munosabat bo'lishi kerakligi g'oyat muhim masaladir. Bu savollarga Navoiy Farhod va Iskandar obrazlari orqali javob beradi. Navoiy, davlat boshida turgan odam xalq, mamlakat foydasi uchun, ularni tinchlik bilan ta'min etish uchun markaziy davlatning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini bilishi,





shunga rioya qilishi kerak. Mamlakatning, davlatning mustaqil bo'laklarga bo'linib, parchalanib ketishiga, shunday buzg'unchilikka boshlovchi kishilarga mutlaqo yo'l bermasligi lozim deydi.

Navoiyning ideal podshosi haqiqiy insoniy sifatlarni, gumanistik fazilatlarni o'zida mujassam etgan shaxsdir. U insonlarni baxtli qiladigan haqiqiy fanlar (matematika, hikmat, tarix, tabiiyot va boshqa shunga o'xshash) bilan qurollangan, jamiyatning sir-asrorini, yaxshi-yomon tomonlarini biladi, ularning qaysisi insonlarga foydali, qaysisi zararli ekanligani tushunadi va shu asosda faoliyat olib boradi deb hisoblaydi.

Navoiy fikricha, podshoh xalqning ham odil otasi, ham sodiq o'g'lidir. U, xalqini, uning molini, mulkini, baxt-u osudaligini daxlsiz narsa deb saqlashi, ularni bo'rilardan qo'riydigan posbon bo'lishi lozim. Podshoh mamlakatning bog'bonidir. U o'zining butun harakatlarida ilm-u adolat prinsiplariga asoslanadi, shularning tantanasini tamin etish uchun intiladi, u o'zining butun harakatlarida birinchi navbatda xalqning manfaatlarini ko'zlashlikni nazarda tutadi. Podshoh davlatni, hokimiyatni o'zining shaxsiy nafslarini, hirsilarini ta'min etish vositasi deb tushunmasligi kerak. Demak, podshoh davlatga, hokimiyatga o'zining xususiy mulki deb qaramasdan, uni mamlakatda adolat, tinchlik o'rnatish, saqlash, xalqning istaklari, orzularini amalga oshirish quroli deb tushunishi zarur deb hisoblaydi. Podshoh, uning rahbarligidagi davlat mamlakatda adolat o'rnatishga, xalq orasida maorifni yoyishga, ilm, madaniyat nurlari bilan mamlakatni, xalq hayotini yoritishga intiladi, zulmat va jaholatni yo'qotish yo'lida urinadi.

Navoiy mamlakat va jamiyatning yaxshilanishida, hokimlarning aqlli, insofli, tadbirli va odil bo'lishida, mamlakat gullashi, xushbaxt bo'lishida olim va ilm egalarning rolini ulkan hisoblaydi, yuksakka ko'taradi va aytadiki, agar hokimlar haqiqiy hayotiy fanlar bilan shug'ullansalar, qurollansalar, yaxshini yomondan ajrata oladilar, zararlilarni bilib ularni yo'qotadilar, ularning o'rniga xalq, mamlakat, davlat uchun foydali ishlarni qiladigan kishilarni qo'yadilar. Masalan, Navoiy, podshoh tarix fanini o'rgansa va uning ko'zgisidan o'tgan vaqtlarga qarasa, qaysi mamlakatlar qaysi podshohning qanday harakatidan, qanday tadbirlaridan obod bo'ldi va xalq shod bo'ldi-yu, davlat

mustahkamlandi, qaysilari, aksincha, nimalar natijasida, qaysi podshohning qanday tadbirlari, harakatlari natijasida barbod va baxtsiz bo'ldi, davlati tarqaldi, mamlakat parchalandi kabilarni yaxshi anglab oladi, kechmishning achchiq tajribalaridan o'rnatib olib, falokatlarning oldini ola biladi. Navoiy shunday yozadi:

Vagar tarix sari aylagung mayl,  
Muni bilgachki ne ish qildi har xayl.  
Salotinki bo'ldilar jahongir,  
Ne yanglig' qildilar har ishda tadbir.  
Qayu zulm ayladi, qay bir adolat,  
Ne ishga ayladi har bir dalolat.

Xalqning manfaati, osoyishtaligi, uni ma'lum darajada muhtojlikdan qutqarish, ma'murlik bilan ta'min etish, adolatsizlikka, tengsizlikka norozilik shoirning asl maslagidir. Xuddi shu xalqparvarlik Navoiyning iqtisodiy masalalar bilan ham jiddiy mashg'ul bo'lishligini taqozo qiladi. Ijtimoiy hayot taqdirini nima hal qiladi, odamlarning faoliyatlari va o'zaro munosabatlari asosida nimalar yotadi degan masala azaldan beri aksar mutafakkirlarning diqqat markazida turgan. Navoiy aytadiki: «Insonlar paydo bo'ldilar, ular turli xulq-atvorga ega bo'ldilar, ularning tushunchalari har xil bo'lib, hayot masalalariga, haqiqatga har xil ko'z bilan qaray boshladilar, birlari ochko'z, tamagir, tekinxo'r, o'zgalarning hisobiga yashashga intiluvchi, o'g'ri va hokazo bo'ldilar. Boshqalari haqiqatga to'g'ri qaradilar, insoniy vijdonga ega bo'ldilar, uning qoidalariga, tartiblariga rioya qiladigan bo'ldilar» va hokazo.

Navoiy o'z davrining kishisi sifatida o'rta asr musulmon madaniyati, ruhiyati, ongi va tafakkuri, qadriyatlarini ruhida tarbiyalangan bo'lib, insondagi e'tiqodiy poklik va tozalikni qadrlovchi va inson sha'nini yuksak tutish, himoya qilishga chaqiruvchi ta'limotiga ergashgan va o'zining butun hayoti davomida uning qadriyatlariga g'oyaviy rioya qilgan.

Navoiy o'rta asr sharq olamida komil inson tushunchasini qayta kashf etgan allomadir. Unga ko'ra komillikka inson o'z tabiati, imkoniyati va ma'naviyatida Alloh taoloning mukammalligi, uning jilosi, ziyosini yaraqlagan oynadek aks ettira olishi, uni tuyishi va buni tan olishi, inson zoti o'zini bilib, borliq mushkullarni tushunib yetib, ilohiy mukammallikka yetishish, komil bo'la olish imkoniyatlari to'la va mukammal



bo'libgina, unga mashaqqatlar chekish orqali erishishini ilgari suradi.

Shunday qilib, buyuk mutafakkir Alisher Navoyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, adolatparvarlik va insonparvarlik g'oyalari tarixiy an'analarning yuksak davomi, kelajakdagi jamiyat ma'naviy kamolotining muhim nazariy asosi bo'ldi, deb hisoblaymiz.



Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1529) temuriylar sulolasining buyuk vakillaridan biri, Temuriy Umarshayh Mirzo xonadonida tug'ilgan. Bobur 12 yoshida taxtga o'tirdi. Farg'onada taxtga o'tirib, keyin temuriylar orasidagi tarqoqlik mayllarini bartaraf etish, sulola iqtidorini Shayboniylar hujumidan saqlab qolish uchun juda qattiq

murosasiz kurash olib bordi. Ammo bu paytga kelib temuriylar sulolasi Turkistonda, O'rta Osiyoda Amir Temurdan qolgan buyuk saltanat - markazlashgan davlatni saqlab qoladigan ahvolda emas edi. Sulola vakillari o'zaro nizo, urush-janjallar bilan band bo'lib, mamlakat iqtisodiy jihatdan tobora zaiflashib borardi. Bobur ichki kelishmavchiliklar natijasida o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan. 1506-yildan avval Qobulda, so'ngra esa 1526-yil Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatgan. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilib, u erda buyuk saltanat qurganlar, turkiy, arab-musulmon, fors-tojik, hind madaniyati, badiiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va diniy-tasavvufiy fikrlar ijodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Boburning mashhur tarixiy asari «Boburnoma»dir. Shuningdek, u huquqshunoslikka oid «Mubayyin», harbiy ishlarga oid «Harb ishi» risolalarini yozgan. «Boburnoma» o'sha davrdagi Markaziy Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eronning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotini savdo munosabatlari, jug'rofiyasi, hayvonot va nabotot olamini, iqlimi, qabila va elatlarning urf-odatları va turmush tarzini aks ettirgan asardir. Uning o'zi yaratgan va qo'llay boshlagan maxsus alifbo «Xatt Boburiy», turkiy-mo'g'uliy qonunchilik an'anasida tuzilgan



«Tuzuki Boburiy» asarlari bizgacha yetib kelgan.

Boburning ijtimoiy-falsafiy, badiiy-axloqiy, siyosiy va huquqiy, irfoniy, islohotchilik qarashlari nihoyatda keng qamrovli, chuqur, o'z davridan ilgari ketgan insonparvar, ilm va aql muhibi dunyoqarashini ifodalari edi. Bularning eng yorqin namunalarini biz uning «Vasiyatnoma» asarida ko'rishimiz mumkin. Bu asarda Bobur vali'ahd etib e'lon qilgan katta o'g'li Humoyunga qoldirgan vasiyatlari, o'gitlari ifoda etilgan.

Bobur tuzgan «Risolai volidiya» asari ham uning falsafiy, ilmiy-irfoniy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarida alohida o'rin tutadi. Asar 1528-yilda Boburning, otasining Naqshbandiya-Xojagoniya tariqatiga, xususan, Xo'ja Ahror Valiy Fuqarotiyga aqli irodatini ifodalash uchun, pirning «Risolai volidiya»sini turkiy nazm bilan bayon etgan. Bu kitobda hatto Boburning «Ubaydulloh tadbirlari tufayli shoh bo'ldim», degan e'tirofi mavjud.

Xullas, Temur va temuriylar davri madaniyat, san'at, adabiyot singari ijtimoiy, siyosiy, falsafiy fikrlar taraqqiyotida ham o'ziga xos bir bosqich bo'ldikim, bu davr mutafakkirlarining fikr-mulohazalari, davr voqeligidan keltirib chiqargan falsafiy qarashlari ta'lim-tarbiya ishlarimizda muhim g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tayanch iboralar:** Navoiy, Bobur, «Xamsa», inson, «Mahbub ul-qulub», «Boburnoma», qush tili, do'stlik, ijtimoiy tenglik.

#### **Nazorat savollari:**

1. Alisher Navoiy yashagan yillar?
2. Navoiyning yirik asari qaysi?
3. Navoiyning odil podshoh haqidagi qarashlari?
4. Navoiy fikricha, komillikning belgisi qanday?
5. Temuriylar davri haqida ma'lumot bering.
6. Bobur yashagan yillar va uning falsafiy qarashlari haqida nimalar bilasiz?
7. «Boburnoma» qanday asar?





## XVI-XVIII ASRLAR MARKAZIY OSIYODA SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLAR TARAQQIYOTI

### REJA:

1. XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy – siyosiy, tarixiy sharoit.
2. Mirzo Bedilning sotsial ta'limoti, jamiyat va davlat to'g'risidagi qarashlari.
3. XVII-XVIII asrlarda sharqda hurfikrlilik va insonparvarlik g'oyalarining rivojlanishi.

*Maqsad: Talabalarga ushbu mavzuda XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy–siyosiy, tarixiy vaziyat, o'zbek xonliklarida jamiyat va davlat to'g'risidagi ijtimoiy qarashlarda insonparvarlik, hurfikrlilik g'oyalarining ahamiyatini tushuntirishdan iborat.*


Temuriylar davlati inqirozi tufayli, butun Movarounnahrda o'zaro urushlar, nizolar avj oldi, temuriylarning kuchli davlati bo'linib ketib, uning o'rnida mayda davlatlar yuzaga keldi. XVI asr boshlariga kelib Movarounnahr va Xurosonda ichki nizolarning avj olishi bu yerlarga tashqi hujumlarning kuchayishiga imkon tug'dirdi. Ayniqsa, shimolda Dashti Qipchoq tomondan Movarounnahr shaharlarini bosib olishga bo'lgan harakat borgan sari ortib bordi. 1500-1510-yillar orasida Movarounnahr va Xuroson yerlari Shayboniyxon boshchiligidagi qo'shinlar hujumi tufayli uning tasarrufiga o'tdi. Uning o'limidan so'ng avlodlari 1601-yilga qadar hukmronlik qildilar. So'nggi yillarda uning avlodlari o'rtasidagi kurashlar natijasida davlat parchalanib, Xuroson safaviylar qo'liga o'tdi. Shayboniylar esa faqat Movarounnahrda humron bo'lib qoldilar. Hokimiyat asta-sekin uning avlodlari o'rtasidagi nizolar tufayli parchalanib ketdi, Buxoro xonligi, so'ng g'arbda Xiva xonligi vujudga keldi. Hukmronlik uchun olib borilgan uzoq kurashlardan so'ng Abdullaxon II (1557-1598) davrida Buxoro xonligining mavqeyi ancha-muncha ortdi.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligida iqtisodiy-madaniy hayot bir muncha jonlandi. Xususan, dahqonchilik tez rivojlandi, qator suv inshootlari, kanallar barpo etildi, yirik shaharlarda hunarmandchilik ravnaq topdi. Samarqand qozikalonining XVI asrdagi hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, hunarning 61 turi mavjud bo'lgan, turli-tuman temir buyumlar, ip va ipak matolar, yuqori navli qog'ozlar ishlab chiqarilgan. Buxoro shahri kengaytirilib, devor va harbiy istehkomlari qaytadan qurilgan, shaharda ko'p madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroy va bozorlar barpo etilgan. Bu davrda ichki va tashqi savdo, xususan, Eron, Turkiya, Hindiston, Rusiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar kengaydi. Uning vafotidan so'ng yana o'zaro nizolar avj oldi. 1601-yildan boshlab Buxoro xonligi yangi ashtarxoniylar sulolasi hukmronligiga o'tdi.

Ashtarxoniylar sulolasi bir yarim asr (1601-1753) Buxoro taxtida hokimlik qildi, ular davrida xonlikda o'zaro nizolar hamda qoraqalpoqlar mustaqil bo'lgan Xiva xonligi, Eron kabilar bilan uzluksiz urushlar davom etdi, mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotida parokandalik avj oldi, xonlik taxti uchun talashuvda aka-uka, ota-o'g'il, qarindoshlar o'rtasida kurashlar kuchaydi. Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham o'zaro toj-u taxt uchun kurash to'xtagani yo'q. Natijada mamlakat tanazzulga yuz tutdi. Imomqulixon hukmronligi (1611-1642) yillarida davlat birmuncha mustahkamlangan bo'lsa-da, lekin bundan keyinga davrlarda taxt uchun kurashlar davom etib, mamlakat rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Natijada iqtisod, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at rivojlanishi orqaga ketdi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiiy fanlar rivoji zaiflashib, dunyoviy bilimlar rivojida turg'unlik holati yuzaga keldi. Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar urug'-qabila jamoalarini bir joydan boshqa joylarga ko'chish jarayonlarini tezlashtirdi.

Davlat darajasida yagona vatan tushunchasining mavqeyi tushib ketdi. Islom Karimov ushbu davr haqida: «Nega jahonda Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan





tushib ketdi?»<sup>3</sup> degan edi. Xonliklardagi o'zaro nizo va urushlar, parokandalik, ularning oxir-oqibat Chor Rossiyasi imperiyasi tomonidan istilo etilishi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Xonlikdagi zulmning ortishi, soliqlarning oshib borishi natijasida tez-tez xalq qo'zg'olonlari ro'y berib turardi. So'nggi yillarda Ashtarxoniyalar sulolasining nufuzi susayib, mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqning tasiri kuchaya bordi va u 1753-yili o'zini amir deb e'lon qildi. Bu davrda Turkistonda Buxoro xonligidan tashqari Amudaryoning quyi oqimida Xiva xonligi mustaqil rivojlanayotgan edi. XVIII asrning oxiriga kelib Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi ham o'zini mustaqil xonlik sifatida ko'rsata boshladi.

Turkistondagi XVII-XVIII asr madaniyati mavjud iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy ahvol ta'sirida turli tebranishlar, yo'qotishlarni boshidan kechirdi.

XVI asrda Hindistonda Boburiylar davlatining vujudga kelishi bilan Temuriylar davrida shakllangan madaniyatning qisman Hindiston tomon oqib o'tganini kuzatamiz. Boburiy podshohlar Movarounnahr va Xuroson madaniy qadriyatlaridan keng foydalanishga intiladilar, ularni Hindiston yerida keng targ'ib etdilar. XVI asrlarda ko'pgina Markaziy Osiyolik donishmand, alloma, san'at-korlarning o'zlari yoki Boburiylar taklifi bilan Hindiston shaharlariga ketib qoldilar. Boburiylar saroyida turkiy va ayniqsa, forsiy tildagi adabiyot, san'at, ilm-fan rivoj topdi. Bu Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston va Hindistondagi Boburiylar davlati o'rtasidagi madaniy aloqalarning kuchayishiga, ularning o'zaro ta'siri orta borishiga olib keldi. Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilaridan deb biddilar. Ayniqsa, Boburiylardan Akbarshoh, Shohjahon, Avrangzeb davrida Hindistonda Markaziy Osiyo ma'naviy qadriyatlariga asoslangan musulmon madaniyati keng rivoj topdi va muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi.

XVI asrning o'rtalaridan boshlab Yevropaning ilg'or mamlakatlarida sanoat, ishlab chiqarish taraqqiy etib bordi. XVII asrning ikkinchi yarmida asbob-uskunalarining yangi na'munalari



kashf etilishi texnika taraqqiyotini boshlab berdi, natijada fabrika zavodlar vujudga keldi, ilm-fan rivojlandi, fanlarning turli tarmoqlari paydo bo'ldi.

XVI-XVII asrlarda falsafiy va axloqiy masalalar sohasida Poshshoxo'ja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bag'naviy, ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy, Muhammad Sharif al-Buxoriy va boshqalarning asarlarida fikr yuritilgan. Masalan, Poshshoxo'ja (1480-1547) «Miftoh ul-adl» (Adolat kaliti) va «Gulzor» hikoyalar to'plamini yaratgan bo'lib, ularda insof, adolat, diyonat, saxovat, donolik va aql-zakovat, rostgo'ylik, ruhiy komillik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik va boshqa ma'naxviy-aloqiy fazilatlarni tahlil qiladi. Uning fikricha, inson o'z millati, boyligi, husni va mansabi bilan emas, balki odamiyligi, to'g'riligi, insonparvarligi, iymoni, diyonati bilan boshqalardan ajralib turishi juda muhimdir.



**Sayido Nasafiy (1637–1710)**  
«Ubaydullanoma» asarining muallifi «Buxoro shoirlari taxtida sulton» deb nom chiqargan shaxs. U Qarshi (Nasaf) shahrida tavallud topgan va shu yerda boshlang'ich ta'lim olib, Buxoro madrasalarida o'qishni davom ettirgan. Nasafiy hunarmand to'quvchi bo'lgan, og'ir iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida yashagan. Shunga qaramasdan u badiiy ijod uchun

vaqt va imkoniyat topa olgan. O'zi yashagan og'ir va qiyin bir sharoitda mehnatkash xalq bilan birga bo'ldi, uning dardiga hamdardlik qildi, xalqning jabr-jafolariga sherik bo'ldi. O'z ijtimoiy qarashlarida demokratik xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgari surdi. Nasafiy o'zaro siyosiy qirg'inbarot urushlarni qattiq qoraladi, mamlakatni xarobaga aylantirganlarni ayovsiz tanqid qiladi. U o'z she'rlarida so'fizm, naqshbandiylik g'oyalari va dunyoqarashini ilgari suradi. Sayido ashtarxoniy xonlar yurishlarining she'rda ifodalangan tarixiy asarlarida, bu xususdagi qasida va masnaviyalarida, muxammaslari, masallarida

mamlakat va xalq hayoti haqida g'oyat qimmatli fikr va xulosalar beradi.



**Turdi Farog'iy** (XVII asr Buxoro – 1699/700- yil Xo'jand) XVII asr o'zbek adabiyotidagi ilg'or oqimning yorqin vakili, xalq manfaatlarini ifodachisi, adabiy taxallusi - Farog'iy (erkin tabiatli kishi). U Buxoro, Xo'jand va Jizzaxda yashab ijod qiladi. Turdining hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar kam bo'lib, u o'zbeklarning yuz qabilasidan bo'lgan. U birmuncha vaqt

Subxonqulixon saroyida xizmat qiladi.

U Subxonqulixon hukmronligi davri (1691–1701)dagi adolatsizliklar, xalqqa o'tkazilgan jabr-zulmlarni o'z ko'zi bilan ko'radi. Xon saroyidagi yuqori mansab egalarning laganbardorliklari, poraxo'rlik, axloqiy buzqliklarning guvohi bo'ladi. Xalqning esa zulm, eksplutatsiya va soliqlar dastidan qaddi bukildi, ba'zi vaqtlarda «barot» solig'ining yetti yilligi bir yilda undirib olinishlarining guvohi bo'ladi. Mehnatkash omma tomonidan 1681–1686-yillar mobaynida Subxonqulixon siyosatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonda qatnashdi.

U Xo'jand hokimi Rahimbiyga yordam so'rab boradi. Turdi Rahimbiyga bag'ishlab she'r yozadi va uni Subxonqulixonni ag'darib tashlashga chaqiradi. Lekin Rahimbiy xonga qarshi kurashga jur'at etolmaydi. Shundan keyin u Jizzaxga, keyinroq Xo'jandga borib joylashadi va taxminan 1701-yilda shu yerda vafot etadi. Turdi vafotining so'nggi kunlarida yozgan she'rlarida o'zining qayg'u-alamlarini zorlanib ifodalaydi:

Kuyar til shammayi gar holatimdan aylasam tahrir,

Giribon chok o'lur, etsa qalam dardi dilim tahrir.

Hajvchi, tanqidchi, demokratik g'oyalar kuychisi Turdining bitta devondan iborat she'rlar to'plami bizgacha yetib kelgan. Shoir Turdidan oliynasab qarindosh-urug'lari yuz o'giradilar, ammo xalq uni hurmat qilar edi. Turdi xalq ommasining davr

nohaqliklariga, xonning adolatsiz siyosatiga qarshi noroziligini, alamli fikr va hayajonli kechinmalarini san'atkorona dadillik bilan qalamga oladi.

Turdi xonni insof, diyonatga chaqirdi, uning atrofini o'rab olgan xushomadgo'y, laganbardor, nomunosib odamlardan ogoh bo'lishga da'vat etdi. U xalqni talagan, mamlakatni xonavayron qilgan, adolatsiz va zolim xon haqida g'azablanib yozadi va uni ag'darib tashlashga chaqiradi. Turdi yurt va mamlakatni xonavayron qilgan siyosiy tarqoqlik, qirg'inbarot urushlarni la'natlaydi, urug' va qabilalarni birlashishga, hamkorlikka, urug' oqsoqollarini, beklarni «bir yaqodin bosh chiqarish» ga chorlaydi. Bu jihatdan shoirning «Tor ko'ngilli beklar» she'ri ibratlidir:

Tor ko'ngilli beklar, manman demang, kenglik qiling,

To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling.


Birni Qipchoq-u, Xitoyu, birni Yuz, Nayman demang,

Qirq-u Yuz, Ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqarib, barcha bir to'ng'a kirib,

Bir o'ngurliq bir tirizlik bir yaqo, yenglik qiling.


Albatta, Turdi o'z zamondoshlariga nisbatan bir qadam oldinda edi, ammo jamiyat va hayotdagi barcha yaramas nuqson va illatlarni shoir «yomon», «adolatsiz» podshoning ongidan izladi. Bu uning nuqsoni emas, balki shoir yashagan va ijod qilgan davrning fojiasi edi.



fors, urdu tili va adabiyotini o'rganadi, turli fanlarga qiziqadi.

**Mirzo Abdulqodir Bedil** (1644–1721) sharq xalqlarining buyuk shoiri, faylasufi, mutafakkiri va o'z davrining «Mirzo Malik ush-shuarosi» dir. U harbiy xizmatchi oilasida tavallud topgan. Ota-bobosi shahrisabzlik o'zbek barlos urug'laridan bo'lgan. Bir yoshda otadan yetim qolgan, onasi qo'lida tarbiyalanadi. Besh yarim yoshida maktabga boradi. Yoshlikdan qobiliyat egasi bo'lgan Bedil arab,





Qo'qonlik tarixchi Hakimxon Xoji Muhammadning «Muntaxab ut-tavorix» kitobida yozilishicha, Bedilning madrasadan ko'ngli soviydi, shu bois u uyda o'z bilimini oshiradi. Bu ishda unga amakisi MirzaQalandar va tog'asi Mirza Zariflar yaqindan yordam beradilar. Bedil so'fizm falsafasini, hind va urdu tillarini, yunon (ayniqsa, Arastu) falsafasini chuqur va atroflicha o'rganadi, keng mushohada etadi. O'n yoshdan badiiy ijod bilan shug'ullana boshlaydi. Bedil g'oyatda murakkab sotsial-iqtisodiy tarixiy jarayonda yashagan va ijod qilgan. Undan boy ilmiy-falsafiy va badiiy meros qolgan. U 1721-yilda Dehlida 77 yoshida vafot etdi.

Bedil asarlarining asosiy qismi uning kulliyotiga kirgan. Bu to'plam 1882-yilda Bombayda nashr etilgan. Mirzo Bedilning mashhur asarlaridan biri «Nukot» dir. Unda ulug' mutaffakir yaxshi fazilatli kishilarni e'zozlaydi, badfe'l, yomon kishilarni satira orqali tanqid qiladi. Bedil odamlarni ezgulikka, ahillikka, birlikka, hamjihatlilikka va hamdardlilikka chorlaydi. U insonning kamoloti uchun kurashadi. Uning asarlarida inson qaysi irq, qaysi din va qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qat'i nazar, insondir degan g'oya ustuvorlik qiladi. Mehnat kasb-kor, insoniy burch va xislatning asoslaridan biridir. Bedil ishyoqmas, tekinxo'r kishilarni qattiq qoralaydi, ulardan nafratlanadi. U o'z asarlarida inson shaxsini ulug'laydi, inson erkini hamma narsadan ustun qo'yadi, aqidaparaslik, jaholat va zulmatga qarshi kurashadi. Bedilning asarlari boy falsafiy g'oya va mazmunga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun uni «Abulma'oniy» – «Ma'nolar otasi» deb ataganlar.

Mirzo Abdulqodir Bedilning ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oya va sotsiologik qarashlari bilan sug'orilgan asarlari avlodlar qalbidan mustahkam o'rin oldi va bular bugungi kunda ham inson uchun, insoning baxtli istiqboli uchun kurashda xizmat qilmoqda.

**Mulla Sayid.** XVIII asr boshlarida Buxoro xonligida o'zining yuksak ma'naviy, axloqiy va insoniy fazilatlarini bilan nom qozongan zotlardan biri «Buxoro shoirlari taxtidagi bek» degan ulug' nom egasi Mulla Sayiddir. Mulla Sayid Buxoro xalqining cheksiz hurmati va mehr-muhabbatiga erishgan. U saroy shoiri bo'lmadi, tamagirlik qilmadi, mansab, mol-dunyoga




qiziqib o'z insoniy qaddini bukmadi, oyoqosti bo'lmadi, xon qo'lidan sadaqa kutmadi va umrining oxirigacha g'oz turib yashadi. Mulla Sayid Nodir devonbegi masjidining boloxonasidagi bir kichik hujrada yashab ijod qilgan.



Xorazm xalqining buyuk farzandlaridan yana biri Munis Xorazmiy va uning jiyani Muhammad Rizo Ogahiylardir. **Shermuhammad Munis** (1778-1829) o'zbek shoiri, tarixchi, tarjimon, xattot, ma'rifatparvar inson. Boshlang'ich ta'limni Katda olgan, Xiva madrasalaridao'qigan. 1800-yilda otasi vafot etgach, Xiva xoni Avaz Inoq

saroyida farmonnavis kotib lavozimida ishlagan. 1804-yilda Munis o'zining «Devoni Munis» ni yaratadi. 1806-yilda Xiva xoni Eltuzarxon unga Xiva xonlari tarixini yozishni topshiradi. U Xiva tarixini yozib tugata olmay vafot etadi. Uning «Firdavs ul-iqbol» asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi va jiyani Ogahiy oxiriga yetkazadi. Munis Xorazmiy she'riyatida xalqchillik, taraqqiyparvarlik g'oyalari keng o'rin olgan. U «So'z» va «Shuaro» kabi she'rlarida ilm-fan, san'at, adabiyotni targ'ib qiladi, olimlar va san'atkorlarni yuksak qadrlaydi, ularni xo'rlagan reaksiyon guruh va to'ralarni qoralaydi.

Munis Xorazmiyning 1804-yilda bosilgan «Savodi ta'lim» she'riy risolasida savod chiqarishni yengillatish va husnixat san'atini rivojlantirish muammolari ko'tariladi.



**Komil Xorazmiy** (1825-1899) ma'rifatparvar shoir, ajoyib san'atkor, xattot, tarjimon va davlat arbobidir. Asli xivalik bo'lgan Komil kuchli qobiliyatga ega edi, u arab, fors-tojik tillarini puxta bilgan. Komil Xorazmiy bosmaxona tashkil etishning asoschilaridan biridir. Uning sa'y-harakati va tashkilotchiligi hamda Muhammad Rahimxonning g'amxo'rligida 1870-yilda Xivada



bosmaxona tashkil etilgan. Bu bosmaxonada birinchi marta Navoiyning «Xamsa»si nashr qilingan edi. Komil Xorazmiy ijodiyotini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning asarlarida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik ta'lim va tarbiyaning boshqa bir qator g'oya va masalalari bosh mavzu bo'lganligini ko'ramiz. Jumladan, shoir o'zining «Kamol» g'azalida ilm-ma'rifatni ulug'lab, ilmli, ma'rifatli va hunarli kishi hamisha el hurmati va ardog'ida bo'lishligini yozadi:

Emas kishiga bu dunyoda mulk-mol kamol,  
Husul-u ilm-u hunar keldi bezavol, kamol.

Komil Xorazmiy odamlar orasiga yaxshilik urug'larini sochadi, mansabga, boylikka berilib kekkaymaslikka chaqiradi, ularni insof-imonli va diyonatli bo'lishga da'vat etadi. U o'zining «Ey ko'ngil» g'azalida dunyo adolatsizligi, nohaqligi va teskari ishlaridan faryod chekadi. Agar dunyo pastkash bo'lmasa, nega nokas-u nodonni ulug'lab, shod etib, dononi xor-zor-u xafa qiladi, deb xulosa chiqaradi. Ilm-ma'rifat kuychisi bo'lgan Komil o'z zamonasida ilm qadriga yetmagan falakni la'natlaydi, u ilm olamida Aflotun bo'lsa-da qadrlanmagan ilm-ma'rifat kishisiga alam bilan achinadi:

Chun falak nodon navoz-u, xasm donodur, ne sud,  
Donish iqlimida bo'lsang gar Falotun, ey ko'ngul.

Umuman olganda, Komil Xorazmiy ijodida bosh mavzu inson va insoniylikdir.



Asli ismi Muhammad Sharif bo'lgan **Gulxaniy** XVIII asrning oxiri, XIX asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli va xalqchil yozuvchidir. U taxminan 1770-yillarda Darvozda (hozirgi Tojikistonning Tavildara va Qal'aixum tumanlari) kambag'al oilada tavallud topgan. Gulxaniy boshlang'ish ta'limini qishloqda oladi. Unda she'riy ijodga havas juda erta uyg'onadi. U ko'plab yozma badiiy asarlarni mutolaa qiladi, xalq og'zaki

ijodini o'rganadi.

Gulxaniy og'ir iqtisodiy qiyinchilik sharoitida yashaydi. Muhtojlik uni Farg'ona vodiysiga olib keladi. Namanganda mardikorlik qiladi va shu yo'l bilan o'qishni davom ettiradi. Bu yerdan xonlik markazi Qo'qonga o'tadi va shu joyda qo'nim topadi. Moddiy qiyinchilik shoirmi Qo'qonda ham tark etmaydi. U hatto hammomda o't yoquvchi-go'lax bo'lib ishlaydi. «Gulxaniy» taxallusini shoir ushbu kasbi tufayli tanlagan bo'lsa ham ajab emas. Biroq «Majmuai shuaro» tazkirasida yozilishicha, shoir otashqalb, yuragida o'ti bor bo'lgani uchun «Gulxaniy» taxallusini qo'llagan. Gulxaniy Qo'qon xoni Olimxon saroyida bo'lsa-da, og'ir iqtisodiy sharoitda edi. Umarxon hukmronligi davrida ham shoirning hayotida o'zgarish bo'lmaydi. Shu tariqa u XIX asrning birinchi yarmida qashshoqlik va muhtojlikda bu bevafo dunyoni tark etadi.

Gulxaniy o'z asarlarida zamona illatlarini, hukmron doiralarning xalqqa o'tkazgan zulmi va og'ir turmush sharoitini badiiy mahorat bilan ochib beradi. Buni shoir o'zining turmush qiyinchiliklari va azoblari timsolida ko'rsatadi. U «Bideh» («Bergil») deb nomlangan tojik tilidagi she'rida o'zining navkar sifatida xizmat qilgan vaqtda kamsitilgan va xo'rlanganini quyidagicha ifodalaydi:

«Hazratim, ochlikdan o'ldim, yegani non ber menga», deb boshlaydi va «Navkaring ochlikdan o'lsa, nega xayfing kelmagay?!» deb xonga murojaat qiladi.

Gulxaniyga katta hurmat va obro' keltirgan asari so'zsiz «Zarbulmasal» dir. Xalq og'zaki ijodi durdonalarini chuqur o'rganish va mutolaa qilish asosida yuksak mahorat va badiiy uslubda yozilgan ushbu asardagi har bir masal o'zi mustaqil bir asardir, desak mubolag'a bo'lmaydi. «Zarbumasal» dagi «Maymun bilan Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan Chayon» masallarida axloqiy fikr va ma'nolar ibratomuz tarzda yoritilgan. Yozuvchi asardagi Yapaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Sho'ranul, Malik Shohin va Kordonlarning bir-birlari bilan quda-anda bo'lish jarayonida aytgan gap-so'zlari, masal-maqollari va hikoyalari orqali hayotiy muammo va jumboqlarni yechib beradi hamda o'zi yashagan



davrdagi ijtimoiy tuzum manzarasini yorqin badiiy ifoda etadi. Gulxaniy xalqchil, demokratik masalchi-yozuvchi sifatida mehnatkash xalqning qalbidan chuqur joy olgan siymo bo'lib qoldi.



**Jahon otin Uvaysiy (1778–1845)** Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin Uvaysiy tasavvur etib bo'lmaydi. Jahon Otinning oilasi o'z davrning ilg'or va ma'rifatli oilalaridan bo'lgan. Otasi o'zbek va tojik tillarida she'rlar ijod qilgan. Onasi Chinnibibi maktabdor edi. U Alisher Navoiy, Lutfiy,

Bobur, Fuzuliy, Hofiz, Jomiy ijodlari bilan yaqindan tanishadi va ularni qunt bilan o'rganadi. Uvaysiy ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. U xalqqa yaqin turgan ijodkor sifatida umrining oxirigacha yashaydi. Shu bois uning asarlarida el-yurt dardi, qismati va hasratlari bosh mavzu bo'lib qoldi.

**Tayanch iboralar:** Movarounnahr, Temuriylar, xonlik, madaniyat, ijtimoiy fikr, jamiyat, davlat, qatlam.

#### Nazorat savollari:

1. Shayboniylar davri haqida gapiring.
2. O'zbek xonliklari o'rtasidagi parokandalikning sabablari?
3. Sayido Nasafiyning asarlari haqida nimalar bilasiz?
4. «Tor ko'ngilli beklar, kenglik qiling» jumlasini kimga qaratilgan?
5. «Zarbulmasal» asari muallifi?
6. Sotsial muammolar nima?
7. Sotsial ta'limotlar mohiyati?



## XIX ASRNING II-YARMIDA MARKAZIY OSIYODAGI SOTSIOLOGIK QARASHLARNING RIVOJLANISHI



### REJA:

1. XIX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol.

2. Mahmur, Ogahiy, Furqat, Muqumiy kabi shoirlarning yaxshilik va adolat to'g'risidagi fikrlari.

3. Ahmad Donishning davlatni boshqarish, uning shakllari to'g'risidagi ta'limoti.

**Maqsad:** *Talabalarga XIX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi sotsiologik ta'limotlarning rivojlanishi, Chorizm mustamlaka tizimining vujudga kelishi, jamiyat haqidagi ijtimoiy fikrlarning mazmun- mohiyatini tushuntirishdan iborat.*

XVIII-XIX asrlar jahon tarixiga ilmiy-amaliy va madaniy yuksalish davri bo'lib kirdi. Yevropaning qator mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, yangi zavod, fabrika va turli sanoat korxonalari vujudga keldi. Temiryo'llar qurildi, dengiz yo'llari rivojlandi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning turmush darajasi ko'tarildi. Taraqqiyot jadal rivojlanayotgan shunday sharoitda O'rta Osiyo xonliklari ushbu taraqqiyotdan chetda qoldilar. Albatta, buning o'ziga yarasha, sabablari bor edi:

**birinchidan**, asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakat uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi tinimsiz urushlar, har bir xonlikdagi boshboshdoqlik va hokimiyat uchun o'zaro tinimsiz davom etgan ichki nizolar mamlakatni vayron qildi;

**ikkinchidan**, O'rta Osiyo davlatlarining asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlatning despotik boshqaruv usuli, tizimi, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga zarar keltirdi;

**uchinchidan**, o'zbek xonliklari o'rtasida ichki iqtisodiy va savdo birligi shakllanmadi. Xonliklar hududida yashagan xalqlar o'rtasida yagona xalq, yagona millat, yagona vatan his-tuyg'usi zaiflashdi;



*to'rtinchidan*, XIX asr ikkinchi yarmida vatan istiqboli uchun qayg'uradigan, odamlarni bir g'oya va bir ezgu maqsad yo'lida birlashtira oladigan hamda ortidan ergashtira oladigan yo'l boshchi bo'lmadi. Chor bosqinchilarga qarshi qadimiy Turon jangovar shavkatini namoyish qila oladigan va Turkistonni bir umummilliy makon, deb biladigan liderlar chiqmadi.

Yuqoridagi omillar O'rta Osiyoni XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiyasining imperiyachilik bosqining qurboni bo'lishiga olib keldi. Natijada O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

**Shoir Mahmur** (XVIII asr oxiri – 1844) o'z davrining yirik satirik shoiri edi. Ziyoli oiladan bo'lgan Mahmurning otasi Mulla Shermuhammad madrasada mudarrislik qilgan, she'rlar yozib, ijodiy ish bilan shug'ullangan. Mahmurning asli ismi - Mahmud. Mahmur shoirlik taxallusidir. U otasi dars beradigan Mir madrasasida tahsil ko'rdi. O'z zamonasining yetuk namoyandasi bo'lib yetishdi. Mahmud otasini o'rab olgan muhit ta'sirida juda yoshlikdan badiiy ijodga beriladi. Undagi qobiliyatni sezgan saroy ahllari Mahmurni saroy shoiriga aylantirishga harakat qiladilar. Mahmur saroyda askar bo'lib xizmat qilish bilan birga ijodiy faoliyatni ham davom ettiradi.

Saroyni tark etgan Mahmur umrining oxiriga qadar qashshoqlik va muhtojlikda Hapalak qishlog'ida yashadi, ijod etdi va shu yerda 1844-yilda xor-zorlikda vafot etadi. Mahmur yuqorida ta'kidlaganimiz singari satirik hajviy she'rlar ijod etgan.

Ayniqsa, «Hapalak» she'ri shoir ijodining yuksak pog'onasi bo'lib, unga katta obro' va e'tibor keltiradi. Bu she'rda shoir Qo'qon xoni Umarxonga murojaat qilib xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini yengillatish, ularni ezib qo'ygan soliq va mhar xil to'lovlardan ozod qilishni iltimos qiladi. «Hapalak» o'zida bir qishloq manzarasini aks ettirsada, haqiqatda butun Qo'qon xonligidagi aksariyat xalqning og'ir iqtisodiy turmush sharoitini, kambag'al dehqonlar xonadonining vayrona bo'lish manzarasini badiiy bo'yoqlarda ifodalagan.

Mahmur «Hapalak»dan tashqari «Itboqar Qozi», «Hoji Niyoz», «Karimqul Mehtar», «Amakim», «Hakim Turobiy» va boshqalar asarlar yaratdi. Shoir Mahmur satira janrlaridan ustalik



bilan foydalanish asosida o'zi yashagan davrdagi hayot nuqsonlarini, kamchilik va adolatsizliklarni keskin tanqid qiladi va keyingi avlod yozuvchi - shoirlari ijodiga barakali ta'sir ko'rsatadi.



**Muhammad Rizo Ogahiy** (1809–1874) yetuk shoir, bilimdon tarixchi va mohir tarjimon sifatida fan va tarixda nom qoldirgan. Ogahiyning she'rlarida xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik buyuk va olijanob insoniy fazilatlar ulug'lanadi, xon va amaldorlarning adolatsizligi va xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlari, chalamulla ruhoniylarning makr hiylalari ayovsiz tanqid qilinadi. Shu ma'noda shoirning «Qish» radifli g'azali diqqatga molikdir. Bunda qish fasli tasviri orqali kambag'al, bechora, kulbasiz va yupun oddiy mehnatkash xalqning ahvoliga achinadi, beva-bechoralarga nisbatan himmatsiz, e'tiborsiz va shafqatsiz bo'lgan boylar va davlatmandlardan nafratlanadi.

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li-Ogahiy 1809-yil Qiyot qishlog'ida tug'ilib, 1874-yilda vafot etgan. Xorazm o'lkasining buyuk mutafakkirlaridan biri bo'lgan adib o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surish bilan odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlar bilan shug'ullanishga da'vat etdi.

Ogahiyning muhim asarlari:

- 1) «Gulshani-davlat»;
- 2) «Riyoz ud-davla»;
- 3) «Jome ul-voqeoti Sultoniy»;
- 4) «Zubdat ut-tavorix»;
- 5) «Shohidi iqbol»;
- 6) «Bayozi mutafarriqai forsiy»;
- 7) «Firdavs ul-iqbol» va boshqalardir.

Bulardan tashqari, Ogahiy Sa'diy Sheroziy, Nizomiy, Kaykovus, Jomiy va Koshifiylarning badiiy, tarixiy, falsafiy,



axloqiy-didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Ogahiyning «Qasidai nasihat» nomli va boshqa asarlarida davlatni boshqarish yo'llari ko'rsatilgan. Shoir Xiva xoni Feruzga mamlakatni odilona boshqarishning ma'qul yo'l-yo'riqlari to'g'risida fikr bildiradi Uning tarixiy risolalari haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Ogahiy Xiva xonligining 1813-1873-yillar tarixini yozib qoldirgan. Xullas, mamlakatimiz mustaqillikka erishib, tariximizni xolisona o'rganish va yaratishga intilish kuchaygan hozirgi davrda Ogahiy asarlarining ahamiyati ham oshib bormoqda.



Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859-1909) ma'rifat parvarlik harakatining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, Qo'qon shahrida dunyoga keladi. Uning ko'plab asarlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Furqat o'zi yashagan davrning o'ta murakkab, ziddiyatli tomonlarini, mamlakat qoloqligining asl sababi jaholatda, o'zaro urush-janjallarda deb bildi.

Xon va beklarning o'zaro nizolari, ularning savodsizligi va johilligi, ochko'z va tamogirligi, tekinox'rligi mamlakat va xalqqa ofat va kulfat keltirayotganini ko'ra bildi. Furqatning sotsial qarashlarida dastlab Turkistonni mustamlaka qilgan chorizm hukumatiga hayrixohlik ustuvor turadi. Uning rus ilm fani, texnikasi va madaniyatini tarannum etadigan «Gimnaziya», «Ilm xosiyati», «Vistavka xususida», «Suvorov» va boshqa asarlari oddiy xalqni ma'rifatparvarlikka chorlaydi.

Chorizmnin manfur siyosati va maqsadini anglay borgan sari mustamlakachilarga qattiq nafrat shaklanadi. Ma'rifatparvarlik g'oyalarining yetakchiligi «Furqatnoma»dagi madaniy-ma'rifiy muhit tasvirida g'oyat kuchli seziladi. Furqat, avvalo, o'zbek madaniyatining ildizlari, sarchashmalari haqida batafsil so'z yuritgan. O'z xalqi mustamlakachilar o'ylaganidek «johil, qoloq» emasligi, yuksak madaniyat-ma'rifatga egaligini muallif o'ziga xos yo'sinda ifoda etgan. Bu vatanparvar,

xalqparvar ijodkorning o'z milliy g'ururini, eliga mehr-muhabbatini namoyon qilishi edi, istilochilarning kamsitishlariga, zo'ravonliklariga qarshi pinhoni noroziligi, yashirin isyoni edi.

Furqat insoniy oliyanob fazilatlarini ulug'lar ekan, birinchi o'ringa ozodlik g'oyasini qo'yadi. Uning lirik qahramoni har qanday qullikning murosasiz dushmani, ozodlik, erkinlik, hurlikning otashin jarchisidir. Uning «Sayding qo'yaber sayyod» she'rida gunohsiz mahbuslarni changaliga olgan shafqatsiz zolimlarga qarshi oshkora nafrat sadolari har qanday qalbi tosh o'quvchining ham yurak bag'rini tilka-pora qiladi.

«Jamiyatdagi salbiy illatlar va adolatsizliklarni bartaraf etishda, - deb ta'kidlaydi Furqat, - ma'rifat, ilm-fan, ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi». «Ilm hosiyati», «Vistavka xususida» kabi she'rlarida u vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni egallashga va taraqqiy etgan mamlakatlarning madaniyatini o'zlashtirishga da'vat qilgan.



**Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy** (1850-1903) – o'zbek demokratik adabiyotining asoschilaridan biri, shoir va mutafakkir. Qo'qon shahrida tug'ilgan. Otasi Mirzaxo'ja asli Toshkentlik, 1835-36-yillarda Qo'qonga ko'chib kelgan. Onasi Bibioysha asli xo'jandlik bo'lib, Saydolim Nodirshayx qizidir.

Muqimiy lirikasi insonni ulug'lash, inson kechinmalarini kuylash bilan mavjud diniy g'oyaning asoslariga zarba berdi. Uning she'riyatida kuylangan lirik qahramon, insonlar o'rtasida do'stlik, qardoshlik, muhabbat, samimiyat, vafodorlik kabi yuksak fazilatlarining barqaror bo'lishi uchun, adolat, insof, haqqoniyat tantana qilishi uchun intiladi.

Shoir intilishlari bilan adolatsiz muhit o'rtasidagi qarama-qarshilik uning ijodida tanqidiy yo'nalishni keltirib chiqardi. Muqimiy hajviyotining ijtimoiy ildizlari, shubhasiz, tarixiy davr







sharoiti va o'zbek klassik adabiyotidagi tanqidiy yo'nalish hamda xalq ijodidagi hajviyachilik an'analari bilan bog'liq.

Xalq manfaatlarini o'z ijodida ifodalagan va baralla kuylagan Muqimiy xonlarning cheklanmagan va adolatsiz hukmronligi ostida og'ir va qimmatli hayot kechirayotgan mehnatkash ommaning hayotidan fig'on chekadi va o'z asarlarida undan nafratlanadi. U «Tanobchilar» satirik she'rida tanobchilar (yer o'lchovchilar) ning jabr-sitamlaridan adoyi tamom bo'lgan, soliqlarni to'lolmay xarob bo'lgan dehqonlar hayotini aks ettiradi. Shoir yer o'lchash bahonasida poraxo'rlikni, zulmni avj oldirgan tanobchilardan yuragi zada dehqon tilidan zorlanadi:

Bo'ldi taajjub qiziq hangomalar,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog'ila eshit holimi,

Zulm qilur, balki, menga xolimi.

O'n ikki oyda keladur bir tanob,

O'zgalarga rohat-u menga azob.


Muqimiy «Tanobchilar» she'rida chor ma'murlarining o'lka mehnatkashlariga o'tkazgan mustamlakachilik siyosatining barcha jirkanch qiyofalarini ustalik bilan ochib tashlaydi. Maqtanchoqlik, takabburlikda, shuningdek, tovlamachilik va talonchilikda tanobchilar bir-biridan qolishmaydi.

Muqimiy o'zi yashagan davrdagi hayot muammolarini va nuqsonlarini, din niqobi ostida xalqqa jabr-zulm qilayotgan, ularning nonini yarimtalayotgan ba'zi bir chalamulla, ruhoniylar va boylarni «Moskovchi boy ta'rifida», «Avliyo», «Bachchag'ar» va boshqa asarlarida satira o'ti ostiga oladi, ularni masxaralaydi.

Muqimiyning mashhur asarlaridan biri «Sayohatnoma» dir. Bu asar Muqimiyning sayohatlar chog'ida olgan taassurotlarini qalamga olingan va xalq ommasining haqqoniy hayotini aks ettiradi. Shoir mustamlakachilik zulmi siyosati va mahalliy boylar, amaldorlarning o'tkazgan jabr-sitamlaridan ado bo'lgan xalq timsolidan faryod chekadi. U asarda bechora och va yalang'och dehqonlarni zolimlaracha ekspluatatsiya qiluvchi «yurt kattalari»dan nafratlanadi, ochko'z va qizg'anchiq mingboshilar, bo'lis boshliqlari, qozi va ellikboshilarni masxaralaydi, ularning ustidan kuladi va satiraga oladi.




Umuman, Muqimiy o'zining keng qamrovli, chuqur, g'oyaviy, yuksak badiiy asarlari bilan xalqning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lgan o'zbek xalqining ajoyib farzandidir.



**Zavqiy (1853–1921)** demokrat va xalqchil shoir sifatida o'zbek adabiyotining Muqimiy va Furqat ijod etgan an'alarini davom ettirdi. U o'z asarlarida xalqning ayanchli hayoti va qismatiga sherik bo'lish va achinish, kelajak istiqbolga umid nigohi bilan boqish, ozodlik va erkka intilish g'oyalari ilgari surdi. Zavqiy hayotiy voqealarga nisbatan o'ta sezgirligi, voqea va hodisalarning ichki mazmunini

chuqur anglab yetishga mohirligi va undan aniq va to'g'ri xulosalar chiqara olish san'ati shoirning «Ajab ermas» muhammasida yorqin ko'zga tashlanadi.




**Anbar otin Farmonqul qizi (1870–1906)** o'zbek xalqparvar shoirasi. Kambag'al kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Farmonqul asli marg'ilonlik bo'lib, shoira Uvaysiyning jiyanidir. Onasi Ashurbibi qo'qonlik qizi bo'lgan. Anbar Otin yetti yoshidan o'z mahallasidagi Dilshod otinning maktabida ta'lim oladi. Dilshod otin o'z davrining bilimdon,

shoirtabat, dono ayollaridan bo'lib, «Barno» taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. U Anbarning she'riyatga qiziqishini ko'rib, uni mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishtirgan. Dastlab kichik she'rlar yoza boshlagan Anbar ijodda ko'proq Uvaysiyga ergashadi, uning g'azallarini diqqat bilan o'rganadi, muxammaslar bog'laydi.

Anbar otinning g'azallarida xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, yuksak insoniylik g'oyalari targ'ib etilgan. U zamonasidagi





turmush lavhalarini tasvirlabgina qolmay, ularga ijtimoiy ta'na ham qilgan. Anbar otinning dunyoqarashini va ijtimoiy-falsafiy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan asari bu «Qoralar falsafasi»dir. Unda kambag'al xalq hayotiga achinish, irqiy kamsitishlarga qarshi norozilik, ayollar taqdiri, ularning jamiyatdagi qonuniy o'rni va huquqlarini talab qiladi.



**Ahmad Donish.** Tarixdan ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston rus chorizmi tomonidan bosib olindi. O'tgan asrning 60-70-yillarida xalqning qattiq qarshiligiga qaramay, Rossiya askarlari zo'ravonlik, qurol ishlatish yo'li bilan Turkiston shahar va qishloqlarini ishg'ol qildilar. Bundan asosiy maqsad bu o'lkani xomashyo bazasiga aylantirish, mahalliy boyliklarni talon-taroj qilish edi.

Rus burjuaziyasi yerli amaldorlar bilan kelishib ish yuritdi. Bu esa xalqning ikki tomonlama ezilishiga olib keldi. Bunday vaziyatda yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarqala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shahobchalari, maktab, maorif, madaniy targ'ibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi. Shundaylardan biri – Ahmad Donish (1827-1897) edi.

Ahmad Donish fikricha, mamlakatni odilona boshqarish uchun uni (mamlakatni) avvalo, isloh qilish zarur, davlat, olimning nuqtai nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilish, hukmdor esa bilimdon, aqlli bo'lib, o'z atrofidagilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar Ahmad Donishning «Navodir ul-vaqoe» va boshqa risolalarida o'z ifodasini topgan. Olim o'z ilmiy fikr va mulohazalarini real faktlar, o'z davrining hukmdorlari faoliyatidan olingan tarixiy dalillar asosida bayon qilgan.

Ahmad Donish «Risola dar ilmi kurra» (Globus haqida risola) «Manozir al-kavokib» (Yulduzlarni kuzatish) kabi



asarlari o'zining astronomiya va geografiya fanlariga oid qarashlarini yoritib berishga harakat qilgan. «Tarixiy risola» nomli asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini tahlil qilar ekan, bulardan o'ziga umumiy xulosa chiqarish asosida Ahmad Donish jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlarni hayotga joriy qilish ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi. Mutafakkirning bunday fikr-mulohazalari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Xullas, XIX asrda yashab o'tgan mutafakkirlarning sotsiologik ta'limotlarida ijtimoiy tenglik, hurfikrlilik, adolatsizlikka qarshi ayovsiz kurash, davlat boshqaruvida ijtimoiy adolat mezonlariga tayanish, qonun ustivorligi yordamga muhtoj qatlamni ijtimoiy himoyalash kabi g'oyalar yotadi. Yuqoridagi fikr-mulohazalar chor Rossiyasining og'ir mustamlakachilik zulmi siyosati davrida Turkistonda siyosiy-ijtimoiy va madaniy birdamlikni ta'minlashga xizmat qildi. Asr ohiriga kelib Turkistonda yangi ma'rifatparlik harakati jadidchilik vujudga kelishiga zamin yaratdi.

**Tayanch iboralar:** Markaziy Osiyo, xonliklar, Chorizm, Donish, Ogahiy, Zarbulmasal, ma'rifatparvarlik, mustamlaka.

#### Nazorat savollari:

1. Xonliklar haqida ma'lumot bering?
2. Chorizm mustamlakachilik siyosati mohiyatini tushuntiring?
3. Ijtimoiy tenglik nima?
4. Davlat boshqaruvi?
5. «Tanobchilar» kimning asari?
6. «Qasidai nasihat» asarining muallifi?
7. Ahmad Donish haqida gapiring.



## TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA ULARNING SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARI

### REJA:

1. XIX asr oxirida Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori - jadidchilik harakatining nazariyotchilari.
3. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratning sotsial qarashlari.
4. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziyalar ijodida ijtimoiy qarashlar va millatparvarlik g'oyalari.

*Maqsad: Talabalar ushbu mavzu orqali XIX asr oxirlarida Turkistonda shakllangan yangi usulga asoslangan jadidchilik harakati va uning namoyondalarining ijtimoiy qarashlari bilan tanishadilar. Shuningdek, ma'rifatparvar ziyolilar qatlamining milliy ozodlik yo'lidagi sotsiologik ta'limotlarini anglab yetadilar.*

XIX asming ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda boshlangan milliy ozodlik harakatlari o'lka aholisining ijtimoiy hayoti, milliy ozodlik, vatan mustaqilligi, yurt erkinligi barchaning umumiy maqsadi ekanligini anglatadi. Milliy ozodlik qo'zg'olonlarining asosiy kuchi keng xalq ommasi bo'lib, ular mus-tamlakachilik tartiblariga qarshi mardonavor kurash olib bordi.

XIX asr oxiri XX asming boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqirozga tushgan, mustamlaka tizimining chirkin siyosati tufayli taraqqiyotdan ortda qolib ketgan Turkistonning ma'rifatparvar va mamlakat ziyoli shaxslari Chor Rossiyasining mustamlakachilik tizimidan qutilish, milliy mustaqil daavlatchilik asoslarini tuzish, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqni ma'rifatli qilish choralarini ko'rdilar. Bu boradi jadidchilik harakati vakillari asosiy rol o'ynadilar. Jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi





milliy demokratik harakat bo'lib, o'sha davr Turkistondagi qoloq ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sharoitda xalqni ma'rifatli qilish, jamiyatda sotsial islohotlarni o'tkazish, milliy mustaqillik g'oyalari hayotga tadbiq etish kabi ulug'vor maqsadlarni ko'zlagan edilar. Shuningdek, jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatishdan iborat edi. Shu bilan birga ular Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurishga intilgan edilar.

Turkistonda jadidchilik harakatining ilk g'oyalari XIX asr oxirlarida yoyila boshladi va XX asrning 30-yillariga qadar o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Ushbu jadidchilik harakati quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganiladi:

**birinchisi**, XIX asr oxirlaridan to 1915-yilgacha - ma'rifatchilik davri bo'lib, 1905-yildan 1914-yilgacha bo'lgan davrda jadidchilik endi mansabdorlikdan kengroq gazetachilik - matbani yo'lga qo'yish, ilm-fan, madaniyat, adabiyotni milliy lashtirish, xalqni ma'rifatli qilish va milliy tarixni tiklash ishlarini olib bordilar;

**ikkinchisi**, 1915-yildan 1918-yil fevral oyigacha davom etgan davr - milliy muxtoriyatning tuzilishi. Bu davrda feodalizmga qarshi norozilik kayfiyati zarur taqdirda amaliy yo'lni tutish ma'rifatparvarlikning siyosiy maqsad va mohiyatini ifoda etadi. Ma'rifatchilik harakati 1905-1906-yillardagi voqealar ta'sirida shakllandi. Bu davrda S.Ayniy, A.Avloniy, M.Behbudiy, Munavvar qori va boshqalar nomi bilan bog'langan jadidchilik harakati keng yoyildi. Jadidlarning harakatlari siyosiy harakatga aylanib, partiya tuzish, milliy matbuotni yana-da jangovor qilish bilan xarakterlanadi. Endi asosiy ishlar - «Turkiston muxtoriyati» talabi ilgari surila boshlagan, muxtoriyatga erishish yo'lida Rossiyadan to'la ajralib chiqish yoki Rossiya davlatidagi konstitutsiyaviy federatsiya tarkibida «Milliy hududiy muxtoriyati»ga ega bo'lish edi;



**uchinchisi**, 1917-yil kuzidan boshlab 1930-yillargacha davom etdi. Bu davrda ahvol yanada murakkablashib, ular yangi maktablar erkinligi, teatrlar ochish uchun kurash olib boradilar. Ularning maqsad va muddaolari markazida milliy istiqlol uchun kurash g'oyasi yotar edi.

Afsuski, jamiyat hayotining barcha sohalarini siyosatlashtirish, sub'ektivizmga haddan tashqari berilish natijasida jadidlarga panturkizm, panislomizm va millatchilik tang'asi yopishtiriladi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat singari millat oydinlari millatparvar, elparvarligi uchun qatag'on qilindi.


1917- yil iyul oyida «Sho'roi Islomiy»dan «Sho'roi Ulamo» jadidchilik tashkiloti ajrab chiqdi, ammo Ta'sis majlisida ko'proq o'rin olish masalasining zaruriyati bu ikki tashkilotning birlashishiga olib keldi va «Turk adami markaziyati» deb nomlangan Turkiston fedaratsiyasi partiyasining tuzilishiga olib keldi. Lekin Turkistonda oktyabr voqealari va bolsheviklarning hokimiyatni egallashi ularga o'z maqsadlarini oxirigacha amalga oshirishlariga imkon bermadi. Shunday bo'lsa-da, 1917-yil 28-noyabrda «Turkiston muxtoriyati»ni tuzdilar. Garchi bu tuzilgan muhtoriyat uch oygina yashagan bo'lsa-da bir qator islohotlarni amalga oshirdi.

«Turkiston muxtoriyati» qonga botirilgandan keyin sovetlar tomonidan muxtoriyatga xayrixoh bo'lgan kishilar - tashkilotchilar, xususan, jadidlar ta'qib ostiga olindi. Keyinchalik bu davrda jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat olib bordilar va o'z faoliyatlari davomida xalq ta'limini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar.

Dastlab jadidchilik harakati Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'lgan bo'lib, uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914 y.y) edi. Ismoil Gaspirinskiy 1884-yil Bog'chasaroyda ilk jadid maktabini tashkil etadi va 40 kunda 12 ta bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «yangi usul» nomi bilan shuhrat qozonadi. Jadid so'zi arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Gaspirinskiy o'zining «Tarjimon» gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib


qiladi. U 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroda sayohatda bo'lib, Buxoro amiri Abdulahadni jadid maktabini ochishga ko'ndiradi. Maktab «Muzaffariya» nomi bilan tashkil etiladi. Bunday jadid maktablari 1899-yilda Andijonda, 1091-yilda esa Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori, Samarqandda Abduqodir Shakuriy tomonida tashkil etildi. Ular maktablar uchun darslik yaratdilar.

Qo'qonda ochilgan yangi jadid maktablari asta-sekin rus-tuzem maktablari bilan raqobatlasha boshladi, 1893-95-yillardan 1901-1905-yillargacha jadid maktablarini tashkil etish ommaviy tus oldi. Jadidlar o'z oldilariga san'at, matbuot, maorif, adabiyot sohaslarida islohot o'tkazish g'oyalari maqsad qilib qo'yadilar. Ular maorif sohasida islohotlar o'tkazib, xalq ommasining savodxonligi, bilimi, umumiy madaniy saviyasini oshirishga bel bog'laydilar. Jadidlar namoyondalari o'z mablag'lariga yangi usuldagi maktab, kutubxona, darslik, gazeta va jurnallar nashr qildilar. Masalan, «Samarqand», «Oyina», «Sadoi Turkiston» gazetalari, «Yurt», «Najot» jurnallarini misol qilish mumkin.



Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan **Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875–1919) dir. U tarixda «Turkiston jadidlarining otasi» deb nom olgan. Mahmudxo'ja Behbudiy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo'jayev Behbudiy haqida: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak»,- degan edi. U Turkiyaga safar qilganidan keyin dunyoqarashida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. U Istanbulda usuli jadid maktablarini dars berish, til o'rganish masalasiga alohida e'tibor berib: «Biz Turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdir»,- deb uqtiradi. Behbudiy teatrshunoslik fani taraqqiyotiga to'sqinlik qiladigan barcha





illatlarni ochib tashlash zarur, u tarbiyaviy ibratxona sifatida faoliyat ko'rsatadi, deb uqtiradi. Behbudiy diniy rahbar - mufti bo'lishiga qaramay «Jadid usuli» maktablarining ochilishiga yordam beradi. O'z ijodida jadidizm falsafasi va estetikasini xalqqa yetkazishga harakat qiladi.

Behbudiy Gaspirinskiy yo'lga qo'ygan «usuli jadid» maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatadi. Yangi tipdagi maktablarning milliy-madaniy taraqqiyotimizda muhim omil bo'la olishi mumkinligi haqida o'nlab maqolalar yozadi. «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» (Qisqa umumiy geografiya), «Kitobat-ul atfol» (Bolalar maktubi), «Muxtasari tarixi islom» (Islomning qisqacha tarixi), «Amaliyoti islom», «Madhali jug'rofiyai umroniy (Aholi geografiyasiga kirish), «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» (Rusiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklar yaratadi.

U nashriyot tashkil qilib, darslik, qo'llanmalar bosib chiqargan. Bular ilk o'zbek maktablari uchun tuzilgan darslik va qo'llanmalar sifatida emas, til,yozuv madaniyatimiz taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Behbudiy 1913-yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqaradi. Gazeta dastlab ikki betdan iorat bo'lib, so'ngra to'rt betdan haftasiga ikki marta chop etilgan. «Oyina» o'lkada o'zbek tilida chiqqan birinchi jurnaldir. Yana Behbudiyga 1912-yilda yozilgan «Padarkush» dramasi katta shuhrat keltirdi. Garchi birinchi o'zbek dramasi (Mahramlar) xronologiyaga ko'ra bir yilcha oldin Namanganda Abdulrauf Shahidiy tomonidan e'lon qilingan bo'lsa-da, bu sohada ham karvonboshi bo'lib Behbudiy tarixga kirdi. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yiladi. Shundan so'ng Buxoro, Qo'qon, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on kabi juda ko'p shaharlarda sahnaga qo'yiladi. Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatadi. «1913-yillarda chiqqan «Padarkush» pyesasi ta'sirida «Baxtsiz kuyov» degan teatr kitobini yozib yuborganimni o'zim ham payqamay qoldim», deb yozgan edi AbdullaQodiriy.



Turkiston jadidchilik maktabining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiyning so'nggi kunlari, fojiali o'limi to'g'risida yozish og'ir. Ammo bu taraqqiyparvar, yurtparvar ajdodimiz hayotining nisbatan kam tadqiq qilingan qismiga bog'liq bo'lgani bois ham shunga jazm etdik. Zero, o'tmish insoniyatni hushyorlikka chorlab, saboq chiqarishga undab turadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'z sheriklari Mardonqul Shomuhhammadzoda va Muhammadqul O'rinboy o'g'li bilan birga Buxoro amirligiga qarashli Shahrisabzda qo'lga olingan va Qarshiga keltirilgan. Qarshi begi Tog'aybek buyrug'i bilan zindon yaqinidagi «podsholik» chorbog'ida amirning Qarshi shahridagi voliyisi Nuriddin Og'aliq tomonidan 1919-yil 25-martda vahshiyona o'ldirilgan. Uning o'limi xalqni larzaga soldi, 1920-yilning aprelida Samarqandda Buxoro amiri va uning johil amaldorlariga qarshi umumxalq namoyishi bo'lib o'tadi. Ma'rifatparvar Behbudiy o'limi oldidan qilgan vasiyatida shunday deydi: «Maorif yo'linda ishlayturg'on muallimlarning boshini silangizlar. Maorifg'a yordam etingiz. O'rtadan nifoqni ko'taringiz. Turkiston bolalarini ilmsiz qo'ymangizlar. Har ish qilsangiz, jamoat bilan qilingizlar. Hammaga ozodlik yo'lini ko'rsatingizlar. Buxoro tuprog'iga tezlik ila yo'l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar».<sup>4</sup>




Jadidchilik harakatining yirik vakillaridan bo'lgan **Munavvar Qori Abdurashidxonov** (1878–1931) Ismoil Gaspinskiyning o'qish va o'qitish, madrasa va maktab islohotiga oid fikrlarining Turkistondagi otashin targ'ibotchilaridan biri edi. Bunda Bog'chasaroyda nashr etilgan «Tarjimon», Tataristonda chop etilgan «Vaqt», «Yulduz», Istanbulda bosilgan «Siroti

mustaqim» (To'g'ri yo'l) kabi matbuot nusxalarining Turkistonga turli yo'llar bilan tarqalishi katta o'rin egalladi. Munavvar Qori 1901–1904-yillarda qrimlik do'sti Rasim Kishod

<sup>4</sup> <http://xs.uz/uzkr/post/behbudijga-suiqasd-qandaj-sodir-bolgandi>





yordamida Toshkentda «usuli savtiya» maktabini ochadi. 1910-yilga kelganda bunday maktablar 10 tagacha yetadi.


Munavvar Qori Abdurashidxonovning «Namuna» maktabida bir necha yuz bola o'qigan. Bu maktabda tayyorgarligi anchagina jiddiy bo'lgan iste'dodli yoshlar o'qituvchilik qilishgan. Ularning qo'lida ta'lim olgan yoshlar orasidan keyinroq Hamza, Qayum Ramazon, Oybek, Mannon Uyg'ur kabi iste'dodli adib va san'atkorlar yetishib chiqishdi. Ulug' pedagog olib borayotgan ishlar zolim chor hukumati vakillarini ancha bezovta qilib qo'ydi. Munavvar Qori pedagogik va badiiy asarlar ham yozgan. U Turkiston o'lkasida birinchilar qatorida «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» (Jug'rofiya), «Havoyiji diniya» kitoblarini (1907-yilda) nashr ettirgan.

Ulug' mutafakkir bu ishlar bilan ham cheklanmadi. O'ziga o'xshash ochiq fikrli yoshlar – Ubaydulla Xo'jayev, Abdulla Avloniy, Toshpo'lat Norbo'tabekov, Karim Norbekov va boshqalar bilan hamkorlikda 1909-yilda toshkentlik bir boyning raisligida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Biroq, bu jamiyat erkin ish olib bora olmaydi. Lekin rais o'rinbosari bo'lgan Munavvar Qorining tinib-tinchimasligi natijasida jamiyat taraqqiyparvar yoshlar qo'liga o'tadi. Munavvar Qori Abdurashidxonov milliy matbuotning asoschilaridandir. U 1906-yil sentabrda «Xurshid» (Quyosh) jaridasini nashr etdi va unga muharrirlik qiladi. «Najot» (1917-yil), «Kengash» (1917-yil), «Hurriyat» (1917-yil), «Osiyo», «Haqiqat», «Turon» kabi matbuot nashrlarida muharrirlik qiladi. Munavvar Qori matbuotga elni, millatni g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi buyuk kuch, madaniyat va ma'rifatga chorlovchi buyuk vosita, haqiqat jarchisi deb qaradi. U «Sadoiy Turkiston» (1915–1918) jaridasida maktablarni takomillashtirish, imtihonlar o'tkazish haqida yozar ekan: «...Butun dunyodagi madaniy millatlarning qayg'u va hasratlariga ishtirok etmagan va bu shodlik masarratlaridan bahra olmagan bir qavm va bir millat bor esa, ul ham Turkiston turklaridirmiz», deydi.

Munavvar Qori 1913-yildan o'z faoliyatini boshlagan «Turon» truppasining tashkilotchilaridan edi. 1914-yil fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi ochilish marosimi bo'ldi. Spektaklning birinchi pardasini ochish Munavvar Qori Abdurashidxonovga topshirildi. Mazkur



tanatanada u bunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmag'onligi barchangizga ma'lumdir. Shul sababli ba'zi kishilarimiz teatrga, ehtimolki, o'yinbozlik yoki masxarabozlik ko'zlari ila boqurlar. Holbuki, teatrning asl ma'nosi «Ibratxon» yoki «Ulug'lar maktabi» degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsam, o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur». Munavvar Qori Turkiston o'lkasining qoloqligi sabablarini izlar ekan, «Mana, ket-baket yetgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonliq va olamdan xabarsizlik demakdin boshqa chora yo'qdir. Bu nodonliq va dunyodan xabarsizlik balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va o'rganmak kerakdir», deydi. U teatr san'atiga ana shu «buzuq odatlarning buzuqligini bilmak» va tuzatmak muassasasi, «tabibi hoziq» deb qaradi. Munavvar Qori Abdurashidxonov insonning ma'rifatli bo'lib, ko'zi ochilmaguncha vijdoni uyg'onmasligini, vijdoni uyg'onmasa, na o'zining, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu-imonsizlik ekanini mutafakkirona noziklik bilan o'z asarlarida ko'rsatib berdi. Bu ulug'vor yo'lda u mardonavor va qahramonlarcha kurashadi.



**Abdulla Avloniy** (1878–1934) o'zbek xalqining atoqli shoiri, muallimi va mutafakkiri, jadidchilarning yetuk vakillaridan biridir. U o'z tarjimai holidan: «Turli gazeta va jurnallar o'qishga tutindim. 1904-yilda jadidlar to'dasiga kirdim. Mirobodda «usuli jadid» maktabi ochib o'qituvchilik qila boshladim», deydi. Abdulla Avloniy o'zi ochgan maktab uchun to'rt qismdan iborat «Birinchi

muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar va o'qish kitobini yaratdi. Maktab-maorif ishlariga ko'mak ko'rsatuvchi «Jamiyati xayriya» tashkil etdi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochadi. U 1913-yilda tashkil etilgan





professional «Turon» nomli teatri to'garagining tashkilotchilaridan. Bu to'garak keyinchalik Hamza tomonidan tashkil etilgan truppa bilan qo'shilib hozirgi bosh drama teatri – Hamza nomidagi hozirgi Milliy davlat akademik teatriga asos bo'ldi. Avloniy to'garigidan keyinchalik mashhur inqilobchi va madaniyat arboblari bo'lib tanilgan Nizomiddin Xo'jayev, G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Shamsiddin Sharofiddinov (Xurshid), Mannon Uyg'ur singari ulug' shaxslar yetishib chiqdilar. Ular jadid yozuvchilar: Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza, Abdulla Qodiriy asarlarini sahnalashtirar va asosiy rollarni o'zlari o'ynar edilar. 1916-yilda ozarbayjonlik mashhur aktyor Sidqiy Ruhillo Toshkentga kelib «Turon» gruppasi bilan birga «Layli va Majnun» spektaklini sahnalashtiradi. Abdulla Avloniy bu spektaklda Qaysning otasi rolini ijro etadi. Ayni chog'da Avloniy o'z teatri uchun «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?» (1916) kabi sahna asarlari yozib beradi va ularni sahnalashtiradi. Bundan tashqari u tatar va ozarbayjon jadid yozuvchilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima ham qilgan. Abdulla Avloniy millat va yurt qayg'usi bilan, mamlakat istiqboli va ravnaqi ezgu niyati bilan yashadi va u bilan nafas oldi, o'z asarlarida uni kuylab tarannum etdi. Bu borada Avloniyning quyidagi so'zlari g'oyatda ibratlidir va xuddi bugungi kunda bizni o'ylab aytilgan so'zlarga o'xshaydi: «Har bir millatning dunyoda borligin ko'rsatadurg'on oynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur... Yohu bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'ldan chiqib ketduk! Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir, demishlar. Bobolarimizga yetishg'on va yaratgan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qotganlarni ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshimga tor edi, deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgu bo'lmak zo'r ayb va uyotdur».

Uning falsafiy-axloqiy yo'sindagi «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari bu jihatdan muhimdir. Bu asar insonga xos bo'lgan axloqiy sifatlarni o'z mazmuniga ko'ra yaxshi va yomon xulqlarga bo'ladi, unda tarbiyaning zo'r ta'siri bordir deb yozadi. U birinchi o'zbek diplomatlaridan biridir.





**Abdurauf Fitrat** 1886- yilda Buxoroda tug'ilgan. Fitrat 1909-1913-yillarda Turkiyada, aniqrog'i, Istanbulda tahsil oldi. Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi, siyosiy ongi va adabiy didini o'zgartirdi. Turkiston xalqi hayotiga Turkiyadagi o'zgarishlar (yosh turklar harakati) nazaridan qaray boshladi. Fitrat milliy ma'rifatparvar, taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarning fanga nisbatan salbiy munosabatda

bo'lgan vakillarini qoralar, islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimiga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yanligini keng targ'ib qildilar. U Buxoro va Samarqanddagi adabiy jarayon, madaniy maorif ishlari va siyosiy harakatlarda faol ishtirok etadi. Jadidlarning bir guruhi maorif - ma'rifat orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilishsa, ikkinchi guruhi davlat tizimini isloh etish, qayta qurish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intildi.

Ma'lumot berilishicha, Fitrat Moskvadan qaytib kelgach, Buxoro, Samarqand, Toshkent universitetlarida dars berdi. O'zbekiston Davlat ilmiy-tadqiqot institutida, Til va adabiyot institutida, O'zbekiston Fanlar qo'mitasida ishladi. Ammo Fitratning millatparvarligi bolsheviklar va Sho'ro hukumati rahbarligiga yoqmas edi. Xalqparvar, haqiqat, adolat, maorif, va millat taqdiri uchun tinimsiz intilgan sho'rolar hukumati aksilinqilobchi, millatchi, «Xalq dushmani» deb aybladi, 1937-yil aprelda hibsga oldi va 1938-yil 4-oktabrda A.Qodiriy, Cho'lponlar bilan birga vahshilarcha otib tashladi. Ularning otilishi haqidagi hukm bir kun keyin, ya'ni 1938-yil 5-oktabrda chiqqan. 1957-yilda sobiq Ittifoq Oliy sudining harbiy kollegiyasi 1938-yil 5-oktabrdagi hukmni bekor qildi va Fitratni aybsiz deb topdi. Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg'unlik, g'aflatdan uyg'otish, ilm-ma'rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi.




Fitrat o'z ona diyorini ozod va hur ko'rishni orzu qiladi. O'z niyatlari, ezgu armonlarini amalga oshirishda ojizlik qilgan Abdurauf Fitrat sohibqiron Amir Temurlar singari millat fidoyilarini qo'msaydi. U «Temur sag'anasi» dramasida o'z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi: «Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istarga keldi. Bog'lari buzilgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonning bir qorovuli senga arz etarga keldi». Bunday murojaat Fitratning boshqa asarlari mazmuniga ham singib ketgan. Ulardagi asosiy g'oya ona yurtni, Vatanni ulug'lash, xalq, millatning ozodligi va erkinligidir. U bir tomondan amir istibdodi, ikkinchi tomondan chor mustamlakasi zulmi ostida ezilgan xalqni, toptalgan yurtni ozod ko'rishni istadi.

Fitrat ana shunday ilg'or g'oya va fikrlar uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkoklik, isyonkorlikda ayblandi, chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda, kommunistik mafkura davrida millatchilik, panturkizm g'oyasi tarafdori deydi. Fitrat «Mirrix yulduziga» she'rida o'zimizdan chiqqan sotqinlar- yurtfurushlarni ham dalil fosh qiladi. Kelgindi hukumat qutqusiga- va'dalariga uchib, o'z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog'lab berishdan toymagan, «qorin-qursoq yo'lida elin, yurtin, borin-yog'in sotqonlar» shoirning o'tli nafratiga duchor bo'ladilar. Ular el-u yurtni o'zgalarga sotish bilan «borin-yo'g'in»- imonin, vijdonin, millatin, sotdilar.<sup>5</sup>



**Is'hoqxon To'ra Ibrat** ma'rifatparvar, shoir, tilshunos, ilk o'zbek matbaachilaridan, publitsist va pedagog edi. U 1862-yilda Namanganga yaqin To'raqo'rg'on tumanida bog'bon oilasida tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni onasi Huribibi maktabida oldi, so'ngra 1878-1886-yillarda Qo'qondagi Madrasai Muhammad Siddiq Tunqatorda tahsil ko'rdi. 1887-1895-yillarda Ibrat chet el safarida bo'ldi: Istanbul,

Sofiya, Afina, Rim kabi Yevropaning markaziy shaharlarida,



Sharqning Qobul, Jadda, Makka, Kalkutta, Bombay kabi yirik shaharlarida istiqomat qildi. Safardan qaytgach, «Lug'ati sitti-as-sina»(1901), «Jome'ul-xutub» (1913) ilmiy asarlarini, «Ilmi Ibrat» she'riy to'plamini bosmadan chiqardi. Ibrat o'qituvchi kadrlar tayyorlash, xotin-qizlarni ilm-ma'rifatga jalb qilishda faol qatnashdi hamda ijodiy ish bilan mashg'ul bo'ldi.

U To'raqo'rg'onda matbaachilikni tashkillashtirishga 1907-yilda kirishgan. Shu yilning yozida Orenburg shahriga borib, eng avvalo, mahalliy aholining madaniyati, urf-odati bilan yaqindan tanishadi. Shuningdek, sanoat va texnika yangiliklari bilan qiziqadi. Ilmga qiziqishi kuchli hamyurtimiz bu o'lkadan nusxa ko'chirish, kitob bosish imkoniyatiga ega dastgoh keltiradi. Bosmaxona mashinasi va anjomlarini katta mashaqqat bilan poyezdda Qo'qon shahriga olib kelgan Ibrat ularni To'raqo'rg'onga ot aravada tashib keltiradi. Nihoyat, bosmaxona ochib, uni «Matbaai Is'hoqiya» nomi bilan ataydi. Uning ilg'or tajribasiga butun To'raqo'rg'on ahli, ziyolilari, o'sha davr mahalliy hokimiyati jamoatchiligida katta qiziqish paydo bo'ladi. Unga qo'lidan kelganicha yordam bergan. Hatto Ibratning qo'shnisi Mirzaboy ota G'iyosov harf o'yish uchun uyidagi hosildor yong'oq daraxtini kesib berganligi hammaga ayon. Shuningdek, Ibratning tataristonlik do'sti Husayn Makeyev kelib, kichik bosmaxonada harf teruvchi sifatida ishlagan va bosma litografiyasini boshqargan, ma'rifatparvar hamyurtimiz ochgan maktabda rus tilidan dars bergan.

Ma'rifatparvar hamyurtimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan tuman bosmaxonasi 1908-yildan 1937-yilning iyul oyigacha g'oyat faol ish yuritgan. Bosmaxonani kengaytirish ilinjida Is'hoqxon Ibrat Namangan shahriga bir necha marta qatnab, nihoyat 1910-yilda 20 kun ichida viloyat markaziga dastgohlarni olib borgan. Buning natijasida bosmaxonaning iqtisodi rivojlandi. Ya'ni boshqa shaharlardan olinadigan buyurtmalarga yaqinroq bo'lgani uchun To'raqo'rg'ondagi bosmaxona saqlangan holda Namanganga ko'chirilgan bosmaxonaga chetdan chop etuvchi mashina va harf teruvchi qurilmalar keltirganligi ma'lum. Chopxona 1910-1937-yillarda, ya'ni 27-yil «Matbaai Is'hoqiya» nomi bilan xizmat qilgan.

Is'hoqxon Ibrat 1937-yilga qatag'on qirg'inining qurboni bo'ldi. O'sha yili To'raqo'rg'onning hozirgi Turkiston



mahallasidagi hovlisidan hibsga olinadi va Andijondagi qamoqxonaga olib ketiladi va o'sha yerda vafot etadi. Tuman bosmaxonasi To'raqo'rg'on nomi bilan, Namangan shahridagi bosmaxona esa «Udarnik» nomi bilan o'zgartirilib, faoliyat yuritgan.



**Abdulla Qodiriy** 1894- yil 10- aprelda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyatining boshlanishi 1910-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. «Fikr aylag'il», «To'y», «Aholimiz» kabi bir qator she'rlari chop etilgan. Adib ijodining boshlanish davri namunalari bo'lgan bu asarlarda ma'rifatparvarlik ruhi, jadidona kayfiyat seziladi. «Sadoi Turkiston» gazetasida uning «Yangi masjid va maktab» (1914-yil 1-aprel) sarlavha bilan birinchi

maqolasi e'lon qilindi. Shundan keyin adibning «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylag'il» kabi she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyalari chop etiladi.

Qodiriyning asarlari ma'rifatparvarlik ruhida yozilib, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. Adib o'z asarlarida xalqning zabun holatidan kuyib so'zlaydi, millatni uyg'onishga da'vat etadi. Qodiriyning 1920-yillarda yozilgan «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi?» satirik hikoyalari odamlar tabiatidagi muayyan salbiy illatlarni qoralaydi. Abdulla Qodiriy 1919-20-yillarda o'zbek adabiyotidagi birinchi roman «O'tgan kunlar» ni yaratdi. Unda xilma-xil insoniy taqdir, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning pafosini tashkil etadi.


«O'tgan kunlar» bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng





ko'lamda aniq-ravshan gavdalanitirilgan. Adib ushbu asar orqali o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o'mi masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik ekanligini tushuntirmoqchi bo'ladi. U roman orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, «tariximizning eng kir, qora kunlari», yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi «xon zamonlari», XIX asr o'rtasidagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqni saboq chiqarishga chorlaydi. El-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning mazmunini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi, yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. Garchand adib mukammal asarlar yozib, o'z xalqining ma'naviyati xazinasini, bebaho durdonalar bilan boyitayotgan bo'lsa ham, sobiq mustabit tuzum malaylari uni dushmanlikda aybladi. Abdulla Qodiriy 1937- yil 31-dekabr kuni hibsga olinib, 1938- yil 4- oktabrda xalq dushmani sifatida qatl etiladi.


Xullas, Abdulla Qodiriyning ijodi, asarlaridagi sotsial qarashlar yoshlarimizga ma'naviy ozuqa berish bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, tenglik, ma'naviy-axloqiy yetuklikka chorlaydi.



XX asr birinchi yarmida faoliyat olib borgan o'zbek ma'rifatparvaridan biri **Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon**dir. U 1898-yilda Andijonning Qatortarak mahallasida savdogar oilasida dunyoga kelgan. Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra madrasalar va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal o'zlashtiradi. Mutolaa yo'li bilan turk, nemis va ingliz tillarini

o'rganadi. sharq va g'arb ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan oziqlanadi. Cho'lpon 1922-1935-yillarda o'zining «Uyg'onish» «Buloqlar» «Tong sirlari» «Soz» kabi 4 ta she'riy to'plamini nashr ettirgan. 1917-yil fevral inqilobining ro'y berishi taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini o'zgartirib yubordi. Ular uning mustaqillik uchun kurashi endi targ'ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini angladilar.

Cho'lpon «Turkiston muxtoriyati» hukumatining barpo




etilishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharaflovchi «Ozod turk bayrami» she'rini yozdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo'ldi. Shu davrda Turkistondagi ko'p millatli ziyolilar o'rtasida federalizm g'oyasi keng tarqalgani sababli Cho'lpon ayni paytda Zaki Validiy bilan birga Orenburgga borib, Boshqirdiston muxtoriyat hukumatining tashkil etilishida ham ishtirok etgan. Federalistlarning fikrlariga ko'ra Turkiston va Volga bo'yidagi turkiy xalqlar o'z muxtoriyat hukumatlarini barpo etganlarida bu hukumatlar bolsheviklar tomonidan tan olinishi va birgalikda himoyalaniishi mumkin edi.

Muxtoriyat tugatilgach, Cho'lpon «Ilmiy kengash», «Chig'atoy gurungi», «Nashri maorif» tashkilotlari va «Turon» teatrida adabiy, ilmiy-ma'rifiy ishlarini davom ettirdi. Ayni paytda sho'ro davlatining mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she'r va maqolalar yozish bilan istiqlol uchun kurashda davom etdi. Cho'lpon adabiy merosi g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra ikki guruhga ajraladi: sof lirika va ijtimoiy-siyosiy lirika. Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi.

Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir davrning shu talabi bilan bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan «Buzilgan o'lkaga», «Xalq», «Vijdon erki», «Kishan» kabi she'rlar yozdi. Shoirning yozilgan she'rlari vatandoshlarida o'zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini tarbiyaladi. Uning 1920-yillarda yozilgan «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» singari hikoyalarda o'zbek xotin-qizlarining ayanchli takdiri, jamiyatning taraqqiyoti shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi degan g'oyani ilgari suradi. Cho'lpon 1925-yilga kelib, «Muhit kuchli ekan, egdim bo'ynimni» deya ijtimoiy qarashlarini o'zgartirishga majbur bo'lganligi e'tirof etadi. Ammo shunga qaramay, shoirimiz yaratgan ikki yuzdan ortiq she'riy asarlar el-yurt baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi uchun kurashning yorqin solnomasi, desak bo'ladi. Garchi vaqti-vaqti bilan uning tuyg'u va

tafakkurida tebranishlar kechgan bo'lsa-da, aslida milliy istiqlol uchun kurashdan zarracha qaytmaydi.

Adib 1937-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'g'may, otib tashlandi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon milliy ozodlik uchun kurash yo'lida millatparvarlik g'oyalarida ko'rsatgan matonati va buyuk xizmatlari uchun 1999-yilda «Mustaqillik» ordeni bilan mukofotlandi.




Atoqli shoir ma'rifatparvar, islohotchi **Hamza Hakimzoda Niyoziy** 1889-yil Qo'qonda tabib oilasida dunyoga kelgan. Otasi ma'rifatli va ilg'or ziyoli bo'lgan. Hamza eski maktabda, rus-tuzem maktabida va madrasada tahsil oladi, fors, arab va rus tillarini urganadi. U Lutfiy, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat asarlarini o'qib o'rgangan.

Hamza o'zining pedagogik faoliyatini 1910-yilda Toshkentda Qashqar mahallasida, 1911-yilda Qo'qonda, 1914-yilda Marg'ilonda va yana Qo'qonda maktablar ochib, bolalarni o'qitishdan boshlagan. U maktablarda dars berish bilan cheklanib qolmasdan, ayni paytda «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi», «Qiroat kitobi» (1914-1915 yil) kabi darsliklar ham yozgan. Hamza bir shaharda usuli savtiya maktabini ochib quvg'in qilinsa, ikkinchi shaharda yana shunday jadid maktabini tashkil qilgan va ko'proq kambag'al bolalarni, kambag'allarni o'qitishga intilgan. Uning maorif o'qitish ishlaridagi yutug'i shunda bo'ldiki, islomni usuli savtiya bilan bog'lay olgan, Qur'on va Hadislarni faol yordamga tortib, xalqni ilm-ma'rifatga, yangilikka da'vat etgan. 1913-1914-yillarda Hamza chet ellarda Afg'oniston, Hindiston, Suriya, Turkiya mamlakatlarida, Makkada sayohatda bo'lgan va u mamlakatlar hayotida ro'y berayotgan o'zgarish bilan tanishib, 1915-yilda Shohimardonda maktab ochgan va bolalarga dunyoviy fanlardan dars bergan. Uning pedagogik qarashlarida xalq maorifini demokratik asosda qayta qurish, maorifning yangi tizimini yaratish g'oyasi ilgari surilgan.

Hamza yoshlarni barkamol qilib yetishtirish tarbiyaga







bog'liqligini aytgan. Uning fikricha, maktab bolalarni ilmli, odobli qilib tarbiyalash va hunarga o'rgatish kerak, maktabda dunyoviy fanlar o'qitilishi kerak degan vatanparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. U oila muhitida bolalarni tarbiyalash masalasi alohida o'rinda turadi, chunki bola barkamol inson, go'zal axloqli bo'lib yetishishi uchun, avvalo, oilada sog'lom muhit, tarbiya to'g'ri qo'yilsagina, oilada bola axloqli, go'zal xulqli, jamiyatga, xalqqa munosib farzand bo'lib yetishadi deydi. Ma'rifatparvar shoir dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy 1929-yil Shohimardonda bir guruh mutaassib dindorlar tomonidan o'ldiriladi.

Hamza o'z davrining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida, asosan, bolalar ta'lim-tarbiyasi, odob-axloq, kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini, vatanga, ota-onaga va boshqa odamlarga bo'lgan insoniylik ruhini shakllantirish eng muhim vazifalardan deb hisoblagan. Hozirgi davrda ham mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohaga e'tibor keng qaratilgan va shu soha bo'yicha kadrlar tayyorlab, ish o'rnlari yaratilmoqda.

Hozirgi kunda yoshlarga o'z ustida ishlashi uchun juda katta imkoniyatlar eshigi ochilgan, bu esa yoshlar uchun juda qo'l kelmoqda. Yoshlarning ajdodlarimiz kabi ma'rifatparvarlik yo'lida bo'lishiga sharoitlar yetarli va undan unumli foydalanish kerak, xolos. Imkoniyat eshiklari har doim yoshlar uchun ochiq bundan qanday foydalanish esa o'z qo'llaridadir. Ma'rifatparvarlik g'oyalari hech qachon yoq bo'lmaydi, faslimiz kabi yuksalib boraveradi.

**Tayanch iboralar:** Jadid, Gaspirinskiy, Munavar Qori, «Oyina», «Najot», «Turon», «Padarkush», milliy g'oya, mafkura, davlat, hurlik.

### Nazorat savollari

1. Jadid so'zining ma'nosi?
2. Milliy g'oya nima?
3. Sotsial muammolar haqida gapiring.
4. M.Behbudiyning ijtimoiy qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
5. «O'tkan kunlar» asarining ahamiyati?
6. Milliy demokratik davlat tushunchasi?
7. Turon teatr truppasining faoliyati haqida so'zlab bering.



# SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARINI O'ZBEKISTON SOTSIAL TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

## REJA:

1. Sotsial hayotda sotsiologik ta'limotlarning o'rni.
2. Sotsial taraqqiyot va ma'naviy hayot dinamikasi.
3. O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyoti.

Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning madaniy qadriyatlari ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar tuzumdan keyin bu jarayon dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos inkorni inkor sifatida kechdi. Tarix xotirasi xalq, jonajon o'lka, davlatimiz hududini xolis va haqqoniy tiklash, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblardan ko'p o'tgan. Imom Buxoriy, Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, al-Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy qadriyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar. Xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. Ayni shu





zamonda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlariga dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, Eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yaxudiyalar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi asr davomida o'zlarini madaniyatli va ma'rifatli hisoblab kelgan davlatlarning ommaviy qirg'inlari va turli diniy ta'limlar o'zlariga dog' tushirgan bir paytda o'zbek zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joy bo'libgina qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarning yurti, makoniga aylandi.

Ogyust Kont sotsiologiyada sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izchilligi, birin-ketinligini ochib beradi. U jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning harakatlari sotsial dinamikaning sotsial mobillik (lotincha mobilis - harakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar deb ataladigan ko'rinishlarni ifodalaydi. Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashg'ulotlarning o'zaro almashtirishini anglatadi. Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiq» yoki «yopiq»ligini tavsiflash uchun ishlatiladi. Sotsial mobillik intergeneratsion (avlodlar orasidagi) va integeneratsion (avlod ichidagi) turlarga ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'g'liga (kamdan-kam hollarda onadan qizga) o'tishi generatsion sotsial mobillikka, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bogliq individual belgilar esa intrageneratsion sotsial mobillikka misol bo'la oladi. O'zgarishlar yo'nalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizontal sotsial mobillik farqlanadi. Sotsial mobillikning empirik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik, barqarorlik-stabillik indeksi xizmat qiladi. Bu indeks tekshirilayotgan guruhdagi mobil va stabil shaxslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari mobil (o'zgaruvchan) shaxslarning jinsi, ma'lumot



darajasi, «aqli rasolik koeffitsenti», millati, irqi, turar joyi, sog'-salomatligiga qarab ham sotsial mobil shaxslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korellyatsiya (mos keluvchi) koeffitsientlar hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillik o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokazolarga bo'lish mumkin. Sotsial differentsiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial differentsiatsiya tushunchasi birinchi bo'lib Gerbert Spenser tomonidan qo'llanilgan. Emil Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differentsiatsiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo, guruhlararo muloqotlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Reproduktiv dinamika. Sotsial dinamikaning bu turi tugilish, ishlab chiqarish, ekologiyaning sotsial jihatlarini o'z ichiga oladi. Aholi sonining o'sishi, tugilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial sub'ektlar reproduktiv o'mashmalarga aloqador bo'ladi;

2. Maqom (status) sotsial dinamika. U o'z ichiga xizmat lavozimlarida ko'tarilishi yoki pasayishini, turmush darajasi va sifati kabilarni qamrab oladi;

3. Hududiy sotsial dinamika. Aholi ko'chishlarining sur'ati va miqdorlarining sotsial jihatlarini, katta shahar vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi, uning sotsial oqibatlari hududiy (territorial) sotsial dinamika ob'ektlaridir;

4. Ma'naviy hayot dinamikasi manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o'zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo'ladi;

5. Siyosiy dinamika jamiyatning sotsial-sinfy tarkibi, hokimiyat shakllari o'zgarishini anglatadi;

6. Fan - texnika dinamikasi. Fan-texnika taraqqiyotining





sotsial jihatlari, ishlab chiqarish vositalari o'zgarishlarining ijtimoiy sub'ektlar hayotiga ta'siri, axborot va kommunikatsiya bilan bogliq sotsiodinamik o'zgarishlar fan-texnika dinamikasiga kiradi;

Emil Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi g'oya mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiriladi. Ijtimoiy rivojlanish, uning fikricha, mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik – hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym nazariyasida sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil mehnat taqsimoti deb qaraladi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning barham topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. Emil Dyurkgeymning fikricha, bu jamiyat individining ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mexanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir. Jamiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Lokal (mahalliy) segmentlar chegarasi buzila boshlaydi, chunki, turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga kela boshlaydi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kishilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. Dyurkgeym nazariyasida ushbu vujudga keladigan birdamlikning yangi ko'rinishi organik birdamlik deb talqin etilgan.

Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li - reforma, islohotdir. Ijtimoiy rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi.

Ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologik, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyatini ta'minlash uchun ularning dastur va maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan funksiyadar. Sotsial boshqarish esa jamiyat muayyan tizimining tartib saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: axboratni yig'ish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab



chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishida umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan birgalikda faoliyat natijalari haqidagi axborotni to'plash va qayta ishlashdir. Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Bashorat kategoriyasi ikki ma'noda konkretlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash ma'nosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq). Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish, bu keng ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi. Sotsial taraqqiyot va sotsial o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida sotsial boshqarish talqin etilar ekan, uning quyidagi shakllari mavjud: sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish.

O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Yetmish yildan ziyod vaqt mobaynida qaramlik sharoitida yashagan xalqimiz yelkasiga quyosh tegdi. Istiqlol sharofati bilan milliy-ma'naviy tiklanish yuz berdi. Milliy tarix tiklana boshlandi, dunyo mamlakatlari tomonidan mustaqillik tan olina boshlandi. O'zbekistonni 125 dan ortiq davlat tan olgan. 40 dan ziyod xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Tarixda ilk bor 1992- yilning 2- martida O'zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi haqiqatan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlar va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish amalda mumkin bo'lib qoldi.

Milliy davlatchilik asoslarini qurish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonni jahonga nomoyon qilish, jahon hamjamiyatining boshqa mamlakatlari qatorida teng bo'lib olish sari dadil qadam tashlandi. Hayotning, jamiyatning asosiy tamoyillarini va davlatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tuzilmalarini hal qiluvchi, umuminsoniy qadriyatlarga





asoslangan, erkin demokratik kelajakni aniq belgilab bergan Konstitutsiya qabul qilindi. O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqining manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirildi. Ayniqsa, bugungi chuqur o'zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan kirib bormoqda. Sodir bo'layotgan tub siljishlar mamlakatimiz qiyofasini o'zgartirib yubormoqda. O'zbekiston davlat mustaqilligini amalda namoyon qiladigan va ro'yobga chiqaradigan tashkiliy tuzilmalarni rivojlantirish jarayoni davom etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov Respublikani milliy mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqdi. Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyov boshchiligida mamlakatimizda itimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlanish sari dadil qadam tashlanmoqda. Barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi va ichki siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish hamda milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub negizida xalqni rozi qilish, kuchli davlat barpo etish kabi ajdodlarimiz orzu qilgan ezgu maqsadlar yotibdi. Shuningdek, O'zbekiston xalqining munosib turmushini, uning huquqlari va erkinligini kafolatlash, milliy an'analar va madaniyatning qayta tiklanishini, shaxs sifatida insonning ma'naviy-axloqiy kamol topishini ta'minlash sohalarida ham islohotlar kundan kunga jadal davom etmoqda. Jahon va o'zimizning amaliyotimizdan olingan barcha umuminsoniy va milliy qadriyatlar hamda tajribalarni rad etmagan holda, o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olish respublikamizning qat'iy pozitsiyasidir. O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishidan iborat o'z yo'li aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. O'tmishdagi an'anaviy jamoa turmush tarziga borib taqaladigan jamoatchilik, mahalla asoslari o'zbekkagina xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'grisida g'amxo'rlik qilish, ochiqko'ngillilik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning

me'yori hisoblanadi.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li 4 ta asosiy negizga asoslanadi. Bular:


- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin nomoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Davlat ramzlari – bayroq, tamg'a, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. Islohotlar strategiyasini amalga oshirishda biz uchun quyidagilar uzluksiz ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi: - ta'lim va madaniyatni rivojlantirish hamda isloh qilish; - aqliy va ma'naviy salohiyatni mustahkamlash; - aholini ijtimoiy himoya qilish. Chuqur islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, birinchi navbatda, kadrlar potensialiga, ularning kasb jihatdan tayyorgarligiga bogliq bo'ladi. «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga, – degan edi Islom Karimov. – Ularni hal etish mumkin, xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qaddini baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda! Shu boisdan «hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'nalarimizning saqlanishi va madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan bog'liqidir»».

So'nggi yillarda mamlakatda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarini demokratlashtirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, inson salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, aholining farovonlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan







«Harakatlar strategiyasi»ning qabul qilinishi mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarmoqda.

Shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament, siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyati va boshqa institutlari rolini yanada kuchaytirish, sud-huquq sohasi, qonun ustuvorligini ta'minlashga va inson huquqlarini ishonchli himoya qilishga yo'naltirilgan, iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirishga, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, liberallashtirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga, uning bandligini ta'minlashga, real daromadlarini oshirishga va xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, madaniyat, san'at, sport, ilm-fan va boshqa jamoatchilik fikrini o'rganish va tahlil qilish, aholining ijtimoiy fikrini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu islohotlarni sotsiologik tahlil qilib borish maqsadida 2019-yil 22-fevralda «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5667-son farmonining qabul qilinishi mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Tayanch iboralar:** sharq, alloma, O'zbekiston, sotsial ehtiyoj, islohot, BMT, ijtimoiy himoya, dinamika, guruh, inson, qadriyat.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. O'zbekistonda sotsial islohotlar haqida nimalar deya olasiz?
2. Jamiyatda ilm-fan masalasi?
3. Jamiyat sotsial strafikatsiyasi nima?
4. Inson omili va gender tengligi haqida so'zlang
5. Jamiyatdagi sotsial munosabatlarga misollar ayting.
6. Davlatning sotsial vazifalari?
7. Ijtimoiy adolatning ta'minlanishi nima?



Sharq mutafakkirlarning sotsiologik qarashlari fani eramizdan avvalgi ming yillikdan boshlab XX-asrning boshlariga qadar bo'lgan davrda yashab ijod etgan Sharq allomalarining sotsiologik ta'limotlari va qarashlarini o'rganishga qaratilgan. Taqdim etilgan kurs sotsiologlar va sotsiologiya talabalarining nazariy-uslubiy bilimlarini oshirishda, jahonda ro'y berayotgan sotsial jarayonlarni chuqur o'rganish va tahlil qilishdagi asosiy konseptual yondashuvlar bilan tanishishi, sharq allomalarining jamiyat, davlat, shaxs, ma'naviy sohalarini qamrab olgan soyiologik qarashlari bilan tanishtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sharqda sotsiologik tafakkurning bugungi kun sotsiologiya fani sohasidagi o'rni va rolini ko'rsatib berishdan iborat.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning ijtimoiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, sotsiologiyani mukammal darajada bilish, jamiyat haqidagi tasavvurlarini boyitish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish, jahonda ro'y berayotgan sotsial muammolarning ijtimoiy ildizlarini anglab yetish va ularning yechimlarini topishga sotsiologik nuqtai-nazardan yondashish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi. Shu bilan birga, yurtboshimizning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga qaratilgan islohotlarning mazmun mohiyatini anglab yetishda ko'makchi vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida sotsiologiya sohasiga oid manbalar va ularda qayd etilgan ijtimoiy qarashlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sohaga oid tarixiy ma'lumotlar va manbalar jamiyat taraqqiyotida ro'y beradigan hodisa va jarayonlarni tadqiq etishda, ularning kelib chiqishi va



rivojlanish dinamikasi haqida fikr yuritish va sotsiologik tahlil qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy qarashlarini chuqur o'rganish bo'lajak sotsiolog-mutaxassislar uchun shu sohani millatimiz mentaliteti, xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda rivojlantirish uchun asos bo'ladi.


Shu bilan birga «Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti» sotsiologiya fanining muhim yo'nalishi sifatida jamiyat rivojining turli bosqichlaridagi ijtimoiy fikr va qarashlarning ahamiyatini va uning sotsiologik bilimning boshqa tarkibiy qismlarining rivojlanishidagi o'rnini o'rganadi. Sharq allomalarining ijtimoiy qarashlarini o'rganish natijasida talabalar ularning tafakkur tarzini tushunish va izohlay bilish malaka va ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limotlari jamiyatning sotsial negizi, tarkibiy qismlari, sotsial qonunlar va kategoriyalar, jamiyat ijtimoiy-madaniy hodisa va jarayon ekanligining mohiyati, sohaga oid tizim va ularning amal qilish qonuniyatlari kabi masalalarni qamrab oladi. Jamiyatda mavjud ijtimoiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lish, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan ta'minlaydi.

Shuningdek, «Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti» fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish, mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar, buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: Шарк, 1998.й.- 31. б.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. й. – 176. b.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440. б.
4. Каримов И.А. -Ўрта асрлар Шарк алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти! мавзусидаги халаро конференциясининг очилиш маросимидаги нутқи. Халқ сўзи. 2014 йил 16 май.
5. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабр.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. –17 январ.
7. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017–2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси» ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28.
9. Абдурауф Фитрат. Оила. Тошкент: Маънавият, 1998. – 112. б.
10. Абдулла. Кодирий. Ўтган кунлар. Мехробдан чаён. Романлар. Ғафур. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 656.б.
11. «Авесто»: Тарихий-адабий ёдгорлик, Тошкент: Шарк, 2001.й. - 384.б.
12. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Тошкент: Шарк, 2000. -368 б.
13. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. Toshkent: Akademiya, 2000. – 215 б.
14. Алишер Навоий. Махбуб ул кулуб. Тошкент: Ғафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 112 б.
15. Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат. Тошкент: Ғафур. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 88 б.





16. Barkamol avlodni shakllantirish – ma’naviy taraqqiyot omili. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: O‘zMU, 2010.

17. Bekmurodov M. Madaniyat sotsiologiyasi. Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 144 b.

18. Беруний Абу Райхон. 100 ҳикмат: ибратли сўзлар. Тошкент: Фан, 1993. – 94 б.

19. Бобур. Бобурнома. Тошкент: Юлдузча. 1989. – 368 б.

20. Болтабоев Х. Ислом тасаввуфи манбаалари. Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 399 б.

21. Буюк юрт алламолари. Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 420 бет.

22. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 224 б.

23. Жумабоев Й. Ўзбекистонда фалсафа ва ахлоқий фикрлар таракқиети тарихидан. Тошкент: Ўқитувчи 1997

24. Ибн Сина. Избранные философские произведения / Отв. ред. Асимов М.С. Москва: Наука, 1980. – 554 с.

25. Кабиров А. Қадимги шарқ тарихи. Тошкент: 2018 - 405 б.

26. Кайковус. Қобуснома. Тошкент: Мерос, 1992. - 176 б.

27. Каримов Н. Маҳмудхўжа Бехбудий. Тошкент: Ўзбекистон, 2011. - 29 бет.

28. Маннонов Б., Остонова Г., Камолитдин Ш. Амир Темурнинг туркий ёрлиғи. Тошкент. 2005. - 50 бет.

29. Muhammadjonov A. Amir Temur (risola). Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011. y.

30. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994. y.

31. Мухаммадиева О. Мирзо Абдулқодир Бедилнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2010, - 76 б.

32. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. –Toshkent: Fan, 1993 yil. -57 б.

33. Навоий А. СаддиИскандарий. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. - 330 б.

34. Назаров Қ. ва бoshq. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. Тошкент: Фафур Фулом, 2009. -

35. Nazarov Q. va boshq. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009. -

36. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сиярул-мулк. Тошкент: Адолат, 1997. – 255 б.



37. Орзиев М.З. Эргашев Ж.Ю. Жахон цивилизациялари тарихи. (Ўқув услубий қўлланма). Бухоро. 2018. - 167 б.

38. Орипов А. Сохибхирон. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.й.

39. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev O'. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari) ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq, 2010 – 512 b.

40. Саифназаров И. «Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият». -Тошкент: 2001. 6-51 бетлар.

41. Содиқов Х., Шамсутдинов Р., Равшанов П. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент: Шарқ, 200. - 464 бет.

42. Социология энциклопедия. Мн.: Книжный дом, 2003. - 1312 с.

43. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент: Фан, 1997. - 414 б.

44. Темур ва Улуғбек даври тарихи. Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1996 й.

45. Темур тузуқлари. Б. Аҳмедов тахрири остида. Тошкент: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 144 б.

46. Usmonov Q, Jo'raev U, Norqulov N. O'zbekiston tarixi (XVI–XIX asr birinchi yarmi). Toshkent.: O'qituvchi, 2010.y.

47. Фалсафа: Қомусий луғат. Тошкент: Шарқ, 2004.й.

48. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993 й. - 222 б.

49. Холбеков А.Ж. Шарқ ва ғарб мутафаккирларининг социологик таълимоти. Тошкент: Университет, 1996. – 136 бет.

50. Чўлпон. Яна олдим созимни Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1991 -124 б.

51. Шомухамедов Ш. Форс-тожик классиклари ижодида гуманизм, Тошкент., 1968 йил.

52. Юсуф Хос Хожиб кутадғу билиг. Тошкент: Фан. 1971 й.


53. Ўзбекистон Республикаси Давлат Божхона Қўмитаси «Қайтарилган ноёб бойликлар» журнал. -Тошкент: 2003. 6-25 бетлар.

54. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 9. Тошкент. 1968 йил.

55. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-12 жилдлар. Тошкент. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2000-2006 й.й.

56. O'rta asrlar Sharq allamolari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy tsivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati.





Xalqaro konfrentsiya materiallari 2014-yil 15-16 may. Toshkent. O'zbekiston. – 88 bet.

57. Ўтамуродов А., Ҳасанов Р. Фуқаролик жамияти: ғоялар эволюцияси (Шарқ ва Ғарб мутафаккирлари талқинида) Услубий қўлланма. // “Фуқаролик жамияти” фанидан дарс ишланмаси (иккинчи китоб). -Тошкент: МРДИ, 2017.- 96 б.

58. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

59. Қахҳорова М. «Маънавий ахлоқий ворислик». «Тафаккур» журнали. 2004. № 4. 86-87 бетлар.

60. Hidoyatov G.A., Kostetskiy V.A. O'zbekiston tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlari). Toshkent.: O'zbekiston, 2006.y.

#### Диссертациялар:

1. Мухаммаджонова Л.А. Маърифатпарвар шоиралар-Дилшод Барно ва Анбар Отиннинг ахлоқий қарашлари. Ф.ф.н. Т. 2005й. -143 б.

2. Тошмуродова Қ.А. Тасаввуф таълимотини ўрганишда талаб-ёшлар шахсининг шакллантиришнинг илмий-методик асослари: п.ф.д. Т. 2006 й.

3. Авазов Ю.У. XIX аср охири XX аср бoshларида Бухоро Амирлигининг Жануби-Шарқий бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт. Т.ф.н.-Тошкент: 2005й.-168б.

4. Жалилов З.Б. IX-XII асрларда шарқ мутафаккирлари яратган тарбиявий кадриятлардан олий педагогик таълим жараёнида фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш. Дисс.ав.Тошкент. 2018. й.

#### Интернет сайтлари:

<http://www.uza.uz>

<http://www.lex.uz>

<http://www.shosh.uz>

<http://www.ziyounet.uz>

<http://www.en.wikipedia.org>

<http://www.moluch.ru>

<http://www.socionet.narod.ru>

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Qadimgi Sharqda ilk sotsiologik ta'limotlarning shakllanishi.....	5
Qadimgi Xitoyda sotsiologik ta'limotlarning shakllanishi.....	18
Buddaviylik ta'limoti.....	26
«Avesto» da jamiyat haqidagi qarashlar, moniylik va mazdakiylik ta'limotlari.....	35
Islom dinining kelib chiqishi va sotsial mohiyati.....	47
IX-XII asrlarda sharqda ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi.....	57
Markaziy Osiyoda hadis va fiqh ilmlari rivoji.....	71
Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....	81
Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....	90
Abu Ali ibn Sinoning faoliyati va ilmiy merosi.....	104
XII-XIV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-axloqiy g'oyalarning rivojlanishi.....	112
XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda sotsial fikrlarning taraqqiy etishi.....	123
Alisher Navoiy va Boburning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....	132
XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda sotsiologik ta'limotlar taraqqiyoti.....	140
XIX asrning II- yarmida Markaziy Osiyodagi sotsiologik qarashlarning rivojlanishi.....	151
Turkistonda jadidchilik harakati va ularning sotsiologik ta'limotlari.....	160
Sharq mutafakkirlari sotsiologik ta'limotlarining O'zbekiston sotsial taraqqiyotidagi o'rni.....	177
Xulosa.....	185
Foydalanilgan adabiyotlar.....	187

**KODIRJON ODILJONOVICH MAXKAMOV**

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING  
SOTSIOLOGIK TA'LIMOTI**

**(o'quv qo'llanma)**

Muharrir:	Shuxratjon Abdullaev
Dizayner:	A'zamjon To'xtabaev
Sahifalovchi:	Nodirbek Mirzaxolov

Bosishga ruxsat etildi 20.08.2020 yil.  
Bichimi 60x84 1/16 kegli 14. "Times New Roman" garniturası.  
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 12. Nusxasi 100 dona.  
Bahosi kelishilgan narxda.

---

«Fazilat orgtex servis» xususiy korxonasida chop etildi.  
Manzil: Namangan shahri, A. Navoiy ko'chasi, 72- uy



